

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI  
AJINIYOZ NOMIDAGI NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

Qo'lyozma huquqida

UDK 801.561-.943.75

## **URAZBAYEVA DILNOZA**

**“ONA TILI” DAN MASHQ VA TOPSHIRIQLARNI  
TAKOMILLASHTIRISH TEXNOLOGIYALARI (7-SINF DARSLIGI  
MISOLIDA)”**

5A111201 – O'zbek tili va adabiyoti

Magistr

akademik darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya

Ilmiy rahbar:

p.f.n. Sh.Sh.Yuldasheva

Nukus – 2017

## **DAKga himoya qilishga ruxsat berilgan**

## **Magistratura bo‘limi**

boshlig'i: \_\_\_\_\_ dots. M.Allambergenova

**Kafedra mudiri:** \_\_\_\_\_ p.f.n. **Sh.Sh.Yuldasheva**

**Ilmiy rahbar:** \_\_\_\_\_ p.f.n. Sh.Sh.Yuldasheva

# Magistrlik dissertatsiyasi

## Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti rektorining

«\_\_\_» «\_\_\_\_\_» 2017-yil \_\_\_ sonli buyrug‘i bilan himoya qilishga ruxsat berildi.

## MUNDARIJA

<b>Kirish</b> .....	
<b>Birinchi bob. Ona tili ta’limi va innovatsiyalar</b> .....	
1.1. Ona tilidan kompetensiyalarni shakllantirish: DTS, o‘quv dasturi, ta’lim vositalari va usullari. ....	
1.2. 7-sinf uchun “Ona tili” darsligi tahlili. ....	
<b>Ikkinchi bob. “Ona tili”dan mashq va topshiriqlarni takomillashtirish texnologiyalari</b> .....	
2.1. Ona tilidan mashq va topshiriqlarga qo‘yiladigan talablar. ....	
2.2. Uyga vazifa muammosi: uyga vazifa topshiriqlarini takomillashtirish texnologiyalari .....	
2.3. Ona tili darslarida loyiha texnologiyalari: topshiriqlar turlari .....	
<b>Uchinchi bob. 7-sinf “Ona tili” darsligi uchun “Mashq daftari” va “Elektron daftar” yaratish texnologiyalari</b> .....	
3.1. Ona tili va xorijiy tajribalar .....	
3.2. 7-sinf uchun “Ona tili”dan “Mashq daftari” yaratish texnologiyasi	
3.3. 7-sinf uchun “Ona tili”dan “Elektron daftar” yaratish texnologiyasi .....	
<b>Xulosa</b> .....	
<b>Foydalanilgan adabiyotlar</b> .....	
<b>Ilovalar</b> .....	

## KIRISH

**Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbliji.** XX asr oxirida ona tili mazmunining o‘ta ilmiyligi, o‘quvchilarning foydali amaliy ishlar bilan shug‘ullanish o‘rniga, son-sanoqsiz grammatik qoidalar, ta’rif va tushunchalarni “o‘zlashtirish” bilan band bo‘lib qolganligi bois ta’lim mazmunini yangilash muammosi tilshunos va metodist olimlar tomonidan kun tartibiga qo‘yilgan edi. Ona tili darsliklarida ilmiy ta’rif va qoidalar kamaytirilib, amaliy ish turlariga asosiyligi e’tibor qaratilganligi muammo yechimi sari qo‘yilgan ilk qadamlar bo‘lgan edi. Ona tili ta’limida o‘quvchilarning o‘quv va ijodiy faoliyklarini oshiruvchi, ta’lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi pedagogik texnologiyalarni qo‘llashga doir katta tajriba to‘plandi: barcha fanlar qatori ona tili mazmuni, o‘qitish metodologiyasi va metodikasi takomillashtirildi. Shunday bo‘lsa ham, ona tilidan o‘zlashtirish respublikada 60 foizga ham ko‘tarilmayapti. Aslida zamonaviy ta’limni tashkil etishga qo‘yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak kafolatli natijalarga erishishdan iborat. Ona tili ta’limidan olayotgan natijalarimiz esa salmoqli bo‘lmayapti.

Birinchi Prezidentimizning: “O‘qituvchi bolalarimizga zamonaviy bilim bersin, deb talab qilamiz. Ammo zamonaviy bilim berish uchun, avvalo, murabbiyning o‘zi ana shunday bilimga ega bo‘lishi kerak”<sup>1</sup> – degan talablari texnologiyalar, innovatsiyalar shiddat bilan kirib kelayotgan davrimizda yanada dolzarblik kasb etmoqda. Ayniqsa, xorijiy tillarni o‘rgatish tizimining takomillshtirilishi<sup>2</sup>, zamonaviy ta’lim vositalari yordamida sun’iy muhitda xorijiy tillarni zo‘r ishtiyoq bilan o‘rganayotgan, burro-burro gapi rayotgan

<sup>1</sup>Ўзбекистон Республикаси Биринчи Президенти И.А.Каримовнинг Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси 1Х сессиясида сўзлаган нутқидан, 1997 йил 29 август. Баркамол авлод – Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. – Тошкент: Шарқ, 1997. – Б.7.

<sup>2</sup> O’zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining 2012-yil 10-dekabrdagi “Chet tillarni o‘rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori

o‘quvchilarning ona tili ta’limida ham yangi texnologiyalar, innovatsiyalar qo‘llanishini talab qilishi tabiiy hol. Ijodiy tafakkur sohibini tarbiyalash maqsadida ona tilidan yaratilayotgan dastur va darsliklar tajribalar asosida takomillashtirilayotgan, avvalgi darsliklardan tubdan farq qilgan holda mashq va topshiriqlarning berilishi, mazmun va mohiyati tubdan o‘zgartirilayotgan bo‘lsa ham qisqa muddatlarda xorijiy tillardan ham og‘zaki, ham yozma nutqi rivojlanayotgan o‘quvchilarimizga ona tilini o‘qitishda orqada qolmoqdamiz.

Demak, ona tili o‘qitish tizimida e’tibordan chetda qolgan ba’zi uzvlar, masalalar borki, ularni aniqlash, tizimdagi ahamiyatlilik darajasiga ko‘ra e’tibor qaratish, tadqiq qilish zarur. Tadqiq qilish taqozo qilinayotgan masalalardan biri ona tili ta’limi uchun til sathlariga mos mashq va topshiriqlarni takomillashtirish texnologiyalarini yaratish masalasidir. Xorijda til ta’limida ta’lim jarayoniga shiddat bilan kirib kelayotgan axborot texnologiyalarining yuqori samaradorlikka erishishda muhim omil bo‘layotganligi, o‘tgan asrning 90-yillaridayoq amaliyotga kiritilgan “Ish daftarlari”ning “Elektron daftar”larga aylantirilayotganligini, bu borada respublikamizda ishlarning sust ketayotganligini hisobga olsak, masalaning dolzarbliyi yanada oydinlashadi. Mashq va topshiriqlarni takomillashtirish va ularni bajarishda o‘quvchi vaqtini iqtisod qilish, shu bilan birga o‘qituvchilarning mehnatini yengillashtirish zaruriyatini e’tiborga olgan holda magistrlik dissertatsiyamiz mavzusi **“Ona tili”dan mashq va topshiriqlarni takomillashtirish texnologiyalari (7-sinf darsligi misolida)”** deb belgilandi.

**Tadqiqot obyekti:** umumta’lim maktablarining 7-sinfida ona tilini o‘qitish jarayoni hisoblanadi.

**Tadqiqot predmeti** umumta’lim maktablarida 7-sinf uchun “Ona tili” darsligidan o‘rin olgan mashq va topshiriqlardir.

**Ishning ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Tadqiqot O‘zbek tili kafedrasining “O‘zbek tilshunosligi va o‘zbek tilini o‘qitishning dolzarb muammolari” mavzusidagi ilmiy-tadqiqot ishlari rejasи hamda kafedra qoshida tashkil qilingan ilmiy-innovatsion guruhning “Ona tili” fanidan elektron o‘quv-

metodik majmualar yaratish va undan foydalanish texnologiyalari” ilmiy mavzusi doirasida bajarilmoqda.

**Tadqiqotning maqsadi** “Ona tili” darsliklaridagi mashq va topshiriqlarni tahlil qilish, darsliklar yaratishning huquqiy, konseptual asoslari, umumta’lim maktablari uchun yangi avlod darsliklarining mazmunini o’rganish, mavjud mashq va topshiriqlarni tahlil qilish, ularni to’ldirish, yangilash, elektron dasturlar uchun elektron daftarlар yaratish texnologiyalarini o’rganib chiqqan holda elektron mashq va topshiriqlar yaratish, mavzuga doir ilmiy-metodik tavsiyalar tayyorlashdan iborat.

### **Tadqiqot vazifalari quyidagilardan iborat:**

- DTS va ona tili fanidan o‘quv dasturi, “Ona tili” darsliklarini tahlil qilish, yutuq va kamchiliklarini aniqlash;
- tadqiqot mavzusiga aloqador ilmiy-metodik adabiyotlarni o’rganish;
- mashq va topshiriqlarni takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish;
- elektron mashq va topshiriqlar yaratish texnologiyalarining tavsifini tayyorlash;
- ilmiy izlanishlar asosida chiqarilgan xulosalarni tajriba maydonlarida sinovdan o‘tkazish.

### **Tadqiqotning ilmiy yangiligi:**

1. 7-sinf ona tili darsligidagi uyga vazifa uchun mashq va topshiriqlarni takomillashtirishga doir takliflar keltirildi.
2. 7-sinf ona tili darsligidagi ijodiy tafakkurni o’stirishga qaratilgan o‘quv topshiriqlari, mashqlar majmuasi uchun namunalar tayyorlandi.
3. Ona tilini o‘qitishni takomillashtirish hamda o‘quvchilarni ona tili mashg‘ulotlari jarayonining subyektiga aylantirish bilan bog‘liq usul va vositalarning samaradorligini oshirishga doir elektron mashq va topshiriqlar ishlab chiqildi.

**Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari:** ona tilini o‘qitishda quyidagi masalalar o‘z yechimini topsa, DTS talablariga to‘la muvofiq keladi:

- ona tili uchun dastur va darsliklar takomillashtirilsa;
- til sathlariga mos mashq va topshiriqlar takomillashtirilsa;
- ona tili ta’limi uchun “Mashq daftari” va “Elektron daftar”lar yaratilsa va tatbiq qilinsa;
- ona tili ta’limida xorijiy tajribalardan unumli foydalanilsa.

### **Mavzu bo‘yicha adabiyotlar sharhi:**

YUNESKOning 1999-yilda bo‘lib o‘tgan 30-sessiyasi qarori bilan 21-fevral – “Xalqaro ona tili kuni” deb e’lon qilingan. Bu sana 2000-yildan boshlab dunyo miqyosida keng nishonlanmoqda. Yana shuni ma’lumot sifatida keltirish o‘rinliki, BMT Bosh Assambleyasining 2007-yil 16-maydagি qarori bilan **2008-yil “Xalqaro ona tili yili”** deb e’lon qilingan. Bular milliy tillarni saqlab qolishga qaratilgan xalqaro tadbirlar bo‘lib, statistik ma’lumotlarga ko‘ra yer yuzida yo‘qolish arafasida turgan tillar soni oy sayin ortmoqda. Binobarin, til xalqning taqdiri, ma’naviy boyligi sanaladi. Har bir tilda shu til egasi bo‘lgan millatning sa’jiyasi, ruhiyati aks etadi. Shu sababli har bir xalq o‘z ona tilining sofligi, kamoloti va rivoji uchun tinmay qayg‘uradi. Zotan, **Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov “O‘zlikni anglash, milliy ong va tafakkurning ifodasini, avlodlar o‘rtasidagi ruhiy-ma’naviy bog‘liqlik til orqali namoyon bo‘ladi. Ona tili – bu millatning ruhidir”** deb bejiz ta’kidlamaydi. Darhaqiqat, professor N.Mahmudov ta’kidlaganidek, **“ona tilining mavjudligi o‘z sohib-u sohibalarining globallashuv deb atalayotgan murakkab davrda sobit tura olishidan, tarix sahnasidan o‘chib ketmasligidan dalolatdir”**. Mamlakatimizda xorijiy tillarni, ayniqsa, ingliz tilini o‘qitishga bo‘lgan e’tiborning kuchayishi xalqimizning globallashuv davrida dunyo bilan sobitqadam bo‘lishiga zamin tayyorlayotganini e’tirof erish lozim. Biroq professor N.Mahmudovning yuqoridagi fikrlarida tilimiz kelajagidan qayg‘urish yaqqol ifodalananib turganligini sezish qiyin emas. Darhaqiqat, bog‘cha bolasining ingliz alifbosini qo‘sish qilib kuylab, inglizcha qo‘sishqlarni chug‘ur-chug‘ur qilayotganligidan bir quvonasiz, bir tashvishlanasiz.

6 yil ichida ketma-ket ikki marta chop etilgan Deyvid Kristalning “English as a Global Language” kitobida keltirilgan dalillar o‘ziga xos xususiyatga ega<sup>3</sup>. Muallifning fikricha, biror til lingva-franka yoki xalqaro til vazifasini o‘tashi uchun u “benuqson struktura”ga ega bo‘lishi, boshqa tillardan so‘z boyligi ustunligi, o‘tmishda bu tilda ko‘plab asarlar yaratilgan bo‘lishi, til egalarining o‘tmishdagi madaniyati boshqalarnikidan yuqori bo‘lgani, mazkur xalqning u yoki bu dinga mansub bo‘lganligi hal qilmaydi. Dunyo tili vazifasini bajaruvchi tilda gaplashuvchi xalqlarning xalqaro miqyosdagi mavqeyi kuchli bo‘lishi lozim. Ayniqsa, uning siyosiy va harbiy qudrati bu o‘ta muhim masalada yetakchi ahamiyatga ega bo‘ladi.

Zero, xalqaro til masalasi globallashuv jarayoni bilan uzviy bog‘langanligi isbot talab qilmaydigan haqiqatdir. Bu jarayon milliy tillarning istiqboliga o‘z ta’sirini ko‘rsatmay qolmaydi.

Ayrim olimlar bu jumboq yuzasidan kuyinislari ham bejiz emas. Hindistonlik Sharada Prasad “Bizning tillarimiz istiqboli qanday bo‘ladi?”<sup>4</sup> degan maqolasida bu mamlakatda taxminan 40 yoshdan oshganlar hisobga olinmasa, yetishib kelayotgan yosh avlod nafaqat shaharlarda, balki chekka o‘lkalarda ham o‘zaro ingliz tilida gaplashishga, ingliz tilida chop etilgan adabiyotlarni o‘qishga, televizorda inglizcha ko‘rsatuvlarni ko‘rishga harakat qilayotgani to‘g‘risida fikr yuritib, agar ahvol shu tarzda davom etaversa, Hindistondagi milliy tillar yaqin kelajakda sanskrit va tulu tillari qatoridan joy olib qolishi mumkinligi haqida tashvishlanib yozadi<sup>5</sup>.

Mamlakatimizda ingliz tilini o‘qitish masalasining davlat siyosati darajasiga ko‘tarilganligi, dunyo tajribasida ona tili va ingliz tili mavqeyi masalasining bot-bot tilga olinayotganligi yurtimizdagi ziyolilarni ham tashvishlantirmasdan qo‘ymaydi, albatta. Ayniqsa, ona tili mavqeyini kuchaytirishning usullarini izlab topish, o‘qitish metodikasini takomillashtirish, zerikarli darslarni metodik, didaktik

---

<sup>3</sup> Deyvid Kristal. Ingliz tili dunyo tili sifatida. Cambridge University Press. 2003-yil

<sup>4</sup> Prasad H.Y.Sh. “What if our languages don’t survive?” The Asian Age. 19 January 2005. New Dehli. p.

16.)

<sup>5</sup> Qarang: Irisqulov M.T. Tilshunoslik asoslari. –Toshkent: Yangi asr avlodi, 2009. 218 –b.

va ruhan boyitilgan haqiqiy mashg‘ulotlarga aylantirish soha mutaxassislarining eng asosiy vazifalaridan biriga aylanmog‘i taqozo qilinmoqda.

Metodikaga aloqador ilimiyy-nazariy adabiyotlarda, davriy nashrlarda darsning uchta muhim qismidan biri – o‘rganilgan mavzuni mustahkamlovchi mashq va topshiriqlar orqali darslarni jonlantirishga e’tibor qaratilishi bejiz emas. Chunki til sathlariga doir sifatli mashq va topshiriqlar tizimini ishlab chiqish til ta’limi samaradorligini ta’minlovchi omillarning asosiyalaridan biridir.

Metodik adabiyotlarda aksariyat tilning boshqa sathlari bo‘yicha mashq hamda topshiriqlar yuzasidan metodik ko‘rsatmalar mavjud. Biroq fonetika, orfoepiya, grafika, orfografiya bo‘yicha mashqlarning takomillashtirilishi, yangi mashq turlarini yaratishga e’tibor kam. G‘.Hamroev jahon tajribasida fonetik mashqlarga ko‘p e’tibor qaratilishi, o‘zbek tili ta’limida, hatto oliv ta’limning filologlar tayyorlovchi fakultetlari uchun chop etilgan darslik va qo‘llanmalarda ham tovushlarning talaffuz holati aks etgan maxsus chizmalar yo‘qligi, o‘zbek tiliga xos bo‘lgan ayrim tovushlarning to‘g‘ri talaffuzini o‘rgatish uchun bunday mashqlar juda zarurligini o‘rinli ta’kidlaydi<sup>6</sup>.

A.G‘ulomov hamda H.Ne’matovlar ta’kidlashicha, boshqa fanlardan olingan ma’lumotlardan foydalanib, o‘quvchilarni nutq uslublari bilan tanishtirish imkoniyatiga ega bo‘lmoq lozim. O‘quvchilar badiiy uslubni adabiyot, ilmiy uslubni biologiya, kimyo, fizika, matematika, ish qog‘ozlari uslubini huquq asoslari fanlaridan olingan materiallar asosida o‘rganishlari zarur<sup>7</sup>. Demak, uslubiyatga doir mashq va topshiriqlar yaratishda integratsiyaga ahamiyat katta bo‘lmog‘i zarur.

Til ta’limidagi topshiriqlar nomlanishida ham yangiliklar kuzatilmoqda: loyihali ta’lim texnologiyalari topshiriqlari, keys stady va shu kabilar. D.Shodmonqulovaning “Ona tili ta’limida keys texnologiyasidan foydalanish”<sup>8</sup>,

<sup>6</sup> Hamroev G‘. Ona tili darslarida fonetika ustida ishlash.// Til va adabiyot ta’limi – Toshkent, 2010. – № 9. – B.10-13.

<sup>7</sup> G‘ulomov A., Ne’matov H. Ona tili ta’limi mazmuni. – Toshkent: O‘qituvchi, 1995. – B. 38.

<sup>8</sup> Shodmonqulova D. Ona tili ta’limida keys texnologiyasidan foydalanish //Til va adabiyot ta’limi. – 2015. – №5. – B. 17.

X.Muhitdinovaning "Til ta'limida videomatnlar qanday uyg'unlashadi"<sup>9</sup> kabi maqolalari til o'rgatishning ilg'or tajribalarini o'zbek tili ta'limiga tatbiq qilishning nazariy va amaliy masalalariga bag'ishlangan.

Axborot texnologiyalari shiddat bilan kirib kelayotgan bugungi davrda o'quvchining darsdagi diqqatini ushlab turishning bir manbasi innovatsion texnologiyalar bo'lsa, ikkinchi manba axborot kommunikatsiya texnologiyalari bo'la oladi. Rossiyada axborot texnologiyalari va ta'lim masalasi ilmiy-nazariy jihatdan N.A.Nosov, S.S.Xorujiy, R.A.Nurullin, L.P.Selenko, Y.V.Paraxnevich, K.A.Suvorov, N.N.Koroleva, D.V.Makarov, Y.V.Matrossov, A. Z. Shakirova, Y.E.Turutina, I.D.Lobankov, I.D.Kiryushin, A.N.Samuxin, A.Xoseevich, Y.Y.Gavronskaya, V.V.Alekseev, A.YU.Avdeev, I.M.Krasilnikov, V.V.Selivanov, L.N.Selivanova, T.V.Popovalar tomonidan ishlab chiqilgan. O'zbekistonda A.Abduqodirov, N.Taylaqov, U.Begimqulov, F.Zokirova, M.Fayzieva, V.Xamidovlarning tadqiqotlarida AKT va ta'lim masalasi, aniq va tabiiy fanlar doirasida elektron o'quv kontentlarni yaratish tajribalari yoritilgan.

Darhaqiqat, XX asr oxirida boshlangan va yangi asrda davom etayotgan elektron ta'lim tizimini yaratish jarayonida ona tilini o'qitish masalalarini shu nuqtayi nazardan tadqiq qilish va elektron resurslar yaratish borasida muayyan yutuqlarga erishildi. Til ta'limida rus, ingliz tillarini o'rgatishda kompyuterdan foydalanish, uning afzalliklari, shu bilan birga salbiy jihatlari haqida bir qancha olimlar ilmiy mulohazalarini bayon qilganlar<sup>10</sup>. Bu sohada O'zbekiston olimlari

---

<sup>9</sup> Muhitdinova X. Til ta'limida videomatnlar qanday uyg'unlashadi. //Til va adabiyot ta'limi. – 2015. – №8. – B. 15.

<sup>10</sup> Марчук Ю.Н.Применение ЭВМ в учебной лексикографии // Проблемы учебной лексикографии и обучения лексики. – М., 1978.- 161-168 с.; Стародубцева Е.А.Использование Интернет-ресурсов в обучении иностранному языку (на материале английского языка) // Труды МЭЛИ: электронный журнал. —2009 –№ 9 [Электронный ресурс] — Режим доступа: <http://www.e-magazine.meli.ru/vipusk9.htm>; Гребнева Е.В. Использование современных информационных технологий для реализации требований ФГОС НОО на современном уроке и во внеурочной деятельности.; Трошина А.В. Учебное пособие по дисциплине "Информационные технологии в лингвистике". – СПб.: Изд-во СПбГЭУ, 2013.– 103 с. Размещено на <http://www.allbest.ru/>; Разработка электронных учебных курсов в PowerPoint с помощью iSpring Suite. <http://www.iSpring.ru/>; Особенности внедрения мультимедийных технологий в образовательный процесс Цхинвальского многопрофильного колледжа Козаева Гульнара Ролландовна, аспирант Северо-Осетинский государственный университет имени К. Л. Хетагурова (г. Владикавказ) Паастаева Дзэрасса Графовна, методист Цхинвальский многопрофильный колледж (Республика Южная Осетия) //Молодой учёный. № 6 (86). Март, 2015 г. (625)

ham maxsus tadqiqotlar olib bordilar<sup>11</sup>. Sh.J.Yusupovaning nomzodlik ishi o‘rtal umumta’lim maktablarining ona tili darslarida noan’anaviy usullar, shu jumladan kompyuter texnologiyalaridan foydalanish usullarini yoritib berishga bag‘ishlangan bo‘lsa, S.Adilovaning nomzodlik ishida oliy ta’lim muassasalarining rus guruqlarida o‘zbek tilini o‘qitish jarayonida taqdimot texnologiyasidan foydalanishning o‘ziga xos xususiyatlari, samarali dars usullari ilmiy tadqiq etilgan. Sh.J.Yusupova doktorlik dissertatsiyasida akademik litsey o‘quvchilarining “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” fani bo‘yicha bilim, malaka va ko‘nikmalarini o‘stirishda kompyuter texnologiyalarining ahamiyati, DELFI dasturidan foydalanish bo‘yicha tavsiyalari o‘rin olgan. N.Umarova texnika universiteti talabalarining yozma nutqini o‘stirishda elektron o‘quv qo‘llanmalarini yaratishga qo‘yiladigan talablar, elektron pochta xizmatidan foydalanishning afzalliklari haqida so‘z yuritadi.

Jamiyat a’zolari o‘rtasidagi aloqa vositalari orasida elektron vositalarning keng o‘rin tutayotganligi, ish, o‘qish jarayonida vebinar, videokonferensiya, videomuloqot kabilardan foydalanish doirasining kengayishi tufayli ta’lim oluvchilarni ana shu elektron muloqotlarga tayyorlash masalasi ham muhim o‘rin tutmoqda. Albatta, elektron muloqotning og‘zaki va yozma ko‘rinishlari farqlanadi. Elektron pochtadan ... foydalanish, forumlarda, chatlarda qatnashish yozma muloqot hisoblansa, video qo‘ng‘iroq aloqasi, videokonferensiya, vebinarlarda ishtirok etish kabilar og‘zaki shakli deb qaralishi mumkin. N.Umarovaning texnika universiteti talabalari yozma nutqini o‘stirishda elektron o‘quv qo‘llanmalarini yaratishga qo‘yiladigan talablar, elektron pochta xizmatidan foydalanishning afzalliklari haqidagi tadqiqoti bu borada muhim ahamiyat kasb etadi<sup>12</sup>.

---

<sup>11</sup> Юсупова Ш.Ж. Она тили таълими самарадорлигини оширишда илгор педагогик технологияларни жорий этиш / ноанъанавий усуллар ва компютердан фойдаланиши/: пед фан. номз. ...дис. автореф. – Т.: 1998, -25 б.; Адилова С. Ўзбек тили машғулотларини компьютер технологиялари воситасида ташкил этиш (Олий таълим муассасаларининг русийзабон гурухларида): пед фан номз. ...дис. – Т.: 2004. -160 б.; Юсупова Ш.Ж. Хозирги ўзбек адабий тили дарсларида ўқувчилар тафаккурини ўстиришнинг илмий-методик асослари (академик лицейлар мисолида): пед. фан докт. ...дис. – Т.: 2005. – 277 б.; Умарова Н. Тил таълими ва таълимий-электрон ишланмалар // Тил ва адабиёт таълими. – 2005 йил – № 6. – Б. 75-79.

<sup>12</sup> Умарова Н. Тил таълими ва таълимий-электрон ишланмалар // Тил ва адабиёт таълими. – 2005 йил – № 6. – Б. 75-79.

Sh.Yuldashevaning akademik litseylarning qoraqalpoq guruhlarida o‘zbek tilini o‘qitish, umumta’lim maktablarida ona tilini o‘qitish masalalariga bag‘ishlangan ilmiy-tadqiqot ishlari, metodik maqola va kitoblarida elektron ta’lim, elektron ta’lim vositalari, pedagogik dasturiy vositalar, elektron adabiyotlar yaratish va ulardan foydalanish texnologiyalari ham muayyan darajada yoritib berilgan<sup>13</sup>.

Aytish mumkinki, sanab o‘tilgan tadqiqotlarda kompyuter texnologiyalarining pedagogik-psixologik asoslari ma’lum darajada aniqlashtirilgan, dalillangan. Shunday bo‘lsa ham, til ta’limida alohida o‘rin tutuvchi mashq va topshiriqlar yaratishga xizmat qiluvchi pedagogik dasturiy vositalar bilan ona tili va adabiyot fani o‘qituvchilari, talabalarni tanishtirish, amaliy dasturlarda ishlashga o‘rgatish borasida yutuqlarimiz sanoqli.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 6-, 7-, 8-, 9-sinflari uchun, so‘nggi yillarda boshlang‘ich sinflar uchun elektron darsliklar va o‘quv filmlari yaratilganligini ta’kidlash o‘rinlidir. 6-, 7-, 8-, 9-sinflar uchun tayyorlangan elektron darsliklarda o‘quvchi va kompyuter o‘rtasida interaktivlik yuqori darajada ta’minlanmagan bo‘lsa ham, boshlang‘ich sinflar uchun tayyorlangan multimedya ilovalari qator yutuqlarga ega.

Demak, yuqori sinflarda ona tili ta’limi uchun elektron resurslarni takomillashtirish, yangi elektron adabiyotlar, shu jumladan “Elektron daftар”lar yaratish muammosi dolzarb bo‘lib turibdi. “... bugun hayotimizga chuqur kirib borayotgan internet tizimini keng joriy etish, yoshlarimizni O‘zbekistonning qadimiylari va boy tarixi, ezgu qadriyatlarimiz, yuksak axloqiy fazilatlar ruhida tarbiyalashga xizmat qiladigan milliy axborot resurslarini shakllantirish va rivojlantirish, bu borada o‘zbek tilining imkoniyatlaridan samarali foydalanish masalasi doimo e’tiborimiz markazida turishi lozim”<sup>14</sup>. Bu esa shu soha uchun tayyorlanayotgan pedagog kadrlarning **texnologik kompetentligining** (ilg‘or

<sup>13</sup> Юлдашева Ш. Давлат тили таълимида ўқувчилар саводхонлигини ўстиришнинг илмий – методик асослари (таълим қорақалпоқ тилида олиб бориладиган академик лицейлар мисолида). Пед. фан. номз. дисс... автореферати. – Т.: 2008. – 23 б.

<sup>14</sup> Karimov I.A. Inson, uning huquq va erkinliklari – olyi qadriyat. – Toshkent, O‘zbekiston, 2006. – 280 b.

texnologiyalarni o‘zlashtirish, zamonaviy vosita, texnika va texnologiyalardan foydalana olish) shakllantirilishini taqozo qilmoqda. Shuningdek, bilimdon pedagog mutaxassis sifatlaridan biri ham mutaxassislik yo‘nalishi bo‘yicha axborotlarni izlash, topish, ularni ta’lim mazmuniga tayangan holda qayta ishlash va kasbiy faoliyat jarayonida ulardan samarali foydalana bilishdan iborat deb belgilanmoqda.

Ba’zi xorijiy mamlakat tadqiqotchilarini axborot texnologiyalarini ta’lim jarayoniga tatbiq qilishning salbiy jihatlarini ham ta’kidlaydilar. Xususan, yapon pedagogi S.Sudzuki «Kompyuterli o‘qitish, bir tomondan, ta’lim oluvchilar aqliy taraqqiyotini rivojlantirishga yordam bersa, ikkinchi tomondan esa bilimni mustahkam egallashni ta’minlay olmaydi» degan fikrni bildiradi. Fransuz pedagogi L.Legren «Kompyuterli mashg‘ulotlar ta’lim oluvchilarning asabi buzilishiga va ko‘rish qobiliyatining pasayishiga olib keladi» deydi<sup>15</sup>. I.G.Zaxarova fikricha, kompyuterli o‘qitishda har bir ta’lim oluvchi ma’lum bir vaqtida «virtual talaba» sharoitida bo‘ladi. Demak, talabaning virtual muhitga ko‘nikib borishi ta’minlanishi kerak<sup>16</sup>. T.Ziyodova ona tili ta’limida kompyuterdan foydalanish jarayonida yuzaga keladigan bir necha salbiy holatlarni sanab ko‘rsatadi:

1. O‘quvchi nutqining DTS talablari asosida, me’yoriy rivojlanib borishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.
2. Milliy muomala-muloqot, nutqiy madaniyat ko‘nikmalarining rivojlanishi, shakllanishiga monelik qiladi.
3. Kompyuter dasturchilari maktab ona tili ta’limining o‘ziga xos xususiyatlarini o‘quv topshiriqlarida to‘la aks ettira olmaydilar.
4. Matn yaratishda o‘quvchi yo‘l qo‘yishi mumkin bo‘lgan grammatik xatolardan tashqari texnik xatolar va ularning salbiy natijalari yuzaga keladi (faylning o‘chib ketishi va h.k.).
5. Bilimlarni nazorat qilish usulining cheklanganligi (asosan test va anketa savollaridan foydalanish).

---

<sup>15</sup> Rasulov O.Y. Kasb-hunar kollejlarida maxsus fanlarni elektron darsliklar vositasida o‘qitish. Ziyonet. uz

<sup>16</sup> Rasulov O.Y. Kasb-hunar kollejlarida maxsus fanlarni elektron darsliklar vositasida o‘qitish. Ziyonet. uz

6. O‘quvchida ko‘pchilikni xushlamaslik, o‘ta kamgaplik, o‘rtoqlaridan uzoqlashish xususiyatlarini kuchaytiradi<sup>17</sup>.

Albatta, sanab o‘tilgan muammolardan aksariyati muayyan darajada yechimini topib bormoqda.

**Tadqiqotda qo‘llangan uslublarning qisqacha tavsifi:** Tadqiqotimizda O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi, “Ta’lim to‘g‘risida”gi Davlat Qonuni, “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi”, ta’lim-tarbiya sohasida keyingi yillarda qabul qilingan me’yoriy hujjatlar, mamlakatimiz Birinchi Prezidenti I.A.Karimov, Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning til, tarix, milliy mafkura va milliy g‘oya, ma’naviyat, ma’rifat, xorijiy tajribalar haqidagi ilg‘or g‘oyalari asosiy metodologik tayanch vazifasini o‘tadi. Shuningdek, ishda ona tilini o‘qitishga doir ilmiy-metodik **adabiyotlarni o‘rganish** va **tahlil qilish**, ona tili darslarini **kuzatish**, bu borada to‘plangan tajribalarni umumlashtirish, o‘quvchi va o‘qituvchilar o‘rtasida **so‘rovnomalar, suhbatlar o‘tkazish**, ona tilini o‘qitishda **pedagogik texnologiyalarni qo‘llash**, tajriba-sinov ishlarining natijalarini miqdor va sifat jihatidan **qiyosiy o‘rganish**, umumlashtirish kabi **ilmiy-tadqiqot metodlaridan** foydalanildi.

**Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati:** Ishning ilmiy ahamiyati shundan iboratki, unda keltirilgan materiallar o‘zbek tili grammatikasi, ona tili o‘qitish nazariyasi va metodikasi uchun amaliy jihatdan katta ahamiyatga ega. Dissertatsiyada bayon etilgan ilmiy-metodik xulosalardan ona tilidan dastur, darslik, metodik qo‘llanmalar yaratishda, ona tilini o‘qitish sifatini yaxshilashda, “Ona tilini o‘qitish metodikasi” fanining mazmunini belgilashda, shuningdek, o‘qituvchilar malakasini oshirish institutlari tinglovchilariga ona tilini o‘qitish yuzasidan ma’ruzalar o‘qishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalari Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika institutida o‘tkazilgan professor-o‘qituvchilarning an’anaviy ilmiy-metodik anjumanlarida dissertant tomonidan o‘qilgan ma’ruzalarda, Nukus shahri o‘zbek tili va adabiyoti

---

<sup>17</sup> Ziyodova T. Matn yaratish texnologiyasi. – Toshkent, Fan, 2007. 113-114- b.

fan o‘qituvchilarining Mahorat maktablarida o‘tkazilgan mahorat darslarida, e’lon qilingan 5 ta ilmiy maqola va tezislarda o‘z ifodasini topgan.

Ishni yakunlashda tadqiqotchining Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti magistratura mutaxassisligida tahsili davomidagi pedagogik amaliyoti hamda Nukus shahridagi 3-, 22-, 25-sonli, Xo‘jayli tumanidagi 62-sonli, Amudaryo tumanidagi 40-sonli umumta’lim maktablaridagi ilmiy-metodik kuzatishlari, tajriba-sinov ishlari muhim manba vazifasini o‘tadi.

**Dissertasiya tuzilmasining tavsifi:** Dissertasiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘lib, **86** betni tashkil etadi.

## **BIRINCHI BOB. ONA TILI TA'LIMI VA INNOVATSIYALAR**

### **1.1. Ona tilidan kompetensiyalarni shakllantirish: DTS, o'quv dasturi, ta'lif vositalari va usullari**

Davlat ta'lif standartlari o'quvchi va talabalarning ona tili fani bo'yicha bilim va tayyorgarlik darajalarini belgilab beradi, o'quv reja va dasturlar, darsliklar, qo'llanmalarni ishlab chiqishda asos bo'lib xizmat qiladi.

Mamlakatimizda umumiy o'rta ta'lif uchun Davlat ta'lif standartlari takomillashtirildi va unda o'quvchilarning kompetentliligin shakllantirish yuzasidan tayanch kompetensiyalar va fanga oid kompetensiyalar ishlab chiqildi. Unga ko'ra ta'lif tizimini bitiruvchisi ta'lifning ma'lum bosqichini bitirganidan so'ng ma'lum kompetensiyalarga ega bo'lishi belgilab berildi. O'quvchilarda mazkur: **kommunikativ, axborot bilan ishlash, shaxs sifatida o'zini-o'zi rivojlantirish, ijtimoiy faol fuqarolik, umummadaniy, matematik savodxonlik, fan texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish kompetensiyalar** ni shakllantirish uchun darslarni pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish tavsiya etiladi.

#### **Kommunikativ kompetensiya;**

- Jamiyatda o'zaro muloqotga kirishish uchun ona tili va birorta xorijiy tilni mukammal o'zlashtirish hamda muloqotda samarali foydalana olish;
- o'z fikrini og'zaki va yozma tarzda aniq va tushunarli bayon qila olish, mavzudan kelib chiqib savollarni mantiqan to'g'ri qo'ya olish va javob berish;
- ijtimoiy moslashuvchanlik, o'zaro muloqotda muomala madaniyatiga amal qilish, jamoaviy hamkorlikda ishlay olish;
- muloqotda suhbatdosh fikrini hurmat qilgan holda o'z pozitsiyasini himoya qila bilish, uni ishontira bilish;
- turli ziddiyatli vaziyatlarda o'z ehtiroslarini boshqarish, muammo va kelishmovchiliklarni hal etishda zarur (konstruktiv) bo'lgan qarorlarni qabul qila olish

#### **Axborot bilan ishlash kompetensiyasi;**

- Mavjud axborot manbalaridan (internet, televizor, radio (audio-video yozuv), telefon, kompyuter, elektron pochta va boshq.) foydalana olish;
- media vositalardan zarur bo‘lgan axborotlarni izlab topa olish, saralash, qayta ishslash, uzatish, saqlash, xavfsizligini ta’minlash va foydalanishda media-madaniyatga rioya qilish;
- ma’lumotlar bazasini yarata olish, asosiyalarini tanlay olish va ularni tahlil qila bilish;
- kundalik faoliyatda uchraydigan hujjatlar bilan ishlay olish (oddiy tabriknomalar yoza olish, anketalarni to‘ldirish, mehmonxona ro‘yxatida o‘zi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni qayd eta olishi va boshq.)

### **Shaxs sifatida o‘zini-o‘zi rivojlantirish kompetentsiyasi;**

- shaxs sifatida doimiy ravishda o‘z-o‘zini rivojlantirish, jismoniy, ma’naviy, ruhiy va intellektual kamolotga intilish;
- hayot davomida o‘qib-o‘rganish, bilim, tajribani mustaqil ravishda muntazam oshirib borish;
- o‘z xatti-harakatini adekvat baholash, o‘zini nazorat qila bilish, halollik, to‘g‘rilik kabi sifatlarga ega bo‘lish;
- o‘qib-o‘rganganlari va hayot tajribasidan foydalangan holda kundalik turmushda uchraydigan muammolarni hal eta olish.

### **Ijtimoiy faol fuqarolik kompetentsiyasi;**

- Jamiyatda bo‘layotgan voqeja, hodisa va jarayonlarga daxldorlikni his etish va faol ishtirok etish;
- o‘zining fuqarolik burch va huquqlarini bilishi, unga rioya qilish (ya’ni xaridor, saylovchi, mijoz, ishlab chiqaruvchi sifatida faoliyat yurita olish);
- mehnat va fuqarolik munosabatlarida muomala, iqtisodiy, huquqiy madaniyatga ega bo‘lish;
- kasbiy mavqeyining o‘sishiga intilish bilan jamiyat va oilasi manfaatlari uchun xizmat qilish, yordamga muhtojlarga saxovatli bo‘lish.

### **Umummadaniy kompetensiya;**

- vatanga sadoqatli, insonlarga mehr-oqibatli hamda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga e’tiqodli bo‘lish;
- badiiy va san’at asarlarini tushunish, ta’sirlana olish;
- orasta kiyinish, yurish-turishda madaniy me’yorlarga va sog‘lom turmush tarziga amal qilish;
- umumbashariy ahamiyatga ega bo‘lgan qadriyatlarni (urf-odatlar, marosimlar, milliy-madaniy an’analar va h.k.) bilish, unga hurmat bilan munosabatda bo‘lish;
- o‘zgalarga nisbatan mehr-muruvvat, saxiylik, o‘zgalarning dunyoqarashi, diniy e’tiqodi, milliy va etnik xususiyatlari, an’ana va marosimlarini hurmat qilish;
- xalqining tarixiy, ma’naviy va madaniy merosini avaylab asrash, jamiyatda o‘rnatilgan odob-axloq qoidalariga rioya qilish.

**Matematik savodxonlik, fan-texnika yangiliklaridan xabardor bo‘lish kompetensiyasi:**

- aniq hisob-kitoblarga asoslangan holda shaxsiy, oilaviy, kasbiy va iqtisodiy rejalarini tuza olish;
- shaxsiy, ijtimoiy va iqtisodiy munosabatlarda hisob-kitob bilan ish yuritish;
- kundalik faoliyatda turli formula, model, chizma, grafik va diagrammalarni o‘qiy olish va foydalanish;
- inson mehnatini yengillashtiradigan, mehnat unumdorligini oshiradigan va qulay shart-sharoitga olib keladigan fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo‘lish hamda foydalana olish.

Yuqoridaagi tayanch kompetensiyalar Ona tili darslarida shakllanadigan kompetensiyalar orqali shakllanadi:

**Mustaqil va ijodiy fikrlash kompetensiyasi:** ta’lim oluvchida mustaqil izlanish, ijodiy fikrlash ko‘nikma va malakalarini o‘stirish. Bunda:

- kuzatish;
- izlanish;
- alohidaliklarni sharhlash;

- umumiylilikni topish;
- farqlarni aniqlash;
- tasniflash;
- xulosa chiqarish;
- aloqadorliklarni ochish;
- amalda qo'llash

### **Nutqiy kompetensiya:**

- notanish matnni ifodali o'qiy olish,
- tushunish;
- gapirish;
- yozish darajasi

**Lingvistik kompetensiya** til materiali (fonetika, leksika, grammatika) haqida bilimlar va nutq faoliyati turlari (tinglash, gapirish, o'qish va yozish) bo'yicha ko'nikmalarni egallashni nazarda tutadi.

**Sotsiolingvistik kompetensiya** so'zlovchining biror nutqiy vaziyat, kommunikativ maqsad va xohish-istagidan kelib chiqqani holda kerakli lingvistik shakl, ifoda usulini tanlash imkonini yaratadi. Sotsiolingvistik kompetensiya ijtimoiy madaniy kompetentsiyani o'z ichiga olib, o'zi yashayotgan mamlakatning urf-odatlari, qadriyatları, marosimlari va boshqa milliy madaniy xususiyatlarni bilish hamda tili o'rganilayotgan mamlakat bilan taqqoslagan holda taqdim eta olish qobiliyatini ko'zda tutadi.

- o'quvchining o'zgalar bilan uning qaysi millat, elat, etnik, diniy yoki madaniy muhitga mansubligini his etgan, zarur shaxsiy sifatlarini hisobga olgan holda muloqot qilish;
- jamiyat tarixiy taraqqiyotida yuritilgan til siyosati tufayli tilda ro'y berayotgan o'zgarishlarni e'tiborga olgan holda muloqot qilish.

**Pragmatik kompetensiya** kommunikativ vaziyatda tushunmovchiliklar paydo bo'lganda takroran so'rash, uzr so'rash va hakozolar orqali murakkab vaziyatlardan chiqib keta olish qobiliyatini nazarda tutadi. O'quvchining nutq

sharoiti, nutq vaziyatida, nutq uslublari (so‘zlashuv, ilmiy, badiiy, publisistik) dan oqilona, samarali foydalana olishi;

O‘quvchilarda mazkur kompetensiyalar ni shakllantirish uchun darslarni pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish tavsiya etiladi. Darslarda axborotlarni mustaqil ravishda izlash, ulardan foydalanish bo‘yicha kompetensiyalarni shakllantirishda darslikdan, turli gazeta, jurnal, qo‘srimcha adabiyotlar, lug‘atlar, internet resurslaridan foydalanishni, o‘qib-o‘rganganlari va hayot tajribasidan foydalangan holda kundalik turmushda uchraydigan muammolarni hal eta olishni, o‘zining fuqarolik huquqlarini bilishni, Vatanga sadoqatli, insonlarga mehr-oqibatli hamda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga e’tiqodli bo‘lishni, aniq hisob-kitoblarga asoslangan holda shaxsiy, oilaviy, kasbiy va iqtisodiy rejalarini tuza olishni o‘rgatish kerak.

Bizning nazarimizda sanab o‘tilgan **kompetensiyalarning hammasi til o‘qitish jarayonida lingistik kompetensiyalarga uzviy bog‘liq bo‘ladi**. O‘quvchining linvistik kompetensiyasining rivojlanishi ta’lim mazmuniga uzviy bog‘lanadi. Agar o‘quvchilarga nimani o‘qitish masalasini to‘g‘ri belgilab olmasak, ona tili ta’limda faqat yo‘qotishlar (vaqt, mablag‘, albatta, millat ruhi, millat qiyofasi) bo‘ladi. Shuning uchun ham “Ona tili” fanidan o‘quv dasturi bilan tanishib 7-sinf uchun belgilangan ta’lim mazmuni bo‘yicha tahlillarimiz natijasini keltirishni o‘rinli deb bilamiz.

1-chorak: **shuncha, shunday** kabi so‘zlarining olmosh va ravish turkumlariga xos xususiyatlarini aniqlashtirish bo‘yicha izohlar zarur.

2-chorak: Ergashtiruvchi bog‘lovchilarning turlarini kengaytirish, ya’ni maqsad bog‘lovchilari haqida ma’lumot berilishi zarur. 7-sinfda ergashtiruvchi bog‘lovchilarning 3 ta turi berilgan, biroq 9-sinfda maqsad bog‘lovchisining 7-sinfda qoidalashtirilmagan bo‘lsa ham, ergashgan qo‘shma gap qismlarini bog‘lashi ko‘rsatib o‘tilgan. Sathlararo uzviylik ta’milanishi uchun ham maqsad bog‘lovchilari alohida mavzu sifatida o‘rganilishi zarur. *Deb, bordi-yu* so‘zlarining vazifadosh bog‘lovchi sifatida qo‘llanilishi haqida ma’lumotlar zarur.

**Darsliklarda berilayotgan nazariy ma'lumotlarni tartibga solish, atamalar va qoida hamda ta'riflarda bir xillikka erishish zarur.**

4-chorak: 7-sinfda undovlarning 2 ta turi berilgan. Bizningcha, undovlarning kundalik nutqimizda ishlatiladigan nutqiy odat turlari: *assalomu alaykum, hormang, xayr* kabilar pragmatik kompetensiyalarni shakllantirish uchun o'rgatilishi zarur. Umuman, undov so'zlar mavzusida nutqiy odat (rasm-odat) undovlariga ham ahamiyat qaratish (*Assalomu alaykum, xayr kabilar*), boshqa turkum so'zlarining undov vazifasida qo'llanilishi (*Kel!* Men ham tanlovga qatnashib ko'ray.) haqidagi ma'lumotlar bilan tanishtirish, ularga soat ajratish ma'qul ish bo'lar edi.

O'quvchilar “**Xo'sh**” kabi so'zlarning undov so‘z (xayr ma’nosida, haydash-chaqirish ma’nosida) va yuklamalik (so‘roq yuklamasi) xususiyatlari bilan tanishtirilishi zarur. Kundalik hayotda ayrim mustaqil so'zlarning his-hayajonni bildirib undov sifatida (*Kel, men ham shu to'garakka qatnashay. Komissiya!*) qo'llanishini ham e'tiborga olish zarur. Bu o'quvchilarda tayanch hamda xususiy kompetensiyalar ni shakllantirish uchun ham taqozo qilinadi.

Taqlid so'zlarning fe'llar bilan (*taq etdi, shig‘ etmoq*) birga kelib qo'shma fe'l hosil qilishi, ana shu so'zlar tarkibida ularni alohida so‘z, ya'ni taqlid so‘z deb qaramaslik yuzasidan tushuntirish, izohlar zarur.

Morfologiyada so‘z turkumlarining ko‘chishi masalasiga yana e'tibor qaratish zarur deb hisoblaymiz. Bu borada oydinlashtirilishi dolzarb bo'lgan jihatlarni e'tiborsiz ochiq qoldirish to‘g‘ri bo‘lmaydi.

Morfologiyani o‘rganish jarayonida ayrim tinish belgilarining qo'llanilishi ham qoidalashtirilishi o‘rinli bo‘lar edi.

Shu tariqa o‘qituvchilarni nazariy ma'lumotlarni taqdim qilishda har xillik muammosidan xoli qilsak, o‘zi mashg‘ulot olib borayotgan fanning nazariy masalalari qobig‘ida qolib ketmasdan aksincha, ta'lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etishning qonun va qonun osti hujjalariiga tayanib o‘zida kasbiy kompetentlik sifatlari va pedagogik mahorat elementlarini shakllantirishi, kreativlik potensialiga ega bo‘lishi, chet tillardan birini talab darajasida egallab, xorij tajribalarini

o‘rgangan holda innovatsion texnologiyalarni ko‘r-ko‘rona qabul qilmasdan, milliy o‘ziga xoslikka ega bo‘lgan ta’lim texnologiyalari ijodkoriga aylanishi, aksariyat hollarda kuzatilayotganidek, **kompyutering matn tahrirlovchisidangina** emas, balki uni **dasturiy vositalari hamda multimedya qurilmalari bilan yaxlit holda** o‘z faoliyatida xuddi **an’anaviy bo‘r va doskadan foydalangandek** erkin qo‘llay olishi, zamonaviy innovatsion pedagogika, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini egallashi va ularni o‘quv jarayoniga faol tatbiq etishi, mohir keysolog, testolog sifatida o‘zini namoyon qila olish kabi sifatlarni o‘zida mujassam qilishi uchun imkoniyatga ega bo‘ladi.

Ayniqsa ta’lim vositalarining yangilanayotganligi, axborot kommunikatsion texnologiyalarning kun sayin, soat sayin takomillashayotganligi bu jarayondan orqada qolib bo‘lmasligini eslatib turadi.

Zamonaviy axborot texnologiyalarining vositalari qatoriga: kompyuter, skaner, videoko‘z, videokamera, LCD proektor, interaktiv elektron doska, faks, modem, telefon, elektron pochta, multimedia vositalari, Internet va Internet tarmoqlari, mobil aloqa tizimlari, ma’lumotlar omborini boshqarish tizimlari, sun’iy intellekt tizimlarini kiritish mumkin.

**Axborot texnologiyasi vositalari** muayyan amallarni ongli va rejali amalga oshirishda o‘zlashtiriladi. Bu jarayon quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- kompyuter, shuningdek, printer, modem, mikrofon va ovoz eshittirish qurilmasi, skaner, raqamlı videokamera, multimedia proektori, chizish plansheti, musiqali klaviatura kabilar hamda ularning dasturiy ta’minoti;
- uskunaviy dasturiy ta’minot;
- virtual matn konstrukturлари, multiplikatsiyalar, musiqalar, fizik modellar, geografik xaritalar, ekran protsessorlari va h.k.;
- axborotlar majmuyi — ma’lumotnomalar, ensiklopediyalar, virtual muzeylar va h.k.;
- texnik ko‘nikmalar trenajyorlari (tugmachalar majmuyidan tugmachalarga qaramasdan ma’lumot kiritish, dasturiy vositalarni dastlabki o‘zlashtirish va h.k.).

**Axborot texnologiyalari vositalarining markazida turuvchisi kompyuterdir.** Bugungi kunda fan va texnologiyalarning rivojlanishi ta’lim tizimida texnik vositalardan foydalanishda faqat kompyuterning mavjudligi kifoya qilmoqda. Televizor, videomagnitofon, kinoproektor, diaproektor va boshqalar bajargan funksiyalarni kompyuter muvaffaqiyat bilan o‘z zimmasiga oldi. Qolaversa, axborotni uzatish, saqlash, tasvirlash sifati sezilarli darajada ortdi. Zamonamizda kompyuter savodxonligi madaniyatning muhim belgisiga aylanib ulgurdi, u har bir insonga qayerda, qaysi sohada faoliyat yuritishidan qat’iy nazar zaruratga aylandi.

Tillabaev Ilhomjon Nasiridinovichning «Interaktiv elektron doska(IED)ning vazifasi va imkoniyatlari» maqolasida matematikani o‘qitish jarayonida interaktiv doskalardan foydalanishning imkoniyatlari haqida bayon qilingan<sup>18</sup>.

Interaktiv elektron doska oddiy doskalardan farq qilib, unda bajarilgan har bir ish shu zahoti kompyuter ekranida paydo bo‘ladi. Doskada yozilgan axborotni fayl ko‘rinishida kompyuter xotirasida saqlash, zarurat bo‘lsa printer yordamida bosmaga chiqarish mumkin. Matnlarni va grafik tasvirlarni rangli marker (qalam)lar bilan bezash mumkin.

Interaktiv elektron doskaning eng asosiy afzalliklaridan biri unda animatsiyadan foydalanish imkoniyati mavjudlidir. Unda tayyor rasmlarni ko‘rish, mashg‘ulotni videotasvir ko‘rinishda yozib borish yoki video tasvirlarni namoyish etish mumkin. Agar TRACERRecorder.exe dasturidan foydalanilsa, doskada bajarilgan har bir harakat, butun dars jarayoni tasvirga olinadi.

## **1.2. 7-sinf uchun “Ona tili” darsligi tahlili**

Umumiy o‘rta ta’limda ona tili fanining o‘rni beqiyosdir. O‘quvchilarning o‘tmish madaniyatiga, o‘z yurtiga mehr-muhabbat, vatanparvarlik, insonparvarlik g‘oyalarini anglashi eng avvalo ona tilini o‘qitish jarayonida amalga oshiriladi. Bu

---

<sup>18</sup> <http://library.zivonet.uz/ru/book/16018>

esa yosh avlodning kamol topishida ona tili o'qituvchisining xizmati katta ekanligidan dalolat beradi.

O'quvchilarining o'z fikrini ravon, ifodali va lo'nda bayon qila olish ko'nikmasini shakllantirish ona tili ta'limining bosh maqsadi sanaladi. Ushbu maqsad har bir "Ona tili" darsligida o'z ifodasi va tasdig'ini topishi lozim.

7-sinfda "Ona tili" fanini o'qitishning oldiga quyidagi muhim maqsad va vazifalar qo'yilgan:

- o'quvchilarni erkin fikrlashga o'rgatish;
- o'z fikrini og'zaki va yozma shaklda o'zbek tilining qonun-qoidalariga muvofiq ravishda to'g'ri ifodalash;
- bir ma'noni turli shakllarda bera olish ko'nikmasini shakllantirish, so'zlardan o'rinli foydalana olish;
- orfografiya va punktuatsiya qoidalarini singdirish;
- o'quvchilarda ish qog'ozlarini yurita olish ko'nikmasini shakllantirish;
- olamni bilishda ona tilining ahamiyatini singdirish;

7-sinf o'quvchilari "Ona tili"dan quyidagi zaruriy bilimlarni o'zlashtirishi kerak:

- Mustaqil va yordamchi so'zlar.
- Olmosh, uning ma'nolari, morfologik va sintaktik xususiyatlari. Olmoshning ma'no turlari va ularning uslubiy qo'llanishi.
- Taqlid so'zlar. ularning ma'nosи va gapdagi vazifasi.
- Modal so'zlar. ularning ma'nosи va gapdagi vazifasi.
- Bog'lovchilar. ularning turlari. Teng bog'lovchilar va ergashtiruvchi bog'lovchilar. Bog'lovchilarining vazifalari.
- Yuklamalar. ularning turlari. Yuklamalarning vazifalari.
- Ko'makchilar. ularning turlari. Ko'makchiklarning vazifalari.

7-sinf o'quvchilarining egallashi zarur bo'lgan ko'nikma va malakalari quyidagilardan iborat:

- grammatik atamaga asoslanib, grammatik vositani esga olish, grammatik vositalardan amalda to‘g‘ri va o‘rinli foydalana olish;
- olmoshning boshqa so‘z turkumlaridan farq qiluvchi o‘ziga xos xususiyati
- ishora qilish xususiyatini anglay olish va ularning ma’no turlarini bir-biridan farqlay olish;
- fikrni yozma ravishda to‘g‘ri va mantiqiy izchil bayon eta olish. Miqdoriy ko‘rsatkich: 13-15 gap; sifat ko‘rsatkichi: gapda fikrni aniq, mantiqiy izchil yorita olish, sodda gap bo‘laklarini, qo‘shma gap qismlarini, uyushuq bo‘laklarni o‘zaro bog‘lashda teng va ergashtiruvchi bog‘lovchi, ko‘makchi, yuklama va boshqa bog‘lovchi vositalardan o‘rinli foydalana olish;
- xatboshilarni to‘g‘ri ajrata olish;
- kelishik va ko‘makchilarning funksional almashinuvidan maqsadga muvofiq to‘g‘ri foydalana olish.

Ana shu uchta asosiy masalalardan kelib chiqqan holda 7-sinf uchun chop qilingan amaldagi “Ona tili” darsligining yutuq va kamchiliklarini tahlil qilamiz.

Darslikda o‘tilishi kerak bo‘lgan mavzular 100 soatga, alohida-alohida darslarga mo‘ljallangan. Darslik to‘rt bo‘limdan iborat:

- 6-sinfda o‘tilganlarni takrorlash;
- mustaqil so‘z turkumlari haqida ma’lumot;
- so‘zlarning munosabat shakllari;
- yordamchi so‘zlar.

Birinchi bo‘limda 1-darsdan 11-darsgacha 6-sinfda o‘tilgan mavzular takrorlanadi. Har dars savollar bilan boshlanadi. Bu savollarga javob berish orqali o‘quvchilar mavzu bo‘yicha quyi sinflarda egallagan bilimlarini esga oladilar va mustahkamlaydilar.

1-dars “Til va nutq” deb nomlangan bo‘lib, unda sinfda ishlash uchun 3 ta mashq berilgan. Bu mashqlarda faqat o‘zbek tilining ahamiyati haqida matnlar keltirilgan. Mazkur dars materiallarini tahlil qilishdan ma’lum bo‘ldiki, mashq va topshiriqlar asosan til masalasiga bag‘ishlangan. Aslida mavzu doirasida nutq

haqida, til va nutqning o‘zaro farqlanishi yuzasidan ma’lumot amaliy xarakterda taqdim qilinishi zarur edi. Bizningcha, 1-mashqda o‘quvchilarga quyi sinflarda o‘rganilgan mavzularni xotirlashlari va til hamda nutq bo‘yicha BMKlarini mustahkamlashlari uchun buyuk allomalarimizning va mutafakkirlarning til va nutq haqidagi fikrlari keltirilsa va ular asosida bahslashish, fikr almashish ko‘zda tutilsa maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

3-mashqda til haqidagi qonunning ahamiyati haqida E.Vohidovning fikrlari keltirilgan bo‘lib, mashq shartiga ko‘ra o‘quvchilar matnni ko‘chirib yozishlari va o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilishi va uning ahamiyati haqida babs uyuştirish topshirig‘i qo‘yilgan. Bizningcha, matnni o‘qib, shoirning tarixiy voqeani hikoya qilish uslubi bilan tanishish va qo‘srimcha materiallarga tayangan holda hamda taqdim qilingan savollar tufayli bahsga yo‘naltirish kutilgan samarani berishi mumkin.

4-mashq uyga vazifa bo‘lib “O‘zbegim deb keng jahonga Ne uchun madh etmayin!” (E.Vohidov) mavzusida matn tuzish va unda olg‘a surilgan g‘oya haqida suhbatlashish sharti qo‘yilgan. Shuni ham alohida aytish joizki, yangi o‘quv yilining boshlanishi bilanoq birinchi uyga vazifa matn tuzish bilan emas, aksincha ularni matn tuzishga tayyorlash bilan bog‘liq tayyor matnlar ustida bajariladigan topshiriqlar qo‘yilsa, o‘quvchilarning darsga kirishishlari osonroq bo‘ladi. Yoki uyga vazifa uchun gazeta va jurnallardan, “Tafakkur gulshani” kabi kitoblardan til va nutq, o‘zbek tilining ahamiyati haqida 5 ta gap topib ko‘chirib kelish topshirilgani ma’qul.

Ko‘rinadiki, 1-dars uchun keltirilgan mashqlar mavzuga yetarli darajada bog‘lanmagan, ya’ni til va nutqning nima ekanligi va ularning bog‘liqligi, farqlari haqida o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini rivojlantirishga qaratilgan deb baholash mumkin emas.

2-dars “Fonetika bo‘yicha o‘tilganlarni takrorlash” bo‘lib, berilgan 4 ta mashq orqali o‘quvchilar unli va undosh tovushlar haqidagi bilimlarini mustahkamlaydilar. Ayniqsa tajriba-sinov uchun berilgan 6-mashqda undoshlarni hosil bo‘lish o‘rniga ko‘ra tayyor jadvalga joylashtirish bo‘yicha topshiriq to‘g‘ri

tanlangan. O‘quvchilar mashqni bajarish orqali o‘z bilimlarini sinovdan o‘tkazadilar va undoshlarning hosil bo‘lishi haqidagi bilim va ko‘nikmalarini mustahkamlaydilar.

5-mashqda 7 ta gapni ham ko‘chirib yozish, ham unli tovushlarni ajratib, ularni tahlil qilish ko‘p vaqt ni oladi. Unli tovushlarning miqdori aniq: 6 ta. Nazarimizda, 3 – 4 ta gap tarkibidan unlilarni tahlil qilish yetarlidir.

7-mashqda A.Oripov qalamiga mansub she’r berilgan bo‘lib, o‘quvchilar uni ko‘chirib yozishlari, undosh tovushlarni topib, ularni portlovchi hamda sirg‘aluvchi undoshlarga ajratishlari kerak. Bu mashq orqali portlovchi va sirg‘aluvchi undoshlar takrorlanadi.

8-mashqda 9 ta maqol berilgan bo‘lib, nuqtalar o‘rniga tushirib qoldirilgan harflardan mosini qo‘yib ko‘chirish va ularda ilgari surilgan g‘oya haqida fikrlashish haqida shart qo‘yilgan. Mashqda maqollarning berilgani juda o‘rinli. Bizningcha, mashqda 4 ta gapda nuqtalar o‘rniga faqat jarangli va qolgan gaplarda esa faqat jarangsiz undoshlarni qo‘yib ko‘chirish nazarda tutilsa, jarangli va jarangsiz undoshlar takrorlangan bo‘lar edi.

9-mashq uyga vazifa uchun mo‘ljallangan. Uning shartiga ko‘ra o‘quvchilar “Assalom maktab” mavzusida matn tuzishlari va unda ishlatilgan tovushlarni izohlashlari taqozo qilinadi.

Nazarimizda, dars davomida tovush o‘zgarishlari, bo‘g‘in va urg‘u mavzularini takrorlashga ham e’tibor qaratish hamda alohida mashqlar keltirish ma’qul ish bo‘lar edi.

3-dars “Imlo bo‘yicha o‘tilganlarni takrorlash”ga mo‘jallangan. 11-mashqda “h” va “x” harfi ishtirok etgan so‘zlarga o‘ntadan misol topib, ular ishtirokida gaplar tuzish sharti qo‘yilgan. Mashq juda to‘g‘ri tanlangan, chunki o‘quvchilar ko‘pincha ana shu harflarni farqlamaydilar.

12-mashqda “Ezgu o‘y, ezgu so‘z, ezgu amal” kitobidan olingan g‘azab, mol-dunyo va foydali mehnat haqida ibratli matn berilgan. Uning shartiga ko‘ra xato yozilgan so‘zlarni to‘g‘rilab, matnni ko‘chirish, so‘zlarning imlosini tushuntirish, matndagi g‘oyani tahlil qilish kerak.

13-mashq uygaz vazifa uchun mo‘ljallangan. Unda rasm asosida “Kuz gashti” mavzusida imlo qoidalariga rioya qilgan holda matn tuzish sharti qo‘yilgan. Matn yaratish uchun mavzu mos tanlangan, chunki dars kuz fasliga to‘g‘ri keladi. Lekin matn uchun berilgan rasm talab darajasida emas. Rasm juda oddiy chizilgan va rangli emas. Bu rasm o‘rniga taniqli fotograflar tomonidan tasvirga tushirilgan yoki atoqli o‘zbek rassomlari chizgan kuz manzaralari aks etgan suratlar berilsa, darslik estetik talablarga javob bergen bo‘lar edi.

4-dars “Qo‘sishimchalar va ularning imlosi bo‘yicha o‘tilganlarni takrorlash” bo‘lib, bajarish uchun berilgan 3 ta mashq o‘quvchilarning mavzuni takrorlashlari uchun yordam beradi. 14-mashqda qavs ichida qo‘sishimchalar berilgan bo‘lib ulardan mosini qo‘yib gaplarni ko‘chirish kerak. 5-mashqda esa o‘quvchilar berilgan qo‘sishimchalarni so‘z yasovchi, lug‘aviy shakl yasovchi va sintaksik shakl yasovchi qo‘sishimchalarga ajratib jadvalga joylashtirishlari va gap ichida keltirishlari kerak. Aynan mana shu tajriba uchun mo‘ljallangan mashq o‘quvchilarning o‘z bilimini nazorat qilishlariga, o‘tilgan mavzuni eslab takrorlashlariga va mavzuni mustahkamlashlariga katta yordam beradi.

16-mashqning sharti esa berilgan matndagi tagiga chizilgan qo‘sishimchalarining turini aniqlash va gaplarni ko‘chirish, ulardagи g‘oya haqida suhbatlashishdan iborat bo‘lib, berilgan matn o‘quvchilarni ilm-u hunarli bo‘lishga chorlaydi, shaxs sifatida o‘zini-o‘zi rivojlantirish va mustaqil va ijodiy fikrlash kompetensiyalarini shakllantiradi.

5-darsda leksikologiya bo‘yicha o‘tilganlar takrorlanadi. Darsda bajarish uchun berilgan 18-, 19-, 20-mashqlar juda o‘rinli tanlangan, o‘quvchilar bu mashqlar orqali ko‘chma ma’noli so‘zlar, atamalar va ma’nodosh so‘zlar borasidagi bilimlarini yodga oladilar va mustahkamlaydilar. Ayniqsa 19-mashqda fanlararo bog‘lanish nazarda tutilganligi ayni muddao bo‘lgan. Mashqning shartiga ko‘ra o‘quvchilar o‘zlarini o‘qiyotgan tarix, algebra, adabiyot, geografiya, zoologiya fanlariga oid atamalarga misollar keltirib, ularni izohlashlari kerak.

21-mashq uygaz vazifa bo‘lib, muarrix (tarixchi), mutarjim (tarjimon), shuar (shoirlar), handasa (geometriya) so‘zlarini qatnashtirib gaplar tuzish sharti

qo‘yilgan. Ushbu so‘zlar bilan quyi sinflarda (5-, 6-sinflardagi leksikologiya o‘rganiladigan yoki takrorlanadigan darslarda) tanish bo‘lganligi uchun 7-sinf o‘quvchisiga bu mashq yengillik qiladi. Shuning uchun eskirgan so‘zlar uchun boshqa misollar tanlash ma’qul bo‘ladi.

6-dars mavzusi “Fe’l so‘z turkumi bo‘yicha o‘tilganlarni takrorlash” bo‘lib, 22-mashqda berilgan matn tarbiyaviy maqsadni amalga oshiriga yordam beradi. Mashqning shartida fe’llarning mayl, nisbat, zamon shaklini aniqlash ko‘zda tutilgan. Biroq matnda mayl va nisbat shakllaridan xabar mayli va aniq nisbatgina uchraydi xolos. Zamon shakllaridan esa faqat kelasi va o‘tgan zamon shakllari mavjud. Shuni inobatga olgan mashqqa o‘zgartirish kiritish taqozo qilinadi.

Fe’llarni takrorlash yuzasidan keltirilgan uchta mashqning hech birida fe’llarning imlosini mustahkamlash nazarda tutilmagan. Mashqlar faqat nazariy ma’lumotlarni mustahkamlashdan iborat bo‘lib qolyapti. Bizningcha imlo va to‘g‘ri talaffuz masalalari yuqori sinflarda ham nazardan chetda qolmasligi kerak.

7-darsda ot so‘z turkumi bo‘yicha o‘tilganlar takrorlanadi. Mavzu yuzasidan to‘rtta mashq berilgan. Bu mashqlardan ikkitasi og‘zaki bajariladi. 27-mashqda sport haqida keltirilgan matnni o‘qib, undagi mavzu haqida bahs uyushtirish, otlarning ma’no guruhlariga diqqat qilish sharti qo‘yilgan. Odatda chorak boshida o‘tilgan mavzu yuzasidan chorak oxirida yoki o‘quv yili oxirida takrorlash berilsa, mashqdan ko‘zlangan natijaga erishish mumkin. Mazkur mashqni bajarish uchun o‘qituvchi va o‘quvchilar 6-sinfda o‘rganilgan keng ma’lumotni takrorlab olishi taqozo qilinadi. Bu esa vaqt talab qiladi. Shuning uchun ot mavzusi bo‘yicha mashqlarni qayta ko‘rib chiqish ma’qul ish bo‘lar edi.

8-darsda sifat so‘z turkumi yuzasidan o‘tilganlar takrorlanadi. Berilgan mashqlar savollar va mashqlarsifatni takrorlashga yordam beradi.

9-dars son so‘z turkumi bo‘yicha o‘tilganlarni takrorlash bo‘yicha. 35-mashqda berilgan 6 ta savol o‘quvchilarning geografiya va tarix fanlaridan bilimlarini sinaydi. Ushbu savollarga javob berish bilan birga ular sonlarning tuzulishiga ko‘ra turlarini hamda gapdagi vazifalarini aniqlaydilar. Mavzuni

bunday tarzda mustahkamlash orqali fanlararo integratsiyaga erishishga xizmat qiladi.

36-mashqda Al-Xorazmiy haqida ma'lumot beruvchi matnni o'qish orqali sonlarning ma'no turlarini topib aniqlash sharti qo'yilgan. Bu mashq orqali o'quvchi ham buyuk allomamiz haqidagi, ham sonning ma'no turlari haqidagi bilimlarini mustahkamlaydi.

10-darsda ravish so'z turkumi yuzasidan o'tilganlar takrorlanadi. Quyi sinfda o'tilgan mavzu yuzasidan odatdagidek darsning boshida ravishning turlari va tuzilishi bilan bog'liq savollar berilgan. Savollarga javob berish orqali o'quvchilar o'tilgan mavzuni esga oladilar. Mavzu yuzasidan berilgan uchta mashqning hammasi o'quvchilarning og'zaki va yozma bilimlarini yanada o'stirishga yo'naltirilgan.

Darslikning "Mustaqil so'z turkumlari haqida ma'lumot" bo'limi 12-darsdan 25-darsgacha bo'lgan materialarni qamrab oladi. Bu darslarda o'quvchilar olmosh so'z turkumining ma'no guruhlari va tuzilishi, qo'llanilishi va imlosi haqida ma'lumotlarga ega bo'ladilar.

12-darsda "Olmosh so'z turkumi va uning tasnifi" mavzusi o'ganiladi. Mavzu uchta induktiv topshiriq bilan boshlanadi. 1-topshiriqda to'rtta gap berilgan bo'lib berilgan gaplar tarkibidagi ajratib ko'rsatilgan so'zlarning qaysi so'z o'rnida qo'llanilganini aniqlash sharti qo'yilgan, lekin so'zlar ajratib ko'rsatilmagan. Shu kabi juz'iy kamchiliklar anchagina.

Olmosh haqidagi ma'lumotlarda yoki mashqlar tarkibida olmoshlarning eskirishiga e'tibor qaratish o'quvchilarning mumtoz adabiyotni anglashiga yordam bergen bo'lar edi.

4-mashqda bizning sinfimizda yigirma beshta o'quvchi bor gapida -ta qo'shimchasining o'miga nafar so'zi qo'llanilsa, o'quvchilar hisob so'zlarni to'g'ri qo'llashga yo'naltirilgan bo'lar edi.

13-darsda "Ko'rsatish olmoshlari" mavzusi o'rganiladi. *Bu, shu, u, o'sha* olmoshlarining *bul, shul, ul, o'shal* tarzida ham qo'llanilishiga e'tibor

qaratilmagan. *U* ko'rsatish olmoshi bilan *u* kishilik olmoshining farqi haqida ma'lumot yoki mashq berilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi.

46-mashqda ko'chirish, ko'rsatish olmoshlarining tagiga chizish sharti qo'yilgan. Mashqda berilgan 10 ta gapda ko'rsatish olmoshlaridan *u*, *ana*, *mana* olmoshlari qatnashmagan. 1-, 3-, 4-, 5- gaplarda faqat *bu* ko'rsatish olmoshi ishtirok etgan. *U, ana va mana* ko'rsatish olmoshlari qatnashgan gaplar ham mashq tarkibiga kiritilishi zarur.

Og'zaki bajarishga mo'ljallangan 47- mashqda ham faqat *u* va *bu* olmoshlari qatnashgan matn berilgan. Mashqda *u* ko'rsatish olmoshi va *u* kishilik olmoshlarining farqini aniqlashga doir shart qo'yilsa va shartga mos gaplar keltirilsa, maqsadga muvofiq bo'lar edi.

48-mashq hech qanday talabga javob bermaydi. "Ajratib ko'rsatilgan olmoshlarni izohlang. Ko'rsatish olmoshilarini aniqlab, ular ishtirokida qayta gaplar tuzing va yozing" sharti qo'yilgan. Lekin berilgan matnda nima uchun biz kishilik olmoshi ajratib ko'rsatilgan? Qayta gap tuzdirish orqali nimaga erishiladi? Bular juda mavhum. Nazarimizda bu mashq uzoqdagi va yaqindagi narsalarni ko'rsatish uchun qaysi olmoshlardan foydalanishga doir BKMLarni mustahkamlashga qaratilsa kutilgan naitijani berishi mumkin.

16-darsda o'zlik olmoshlari mavzusi o'rganiladi. Berilgan topshiriqlar mavzuni yoritishga yordam beradi. Bizningcha, o'zlik olmoshiga -lar ko'plik qo'shimchasini qo'shilganda kinoya, kesatiq ma'nosini anglatishi amaliy o'rgatilishi zarur.

22-darsda olmoshlarning tuzilishiga ko'ra turlari o'rganiladi. Grammatiik qoidada faqat olmoshlarning sodda, qo'shma, juft va takroriy ekanligi aytib o'tilgan. Mashqlarda olmoshlarning tuzilishini aniqlashga doir shart qo'yilgan. Olmoshlarning tuzilishiga ko'ra turlarining har biri haqida to'liqroq ma'lumot 23-, 24-darslarda berilgan. Nazarimizda 22-darsning o'zida bunday ma'lumot kiritilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Darslikdagi to'rtinch bo'limida yordamchi so'z turkumlari o'rganiladi.

46-dars 1-toshiriqni bajarishdan boshlanadi. Topshiriqdan keyin mustaqil va yordamchi so‘z turkumlarining farqlanishi haqida qoida berilgan. 154-mashq shartiga ko‘ra o‘rganilgan ma’lumot va qoidalar asosida berilgan matndagi so‘zlar mustaqil va yordamchi so‘zlarga ajratib jadvalga joylashtiriladi. Berilgan matn tarbiyaviy ahamiyatga ega. Biroq 13 ta gapdagi so‘zlarni turkumlarga ajratish uchun ko‘p vaqt kerak taqozo qilinadi. Shuni inobatga olgan holda matn hajmini qisqartirish yoki mashq shartini faqat “yordamchi so‘zlarni topib yozing” tarzida o‘zgartirish ma’qul ish bo‘lar edi.

47-darsda “Ko‘makchilar”ga doir qoidalarda sof va vazifadosh ko‘makchilar haqida to‘liq ma’lumot berilmagani holda 160-mashqda ko‘makchilarni sof va vazifadosh ko‘makchilarga ajratib yozish sharti qo‘yilgan. Bu mashqni bajarish uchun namuna keltirilmagan. Fikrimizcha, bu darsda faqat ko‘makchilar haqida ma’lumot berilib, mashqlar ham shunga mos bo‘lishi zarur. 160-mashq bajarilishiga hojat yo‘q.

48-darsda sof ko‘makchilar o‘rganiladi. Bu darsdagi 163-mashqda sof ko‘makchilar qatnashgan gaplar berilgan. Shartida esa “Ko‘chiring. Komakchilarni topib, ostiga chizing. Ularning imlosi haqida fikrlang” deyilgan. Mashqning sharti “Ko‘chiring. Sof komakchilarni topib, ostiga chizing. Ularning imlosi haqida fikrlang” tarzida o‘zgartirilsa, shart aniqlashtirilgan bo‘lar edi.

*Qoidada bilan, uchun* ko‘makchilarining badiiy uslubda -la, -chun, shaklida qo‘llanilishi haqida keltirib o‘tilgan. Ma’lumki, *ilan* ko‘makchisi *ila* tarzida ham qo‘llaniladi. *Haqida* ko‘makchisi olmoshlar bilan kelganda *haqda* (*bu haqda, shu haqda* kabilar) shaklida ham qo‘llanilishi mumkin. 164-mashqdagi gaplarda shunday qo‘llanilish holati mavjud. Bu mashqning shartida “Ko‘chiring. Ko‘makchilarni topib, ostiga chizing. Uning talaffuzi va imlosini izohlang” deyilgan. Nazarimizda, talaffuzi va imlosiga ahamiyat qaratilishi taqozo qilinayotgan ko‘makchilarga e’tibor qaratish ma’qul ish bo‘lar edi.

Bog‘lovchilarining vazifasiga ko‘ra teng va ergashtiruvchi bog‘lovchilarga ajratish bo‘yicha 57-darsdagi 185-mashq “Bog‘lovchilarining vazifasiga ko‘ra

turlari” uchun mos kelmaydi. 62-darsda “Zidlov bog‘lovchilari” mavzusi yuzasidan 201-mashq ham mustahkamlash darsida berilgani ma’qul.

202-mashqda berilgan oltita gapdan zidlov bog‘lovchilarini aniqlab ularning gapdagi vazifalarini tushuntirish so‘ralgan. Berilgan gaplardan 4 tasida *lekin* bog‘lovchisi qatnashgan. Boshqa bog‘lovchilar qatnashgan gaplarni mashqqa kiritish taqozo qilinadi. Holbuki bog‘lovchisi ko‘pincha nazardan chetda qolib ketadi.

64-darsda yakka va takror bog‘lovchilar haqidagi ma’lumotda *na... na* inkor bog‘lovchisi ham takror holda qo‘llanilishi e’tibordan chetda qolgan.

65-darsda agar ergashtiruvchi bog‘lovchisining *magar, magarki, gar, garchi* tarzida ham qo‘llanilishi haqida qo‘shimcha ma’lumot keltirilmagan.

Berilgan so‘zlardan bog‘lovchilarni ajaratib, ularning turini aytish va gaplar tuzish bilan bog‘liq 213-mashq nazarimizda mustahkamlash darsi uchun mos keladi.

67-darsdagi (Aniqlov bog‘lovchisi) 222-mashqda faqat *ya’ni* bog‘lovchsining tagiga chizish sharti qo‘yilgan. Bu shartni bajarish juda oson. To‘g‘ri, *ya’ni* bog‘lovchisini berilgan 5 ta gapdan topish orqali o‘quvchi uni yaxshi eslab qoladi. Nazarimizda, o‘quvchilarning *ya’ni* bog‘lovchini gapda qo‘llay olish ko‘nikmalarini rivojlantirish, aynilsa *ya’ni* bog‘lovchisi va tirening qo‘llanilishini amaliy o‘rgatish maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

Shuningdek, boshlanish qismi berilgan gaplar, so‘z birikmalarini, *ya’ni* bog‘lovchisini qatnashtirib davom ettirishga oid mashqni bajartirish o‘quvchilarni fikrlashga o‘rgatishi, fikrini izohlashga, sharhlashga o‘rgatishi mumkin.

68-darsda sabab bog‘lovchilari mavzusida berilgan 224-mashq ham bog‘lovchilar o‘tib bo‘lingandan keyin mustahkamlash darsida berilgani ma’qul. Bu mashqda berilgan 6 ta gaplardan bog‘lovchilarni topib, jadval (sabab, aniqlov, shart bog‘lovchilari)ga joylashtirish orqali o‘quvchilar ergashtiruvchi bog‘lovchilarning turi yuzasidan o‘z bilimlarini yanada mustahkamlaydilar.

Bu dars uchun aynan shart bog‘lovchilari qatnashgan gaplarni topish bilan bog‘liq mashq berilgani ma’qul.

70-darsda yuklama haqida ma'lumot beriladi. Darsda berilgan 229-mashqda 9 ta gap berilgan bo'lib, ularda -u, -yu, -da, na... na yordamchilarining qaysi o'rinda bog'lovchi, qaysi o'rinda yuklama vazifasida kelganini aniqlash kerak. Bu mashqni sof va vazifadosh yuklamalar (71-dars) mavzusida keltirish zarur.

75-darsda o'xshatish-qiyoslash yuklamalari mavzusini mustahkamlash uchun mashqlar adabiyot fani bilan bog'langani ma'qul: o'xshatish-qiyoslash yuklamalari qatnashgan biror badiiy asarning qahramonlari tasvirlangan parcha berilib, bu parcha kimning qaysi asaridan olingani va qaysi qahramon ekanligini aniqlash, matndan yuklamalarni ajratish darsni foydali mashg'ulotga aylantirishi mumkin.

His-hayajon undovlari (81-dars) mavzusida berilgan uchta mashqning sharti deyarli bir xil. Uchta mashqda ham berilgan gaplardagi undovlarni topib, ma'nosini izohlash so'ralgan.

Modal so'zlarning ma'no turlari mavzusidagi 86-darsda 282- va 283-mashqlarda bir xil berilgan gaplarni ko'chirish, modal so'zlarni topib, ularning qanday ma'no anglatayotganini tushuntirish sharti qo'yilgan. Bu mashqlardan birining o'rniga modal so'zlardan foydalanib dialog tuzish topshirig'i berilsa, o'quvchilarning modal so'zlarni nutqda qo'llay olish ko'nikmalari rivojlanishiga xizmat qilgan bo'lar edi.

### **Bob bo'yicha xulosalar**

Tadqiqot predmeti hisoblangan 7-sinf uchun "Ona tili" darsligidan o'rin olgan mashq va topshiriqlar tahlili shuni ko'rsatdiki, amaldagi darslik mualliflari o'quv dasturida ko'zda tutilgan mavzularni to'liq qamrab olishga erishganlar. Biroq ayrim mavzularda, xususan ko'makchilar, bog'lovchilarni o'rgatish jarayonida nazariy ma'lumot taqdim qilinmagan, keyingi mavzularda o'rganish mo'ljallangan materiallar bo'yicha mashqlar keltirilganligi kuzatildi.

Odatda tinish belgilarning qo'llanilishi ko'proq sintaksis sathini o'rganishda e'tiborga olinadi. Punktuatsiya qoidalarining morfologiya sathiga aloqador jihatlari ham nazardan chetda qolmasligi zarur. 7-sinf darsligida bu inobatga olingan,

albatta. Biroq o‘quvchilarning yozma ishlarida bog‘lovchilarni qo‘llashda vergulni ortiqcha qo‘llash holatlari juda ko‘p kuzatiladi. Diktantni diktovka qilishda chunki bog‘lovchisidan so‘ng sintagma ohangi mavjudligi, biroq vergul qo‘yilmasligi, qoidaga ko‘ra bu bog‘lovchidan oldin vergul qo‘yilishini amaliy mashqlar orqali o‘rgatishga katta ahamiyat qaratilishi zarur.

Biriktiruv bog‘lovchilari vazifasida qo‘llaniladigan -u, -yu, -da yuklamalari uyushiq bo‘laklarni bog‘lashda vergulning qo‘llanmasligi darslikda qayd qilingan. Bizningcha, -u, -yu yuklamalarining juft so‘zlar qismlarini bog‘lab kelishlari, bu yuklamalarning uyushiq bo‘laklarni bog‘lashi va juft so‘zlarda qo‘llanilishi farqlanishi uchun amaliy mashqlar zarur.

Undovlarning undalmalar bilan qo‘llanilishida vergulning qo‘llanilishi haqidagi qoidani ham aniqlashtirish taqozo qilinadi.

- Assalomu alaykum, otaxon! (undalmadan oldin kelgan nutqiy odat undovi mavjud, vergul qo‘yilgan)
- Chu, jonivor! (undalmadan oldin kelgan buyruq-xitob undovi mavjud, vergul qo‘yilgan)
- Ey luqmoni Hakim, sening Dong‘ing tutdi olamni. (*Mirmuhsin*) (undalmadan oldin kelgan his-hayajon undovi mavjud, vergul qo‘yilmagan)

Darslikda esa quyidagi ma’lumot qayd etilgan:

1.2.-rasm.

!

**His-hayajon, buyruq-xitobni ifodalovchi so‘zlar undov so‘zlar sanaladi.**  
**Undovlar ma’nosiga ko‘ra ikki guruhga bo‘linadi:**  
**1) his-hayajon undovlari; 2) buyruq-xitob undovlari.**  
**Yozuvda undov so‘zlardan keyin vergul qo‘yiladi.**  
**Undalmalardan oldin kelganda esa undan keyin vergul qo‘yilmaydi.**

Darslikdan o‘rin olgan mashqlarda esa ayrim gaplarda undalma bilan kelgan undovlardan so‘ng vergul qo‘yilgan, ayrimlarida vergul qo‘llanmagan. Kuzatilgan darslarda o‘qituvchilarda ham, o‘quvchilarda ham qoidani tatbiq qilishda ikkilish holatlari kuzatildi. Demak, bu ma’lumotni qayta tahrir qilish taqozo qilinadi.

## IKKINCHI BOB. “ONA TILI”DAN MASHQ VA TOPSHIRIQLARNI TAKOMILLASHTIRISH TEXNOLOGIYASI

### **2.1. Ona tilidan mashq va topshiriqlarga qo‘yiladigan talablar**

5-9-sinflarda boshlang‘ich ta’limning tadrijiy davomi sifatida “nutq madaniyatini takomillashtirish” bosqichi boshlanadi. Chiroyli, mazmundor, ta’sirchan gapirish, fikrni shu tariqa yozma ifodalash ustidagi ishlar deyarli har bir darsda, uning turli qismlarida o‘tkaziladigan mashqlar orqali amalga oshirilsagina, kutilgan natijalarga erishish mumkin.

Til o‘rganishni mashqlar bajarishdan iborat jarayondir deyilsa mubolag‘a yoki xato bo‘lmaydi. Bu – mashqning dinamika tarafi. Uning statika jihatni – darslikda o‘quv materiali tarzida tashkil etilganligidadir.

Statikadagi mashq deyilganda, darslikda muayyan raqam yoki harf bilan belgilangan yoki maxsus ajratib ko‘rsatilgan, ikki qismdan iborat, dars tarkibini tashkil etadigan o‘quv-metodik kategoriya tushuniladi. Mashqning qismlari metodik adabiyotlarda “**mashq talabi (sarlavhasi)**” va “**mashq materiali**” deb yuritiladi. Mashq materiali dasrlikda yozilgan (harf, so‘z, jumla, gfaik matn) yoki o‘quvchi nutqining mahsuli (jumla, og‘zaki matn, yozma matn) bo‘lishi mumkin.

Dinamikadagi mashq – o‘quvchi bajaradigan, harf yozish yoki tovush talaffuz etishdan tortib, to matnni idrok etib tushunish yoki o‘z fikrini bemalol bayon etishgacha bo‘lgan o‘quv amaliyotidir.

Mashq o‘quv topshirig‘i vositasida o‘tkaziladi. U o‘qish va o‘rganish usuli bo‘lib, o‘quvchiga taalluqli. Mashq qilish uchun tuzilgan topshiriqlar asosida o‘quvchilar ona tilidan o‘rganilgan bilimlarni o‘xshash, bir xil o‘quv holatlariga tatbiq qilishadi. O‘rganilgan bilimlarni bir xil, o‘xshash o‘quv holatlarda takrorlash ko‘nikmalarining takomillashib, malakaga aylanishiga olib keladi. Shu jihatini

hisobga olib, ayrim metodistlar mashqni “bir xil mazmunni turli o‘quv holatlarida takrorlashdir”, – shaklida ta’riflashadi.

Mashqlar bajarish o‘zlashtirishni eng mustahkamlaydigan o‘quv jarayoni hisoblanadi. Bu mashqlar har bir fanda o‘ziga xos mazmunda bo‘ladi. Mashqlar bajarish jarayonida, ko‘pincha, o‘quvchining hamma sezgi a’zolari ishtirok etishi bilan uning eslab qolish darajasini oshirish orqali pedagogik imkoniyatlar yanada kengayadi.

2.1.1-jadval.

### **Mashqlar bajarish jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyati va vositalar**

O‘qituvchi		O‘quvchi	
Faoliyati	Vositalar	Faoliyati	Vositalar
Mashq bajarish tartibini ko‘rsatib berish, tushuntirish, savol-javob, rahbarlik qilish, nazorat	Masalalar, topshiriqlar, testlar, asboblar, stanoklar, tarqatma materiallar, kompyuter, uyga vazifa	Kuzatish, tushunish, mashq bajarish, takrorlash, so‘zlash, savol-javob, yozish, chizish, hisoblash, harakatlarni bajarish, uy vazifasini bajarish, fikrlash	Diqqat, tafakkur, xotira, asboblar, materiallar, daftar, darslik.

Mashqlar o‘qish, yozish, so‘zlash, fikrlash, hisoblash, turli harakatlar bajarish, qurish-yasash, chizish, bo‘yash, musiqa chalish, qo‘sish aytish, misol, masala, testlar yechish, komputer bilan ishslash, asboblar, stanoklar, boshqa texnika vositalari bilan ishslash, materiallarga turli ishlov berish, dalada, fermada, qurilishda ishslash, uy-ro‘zg‘or ishlarini bajarish, jismoniy va sport mashqlari, ishchanlik o‘yinlari, musobaqa, ko‘rik, tanlov va boshqalardan iborat. Ona tili darslarida ularning aksariyatidan foydalilanadi, xususan, o‘qish, yozish, so‘zlash, fikrlash, turli harakatlar bajarish, qurish-yasash, chizish, bo‘yash, qo‘sish aytish, testlar yechish, komputer bilan ishslash, asboblar va boshqa texnik vositalar bilan ishslash, ishchanlik o‘yinlari, musobaqa, ko‘rik, tanlov va boshqalar keng foydalanimoqda.

Mashg‘ulot vaqtining ko‘proq qismi mashqlar bajarishga sarflanishi, albatta, yaxshi natijalar beradi. O‘qitish o‘qituvchi zimmasiga yuklatilgan ijtimoiy vazifa sanalsa, o‘qish ta’lim oluvchilar zimmasidagi vazifadir. Yangi pedagogik texnologiya o‘quvchiga ta’lim jarayonining subyekti, ya’ni faol ishtirokchisi, o‘qituvchiga esa shu jaryonning tashkilotchisi – boshqaruvchisi sifatida qarashni taqozo etadi. Darsda o‘quvchi faol ishlovchi shaxs bo‘lib, u butun mashg‘ulot jarayonida egallagan bilimlarini xotirada tiklaydi, uni qisman yangi sharoitlarda qo‘llaydi, aqliy faoliyat usullari (kuzatish, qiyoslash, guruhash, umumlashtirish, hukm va xulosalar chiqarishni bajarib, ma’lumdan noma’lumga qarab boradi).

Dars mavzusini mustahkamlash, nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llash maqsadida mavzuga mos ravishda mashqlar beriladi. Darsliklarda qayd qilingandek, “har bir mavzu bo‘yicha turli-turli mashqlar keltirilib, ular savodli yozish va talaffuz qilish hamda yozma nutqning turli uslublaridan to‘g‘ri va o‘rinli foydalanish tartibini o‘rganishda shu sohada zarur amaliy ko‘nikmalar hosil qilishga yordam beradi”<sup>19</sup>.

Ona tili darsliklarini tahlil qilish jarayonida o‘quv topshiriqlarini uch guruhga ajratdik:

1. Qayta xotirlash tipidagi mashqlar.
2. Qisman izlanuvchanlikka oid mashqlar.
3. Ijodiy mashqlar

Reproduktiv darsliklar zarur bilim zahirasini berishga xizmat qilib, u reproduktiv ta’limning asosiy vositasi sifatida e’tirof etiladi. Chunki o‘quvchi egallashi lozim bo‘lgan bilimlar silsilasi, tegishli qoida va xulosalar, ularga mos mashq va topshiriqlar tizimi, ularni bajarish namunasi tayyor qilib beriladi. O‘quvchining shu bilan chegaralanishi kifoya qilib qo‘yiladi.

Kognitiv (cognition-bilishga oid, idrokiy) ta’lim esa o‘quvchini izlanish, qiyoslash, xulosa chiqarishda mustaqillikka yo‘naltiradi. Demak, reproduktiv ta’lim bilim bersa, kognitiv ta’lim bilim olishga undaydi, bilim olish yo‘llarini

---

<sup>19</sup> Abdurahmonov G‘., Rustamov H. Ona tili. – T.: O‘qituvchi, 1995. – B.3.

o‘rgatadi, usullarini tavsiya etadi – o‘quvchi qo‘liga bilim kalitini tutqazadi. Chunki bilim cheksiz, uning barchasini o‘quvchiga o‘rgatib bo‘lmaydi. Kognitiv ta’limda darsliklar faqat tizimli izchillikga ega topshiriqlardan iborat bo‘lib, o‘quvchini ana shu topshiriqlarni o‘qituvchi nazoratida bajaruvchi, izlanuvchan va faol subyektga aylantiradi. G‘arb pedagoglari A.Ozbel, P.Flaag, A.Reynol’ds kabilar tomonidan ko‘tarilgan va ilmiy asoslangan bu ta’lim usuli bugungi kunda jahonda ilg‘or ta’lim usuli sifatida e’tirof etilgan.

Ona tili darslarida o‘quvchi ikki vaziyatda qatnashadi: sust vaziyat. Bunda o‘quvchilarining o‘quv-biluv faoliyati ta’lim jarayonining obyekti sifatida qaraladi. O‘quv topshiriqlari o‘quvchilar xotirasiga mo‘ljallab o‘tkaziladi. Ona tilini o‘zlashtirishda o‘quvchilar tashabbuskorligi, mustaqilligi chegaralanadi. O‘quvchilar ta’lim sharoitida o‘qituvchining xohish-istiklari, buyruqlari, topshiriqlari ijrochisi maqomini oladi; faol vaziyat. Bunda o‘quvchi ta’lim jarayonining subyekti sifatida qaraladi. O‘quv topshiriqlari bolalarning xotirasi va tafakkuriga mo‘ljallab o‘tkaziladi. Faol vaziyatda o‘quvchilarining tashabbuskorligi, mustaqilligi inkor qilinmaydi. Aksincha, o‘quvchi faol o‘rganish, bilishga rag‘batlantiriladi. Bola ta’lim sharoitida o‘rganilayotgan obyektlar – nutq tovushi, bo‘g‘in, urg‘u, so‘z va uning ma’nolari, so‘z birikmalari, gap va uning turlarini ajratish, tahlil qilish, kuchlari yetguncha xulosalar chiqarishga o‘rgatiladi.

Tatbiqiy amaliy ishlar o‘quvchilarining mashg‘ulotda olgan bilimlarini amalda qo‘llay bilish ko‘nikmalarini shakllantiruvchi va rivojlantiruvchi mashqlardir. Bunday mashqlar mohiyatan ikki turli bo‘ladi:

- 1) qisman ijodiy mashqlar
- 2) ijodiy mashqlar<sup>20</sup>

Tatbiq arabcha so‘z bo‘lib, amalda ishlatish, qo‘llashdir<sup>21</sup>.

Aksariyat mashqlar og‘zaki bajariladi. Tadqiqotlardan aniqlanishicha, kundalik hayotda insonning nutqiy faoliyatidan o‘ndan to‘qqiz foizi og‘zaki tarzda va faqat bir foizgina yozma tarzda amalga oshirilar ekan. Ma’lumki, yozma

<sup>20</sup> G‘ulomov A. Ona tili o‘qitish metodikasi. 69-b.

<sup>21</sup> O‘zbek tilining izohli lug‘ati. – M.: Russkiy yazik, 1981. 2-tom, 133-b.

mashqlardan ko‘ra og‘zaki mashqlar va topshiriqlarni bajarish ancha kam vaqt talab qiladi. Shu bois dars jarayonida o‘quvchi uchun bir necha turdag'i og‘zaki topshiriqlarni bajara olish imkoniyati vujudga keladi. Agar topshiriqlarning ko‘pi ijodiy va mustaqil bajarishga mo‘ljallansa, o‘quvchini ijodiy faoliyatga undasa dars samaradorligi oshadi.

Mashqlar shartida o‘quvchidan ijodiylik talab qilinish darajasiga ko‘ra mashqlar noijodiy, yarim ijodiy va ijodiy turlarga bo‘linishini ta’kidlagan edik. Masalan, matnni ravon o‘qish va qayta hikoya qilish, undan mavzuga mos grammatik birliklarni topishga qaratilgan mashqlar yarim ijodiy xarakterdagi mashqlar hisoblanadi. Matn yaratish, olingan taassurotlar asosida og‘zaki hikoya tuzish esa ijodiy xarakterdagi mashqlar qatoriga kiradi. Mashq sharti uni muvaffaqiyatli bajarishning muhim garovidir<sup>22</sup>.

Darsga tayyorgarlik jarayonida o‘qituvchi o‘rganiladigan mavzuga bog‘liq ilmiy va metodik adabiyotlar bilan ham puxta tanishib chiqishi lozim. O‘zbek tilshunosligi fanining so‘nggi yillarda qo‘lga kiritgan yutuqlaridan xabardor o‘qituvchigina darslikdagi topshiriqlar talabini tushunadi va har bir topshiriqdan ko‘zlangan maqsadni anglaydi.

Ijodkor o‘qituvchi darsni darslik qolipi asosida qurmaydi, balki uni yaratadi. Darsga tayyorgarlik ko‘rishda o‘qituvchi darslikdagi qaysi mashqlardan foydalnishni, mashq shartlariga qanday qo‘srimchalar yoki o‘zgartirishlar kiritishi mumkinligini, mahalliy o‘lka materiallari bilan dars materialini bog‘lash imkoniyatlarini o‘ylab ko‘rishi va rejalashtirishi lozim.

O‘qituvchi o‘quvchilarga beriladigan savollarni puxta o‘ylab ko‘rishi, javobga chaqiriladigan o‘quvchilarni oldindan belgilashi, uyga beriladigan vazifani belgilashi lozim.

O‘qituvchi yangi yo‘nalishdagi “Ona tili” dasturi va darsliklari bilan ishslashga ham o‘zini tayyorlashi kerak.

---

<sup>22</sup> Qiyasova Q. Til darslarida o‘quv topshiriqlari tizimidan foydalanish.// Til va adabiyot ta’limi. –Toshkent: 2003. –№ 5. – B. 22-25.

Darsliklardagi har bir mashq, topshiriq, matn, rivoyat va latifa ma'lum maqsadni ko'zlaydi va bu ko'p hollarda yashiringan bo'ladi. Ko'pincha ko'zlangan maqsad 2-3 mashqni bajargandan keyin ravshan bo'ladi. Chunki maqsadni birinchi qadamdayoq ma'lum qilish o'quvchining fikrlashiga, ijodiy mushohada yuritishiga to'sqinlik qilishini nazarda tutib, mualliflar ularni bosqichma-bosqich berishgan. O'qituvchi har bir mashqdan ko'zlangan yuzaki (zohiriy), ilk bosqich maqsadni va asosiy (botiniy) tugal maqsadni to'liq bilmasa, puxta bilim berishga erisha olmaydi. Yuzaki maqsad yordamchi vosita bo'lib, tub maqsadga erishish uchun bir bosqichdir. Ayrim hollarda tub maqsadni topish o'quvchining o'ziga havola etiladi. Darsliklarda talaygina rivoyatlar berilgan bo'lib, ular o'quvchidan ijodiy fikrlashni va o'z nuqtayi nazarini bayon qilishni talab qiladi. O'qituvchi oldindan bu rivoyatlarni o'qib buning asosida qanday xulosaga kelish mumkinligini o'ylab ko'rishi lozim.

Yangi “Ona tili” darsliklarida mashqlar bosqichli ketma-ketlik prinsipi asosida berilgan bo'lib, ular bir necha topshiriqlidir. Shuning uchun o'qituvchi mashq va undagi har bir topshiriqning maqsadini tushunishi lozim. Bu o'rinda yana shuni ham alohida qayd qilish lozimki, ko'p topshiriqli mashqlarda bir topshiriqni bajarib, ikkinchisini chetlab o'tish o'quvchini asl maqsadidan uzoqlashtiradi. Demak, o'qituvchi darsga tayyorlanar ekan, har bir topshiriqning maqsadi, uni bajarish usuli, sarflanadigan vaqt ni aniq hisobga olishi lozim.

O'qituvchi ijodiy mashqlardan foydalanish jarayonida sinfning o'zlashtirish darajasini, o'quvchilarining psixik rivojlanishini e'tiborga olmasligi mumkin emas. Shuning uchun metodikada tabaqa lashtirish tushunchasi mavjud. “Ta'limni rivojlantirishning asosiy maqsadi, o'quvchilar bilim sifatini yangicha hal etish uni tabaqa lashtirishni taqozo etadi. Bunda har bir o'quvchining shaxsiy xususiyatlarini, ularning fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish darajasini inobatga olish kerak. Mustaqil O'zbekiston ta'lim taraqqiyotining hozirgi bosqichida tabaqa lashtirilgan ta'lim katta nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo'lgan muammolardan hisoblanadi. Tabaqa lashtirilgan ta'lim davlat standartlarini inkor etmagan holda to'la va yuqori darajada amalga oshirishga qaratilgan bo'ladi.

Umumiy o‘rta maktablarida barcha o‘quvchilarni bir xil dastur va shu asosda bir xil metodlar bilan o‘qitish barcha o‘quvchilarning bilim va malakasidagi dinamik rivojini ta’minlay olmaydi”<sup>23</sup>.

7-sinfda 28-42-darsgacha so‘zlarning munosabat shakllari o‘rganiladi. Ismlarning munosabat shakllarini o‘rganish 1-topshiriqdan o‘rin olgan “Ismlar haqida” ilmiy matni bilan boshlanadi. Har bir o‘rganilayotgan mavzuga aloqador izohlar ixcham, sodda, eng muhim atamalardan foydalanilganligi va tushuncha, hodisaning mohiyatini ochib berishga xizmat qilishini darslikning bosh yutug‘i sifatida qarash joiz. Ikkinchidan, ta’rif va izohlar tushunchaning eng muhim qirralarigacha qamrab ololgan. Tanlangan mashqlar o‘quvchilarda tafakkurni va nutqdi rivojlantirishning asosiy omili sifatida har bir topshiriq o‘quvchi tomonidan mustaqil bajarilishiga moslab tuzilganini etirof etish o‘rnlidir.

Mazkur bo‘limda qo‘srimchalarning ma’nosi va ishlatilishida ikki omil – lug‘aviy ma’no omili va sintaktik qo’llanish omili birgalikda olib boriladi: ismlarning ko‘plik, kichraytirish-erkalash, qiyoslash ma’nolarini anglatishi, -lar qo‘srimchasi otlarning turli ma’no guruhlariga qo’shilib kelganda turli xil ma’no va uslubiy xususiyat kasb etishi hamda munosabat shakllari qiyoslanishiga doir mashq va topshiriqlar berilgan. Albatta, o‘qituvchi bu mashqlarda ijodkorligini namoyon qilishi zarur. Qo‘srimchaning uslubiy xususiyatlari hurmat, kuchaytirish, bo‘rttirish, mensimaslik, kamsitish ma’nolari uslubiyat bilan, so‘zlarning lug‘aviy ma’nolari bilan birgalikda sharhlansa, o‘quvchilar bu hodisalarni chuqurroq tushunib oladilar. -roq qo‘srimchasi ham shunga o‘xhash xususiyatga ega. Balandroq, kattaroq, uzunroq kabi so‘zlarda u belgilarning ko‘pligini, kichikroq, pastroq, kamroq so‘zlarida esa belgining kamligini ko‘rsatadi va bu vosita so‘zning lug‘aviy ma’nosi bilan bog‘liq bo‘ladi.

Kelishik qo‘srimchalarning qanday ma’nolarda yuzaga chiqishi ham bu qo‘srimchalarning qanday so‘zlarga birikib kelganligi bilan bog‘liqdir.

<sup>23</sup> Niyozmetova T. Adabiy ta`lim jarayonida o‘quvchilarga differentsial yondashuv.// Uzluksiz ta`lim. – Toshkent: 2002. - № 6. - B. 34-37.

Jo‘nalish, chiqish kelishiklarining zamon va makon ma’nolarida kelishi, bunday qo‘srimchali so‘zlarning gapda hol bo‘lib kelishi, qaerdan?, qaerga? so‘roqlariga javob bo‘lishi, harakat natijasi kimga qaratilgan yoki yo‘nalganligi ma’nolari anglashilsa, gapda to‘ldiruvchi bo‘lib kelishi hamda kimga?, nimaga? kimdan?, nimadan? va h. k. so‘roqlarga javob bo‘lib kelishi bilan bog‘liqdir. Masalan, yetmoq harakat oti sifatida, ya’ni zamon va makondagi biror nuqtaga erishish ma’nosida kelganda, albatta, zamon va makon ma’nosidagi so‘zlarni talab qiladi va kelishik qo‘srimchalari ham zamon va makon ma’nolariga ega bo‘ladi. Masalan, Sal fursat o‘tmay mакtabga yetdик kabi. O‘quvchilar qaerga yetdик? so‘rog‘ini bera oladilar va mакtabga so‘z shaklining makon ma’nosida kelganligini, demak, uning gapda hol bo‘lib kelishini osonlikcha aniqlaydalar. Kelmoq, ketmoq, bormoq, yurmoq kabi harakat oti fe’llari ham xuddi shunday xususiyatga ega: Men bordim (qayerga?, qaerdan?); Uydan mакtabga jo‘nadi va h.k. Nutq fe’llari bilan kelgan jo‘nalish va chiqish kelishiklari kimga?, nimaga? so‘roqlariga javob bo‘ladi va gapda to‘ldiruvchi bo‘lib keladi: Akamdan, dadamdan xabar berdim kabi.

Demak, morfologiyaning til bo‘limlari bilan uzviy bog‘liqligini nazarda tutgan holda, ayniqsa, kelishik shakllarining so‘zlarni sintaktik aloqaga kirishuvidagi muhim ahamiyatini hisobga olib, ona tilidan ko‘zlangan eng so‘nggi natija – o‘quvchining matn yarata olish malakasini rivojlantirishga erishishni maqsad qilgan holda kelishiklarni ot tarkibida emas, balki ismlar mavzusi doirasida o‘rgatish maqsadga muvofiq keladi.

Egalik shakllari va ularning imlosi o‘rganiladigan 30-darsda egalik qo‘srimchalarining hamma o‘rinlarda ham qarashlilik ifodalab kelmasligi, viloyat, shahar, tuman, korxona, muassasa nomlarida qo‘llaniladigan 3-shaxs egalik qo‘srimchasi shaxsga qarashlilik ma’nosini emas, balki xoslik, umumdan ajaratilganlik ma’nosini ifodalashi, shuning uchun bunday birikmalarda oldingi qism qaratqich kelishigida qo‘llanmasligi, shuningdek, -i, -si qo‘srimchalarining bir qator so‘zlarda qaratqich kelishigidagi so‘zlar bilan bog‘lanmasligi, so‘zlar tarkibida yaxlitlanib, o‘z vazifasini yo‘qotishi izohlangan. Mavzuga doir 6 ta

mashqni bajarish davomida o‘quvchilar egalik qo‘srimchalariga doir xususiyatlarni chuqurroq o‘rganadilar. Nazarimizda, -i, -si qo‘srimchalarining bir qator so‘zlarda qaratqich kelishigidagi so‘zlar bilan bog‘lanmasligi, so‘zlar tarkibida yaxlitlanib, o‘z vazifasini yo‘qotishi haqidagi izoh to‘ldirishni talab qiladi, ya’ni bunday so‘zlarning aynan ravish ekanligini ochiq-oydin aytib o‘tish ma’qul bo‘ladi.

Egalik qo‘srimchalari imlosi bilan bog‘liq mashqlarga ham ba’zi o‘zgartirishlar kiritilishi lozimligini aytib o‘tmoqchimiz. Xusan, 111-mashqda berilgan so‘zlarga egalik qo‘srimchalarini qo‘sning. Qaysilarida asos qismida tovush o‘zgarishi ro‘y berayotganini va imlosini tushuntiring, degan shart qo‘yilgan. Mazkur mashqdan o‘rin olgan so‘zlarning aksariyati egalik qo‘srimchalarini olgach tovush o‘zgarishlariga uchraydi, shu bilan birga tovush o‘zgarishi kuzatilmaydigan bir bo‘g‘inli yuk, tuk kabi, ko‘p bo‘g‘inli ittifoq. huquq, axloq kabi so‘zlar ham kiritilgan. Ular qatorida yoq, yo‘q kabi so‘zлarni keltirish zarur. Mashq uchun bir necha topshiriqlar belgilanishi lozim. Jumladan:

1. Ko‘p bo‘g‘inli qaysi so‘zlarda tovush o‘zgarishlari kuzatiladi? Izohlang.
2. Ko‘p bo‘g‘inli qaysi so‘zlarda tovush o‘zgarishlari kuzatilmaydi? Izohlang.
3. Bir bo‘g‘inli qaysi so‘zlarda tovush o‘zgarishlari kuzatiladi? Izohlang.
4. Bir bo‘g‘inli qaysi so‘zlarda tovush o‘zgarishlari kuzatilmaydi? Izohlang.

Ko‘p bo‘g‘inli so‘zlarga egalik qo‘srimchalari qo‘shilganda k, q tovushlarining o‘zgarishga uchramasligi, shu so‘zlarning asl turkiy emas, balki olinma so‘zlar ekanligi bilan izohlash talab qilinadi. O‘qituvchi haqiqatni o‘zi aytib qo‘ymasdan, izohli lug‘atga murojaat qilishi, o‘quvchilar diqqatini so‘zlarning qaysi tilga mansub ekanligiga qaratishi lozim.

Bosh kelishik o‘rganiladigan 35-darsda bosh kelishikdagi so‘zlarning gapda ko‘pincha ega, ot-kesim, undalma vazifasida kelishi izohlangan. Darslikdagi 121-mashq bajarishi jarayonida aksariyat o‘quvchilar inson (uchun ko‘makchisi bilan kelgan), axloqsizlik, xoinlik (bilan ko‘makchisi bilan kelgan) so‘zlarini ega vazifasida kelgan deb hisoblaydilar. Shuni inobatga olib bosh kelishikdagi

so‘zlearning ko‘makchi bilan kelishiga alohida e’tibor qaratish zarur deb hisoblaymiz.

36-37-darslarda tushum va qaratqich kelishiklarining qo‘llanilishi, belgili va belgisiz kelishi hollari o‘rgatiladi.

O‘qituvchi qaratqich kelishigi tushum kelishigi holida ba’zan noto‘g‘ri talaffuz qilinishi, ya’ni -ning kelishik qo‘sishimchasining nutqda –ni formasida uchrashini aytib o‘tishi zarur. Bu bilan o‘quvchilarni adabiy til normalari asosida so‘zlashga undaydi.

O‘qituvchi qaratqich va tushum kelishigi qo‘sishimchasi she’rlarda ba’zan –n shaklida uchrashini alohida ta’kidlashi zarur: Er kurrasin(ing) boshin(i) tang‘idik kabi misollar orqali asoslab, ma’lumotlarning o‘quvchi tomonidan puxta o‘zlashtirilishiga erishishi zarur.

Morfologiya va sintaksis o‘rtasida ham chambarchas bog‘liqlik mavjudligini o‘quchilarga nazariy jihatdan tushuntirishning o‘zi kamlik qiladi. Buning amaldagi ifodasi ustida ham muntazam ravishda metodik ishlar tizimi olib borilishi kerak. Morfologiyadagi har bir so‘z shaklining gap tarkibida ma’lum sintaktik vazifani bajarishi, ma’lum gap bo‘lagi vazifasida kelishi, grammatik shakllarning gap tarkibidagi bo‘laklarni bir-biriga bog‘lovchi yoki gap bo‘laklariga qo‘sishimcha ma’no yuklovchi vosita vazifasini bajarishi amaliy ishlar jarayonida tushuntirilishi, ularni aniqlash va ajratish ko‘nikma va malakalari ish jarayonidagina mustahkamlanishi kerak bo‘ladi.

## **2.2. Uyga vazifa muammosi: uyga vazifa topshiriqlarini takomillashtirish texnologiyalari**

Ko‘p yillik kuzatishlarimiz shuni ko‘rsatmoqdaki, ona tili ta’limida uy vazifasi masalasi dars jarayoniga qo‘yilayotgan talablarga qiyoslaganda nazardan chetda qolmoqda. Binobarin, uy vazifasi ta’lim mazmunining muhim va ajralmas qismidir.

Uy vazifasi qancha va qanday berilishi haqida metodikada qat’iy ko‘rsatma mavjud emas. Odatda ona tili darsliklarida mavzu uchun ajratilgan o‘quv materiallari oxirida uyga vazifa uchun “Uyga topshiriq” (5-sinf) “Uyga vazifa” (6-7-8-9-sinflar) tarzidagi qaydlar va mashq-topshiriqlar beriladi.

Biz tadqiq qilayotgan masala haqida shunday yozadi: “...1-4-sinflarda 10 ta o‘quv fani bo‘yicha har bir fandan o‘rtacha 20 minutlik uy vazifasi berilsa, o‘quvchi bir kunda 1 soat-u 20 minut vaqt sarflaydi. 5-9-sinflarda esa 20 ta o‘quv fani bo‘yicha har kuni 6 soatdan dars bo‘lganda, har bir fandan 25 minutlik uy vazifasi berilsa, o‘quvchi uni bajarish uchun bir kunda 2 soat-u 30 minut vaqt sarflaydi. Vaholanki, fan o‘qituvchilari o‘quvchilarga 20-25 minutlik uy vazifasi berishmaydi. ... Masalan, ona tilidan mavzu bo‘yicha matn tuzish yoki insho yozish topshirig‘i uyga vazifa qilib beriladi. Ammo o‘quvchiga na matn tuzish qonun-qoidalari, na bu matnda qo‘llanishi lozim bo‘lgan leksik yoki grammatik material belgilab beriladi, sinfda ham uy vazifasini berishdan avval uni qanday bajarish haqida ko‘rsatmalar yoki tayanch materiallar berilmaydi”<sup>24</sup>. Iqtibosdagi ayrim fikrlarni istisno qilganda, (sinfda uy vazifasini berishdan avval uni qanday bajarish haqida ko‘rsatmalar berilmasligi borasida tajribali o‘qituvchilarimizning aksariyatida bu qusur uchramasligini aytib o‘tish o‘rinli) haqli e’tirozni ma’qullamaslik mumkin emas. Darhaqiqat, amaldagi ona tili darsliklarimizda matn yaratishga doir topshiriqlarning miqdori anchagina. Misol tariqasida 7-sinf ona tili darsligidan quyidagilarni aniqladik (2.2.1-jadval):

### 2.2.1-jadval.

1	4-mashq	„O‘zbegim deb keng jahonga Ne uchun madh etmayin!” mavzusida matn tuzing. Unda olg‘a surilgan g‘oya haqida suhbatlashing.
2	9-mashq	„Assalom, maktab!” mavzusida matn tuzing. Unda ishlatilgan tovushlarni izohlang.
3	13-mashq	Rasm asosida „Kuz gashti” mavzusida matn tuzing. Uni imlo qoidalariga rioya qilgan holda yozing.
4	29-mashq	Samarqand, Buxoro, xivaning shon-shuhrati haqida matn tuzing. Unda ishlatilgan otlarni izohlang.
5	34-mashq	Matnni davom ettiring. Ajratib ko‘rsatilgan sifatlarga tavsif bering.
6	37-mashq	Tarjimayi holingizni yozing va unda ishlatilgan sonlarni izohlang.

<sup>24</sup> Усмонова К. Уй вазифаси долзарб муаммо. // Тил ва адабиёт таълими. -2007. 2-сон. -Б. 77-79.

7	56-mashq	Kishilik olmoshlarini qatnashtirib „Maktabimizda gullar bayrami” mavzusida matn tuzing.
8	66-mashq	So‘roq olmoshlari ishtirokida „Saxovatli kuz” mavzusida matn tuzing.
9	80-mashq	„Mustaqillik yillarida ona tilimiz rivoji” mavzusida matn tuzing. Matn tuzishda olmosh o‘rnida qo‘llaniladigan so‘zlardan foydalaning.
10	85-mashq	„Mustaqillik bizga nima berdi?” mavzusida matn tuzing. Qo‘shma olmoshlarning tagiga chizing.
11	93-mashq	„Mustaqil O‘zbekiston ramzları haqida” mavzusida matn tuzing. Matnda juft va takroriy olmoshlarni qo‘llang.
12	100-mashq	„Bog‘da” sarlavhasi ostida kichik hikoya tuzing. Unda qanday munosabat shakllaridan foydalanganingizni aiting.
13	110-mashq	„Mustaqillik yo‘lida fido bo‘lgan bobolarim” mavzusida matn tuzing. Matndagi egalik qo‘s Shimchalarining tagiga chizing.
14	3-topshiriq	„Kuch birlikdadir” mavzusida matn tuzing. Unda ishlatilgan so‘zlar tarkibidagi egalik qo‘s Shimchalarini izohlang.
15	124-mashq	„Ilm – aql chirog‘i” mavzusida matn tuzing. Unda ishtirok etgan bosh kelishikdagi otlarning tagiga chizing va vazifasini tushuntiring.
16	131-mashq	„Mening orzum” mavzusida hikoya tuzing. Qaratqich kelishigidagi so‘zlarning tagiga chizing.
17	141-mashq	„Suvning hayotimizdagи ahamiyati” mavzusidagi hikoya yozing. Qanday kelishik qo‘s Shimchalaridan foydalanganingizni aiting.
18	4-topshiriq	„Mustaqillik madhi qo‘sishlarda” mavzusida matn tuzing. Matndagi kelishik qo‘s Shimchalarining tagiga chizing.
19	162-mashq	„Qish faslida” mavzusida ko‘makchilardan foydalaniб hikoya yozing. Foydalilanigan ko‘makchilarining ma’no va vazifalarini aiting.
20	166-mashq	Ko‘makchilardan foydalaniб, „Maktabimiz kutubxonasida” mavzusida hikoya yozing. Ko‘makchilarining talaffuzi va imlosi haqida so‘zlang.
21	173-mashq	„Mustaqillik va sport” mavzusida matn tuzing. Matnda ko‘makchilardan ham foydalaning.
22	180-mashq	<i>Singari, sayin, qaramay, asosan, tomon, tashqari, boshlab, ich</i> ko‘makchilarni qatnashtirib bog‘li matn tuzing. Unga sarlavha qo‘ying. Ko‘makchilarining qaysi kelishikdagi so‘zlar bilan bog‘langanini tushuntiring.
23	184-mashq	„Jahonga bo‘y ko‘rsatayotgan yoshlar” mavzusida matn tuzing. Unda bog‘lovchilardan ham foydalaning.
24	187-mashq	„Mehnat qilsang rohat ko‘rasan” mavzusida bog‘li matn tuzing. Undagi bog‘lovchilarining tagiga chizib, turini aniqlang.
25	190-mashq	„Birinchi o‘qituvchim” mavzusida hikoya tuzing. Hikoyada teng bog‘lovchilardan foydalaning. Ularning tagiga chizib, turini aiting.
26	193-mashq	Sof va vazifadosh bog‘lovchilar ishtirokida bog‘li matn tuzing. Matnga sarlavha qo‘ying. Bog‘lovchilarining tagiga chizib, turini aiting.
27	196-mashq	Biriktiruv bog‘lovchilarini qatnashtirib „Mening do‘stim” mavzusida bog‘li matn tuzing. Bog‘lovchilarining tagiga chizing. Ularning sof yoki vazifadoshligini aiting.
28	200-mashq	Rasm asosida „Vatanimizni ko‘z qorachig‘iday asraymiz” mavzusida matn tuzing. Unda ayiruv bog‘lovchilaridan foydalaning. Vazifasini tushuntiring.
29	216-mashq	„Tilga e’tibor – elga e’tibor” mavzusida matn tuzing. Unda ergashtiruvchi bog‘lovchilardan foydalaning. Bog‘lovchilarining tagiga chizing.
30	223-mashq	„Non qadri” mavzusida hikoya yozing. Unda bog‘lovchilardan foydalaning. Aniqlov bog‘lovchisining tagiga chizing.

31	227-mashq	„Agar men sehrgar bo‘lsam” mavzusida hikoya yozing. Bog‘lovchilardan foydalaning. Shart bog‘lovchilarning tagiga chizing.
32	231-mashq	„Mustaqillik va Navro‘z” mavzusida matn tuzing. Matningizda yuklamalardan foydalaning.
33	235-mashq	Rasmga qarab, „Yosh bog‘bonlar” mavzusida matn tuzing. Unda -u, (-yu), -da, na... na yordamchilari ham yuklama, ham bog‘lovchi vazifasida kelsin.
34	247-mashq	„Mustaqillik va milliy urf-odatlar” mavzusida matn tuzing. Unda kuchaytiruv-ta’kid yuklaamalaridan ham foydalaning. Ularning imlosiga e’tibor bering.
35	267-mashq	Rasmga qarab, „Hayvonot bog‘ida” mavzusida undovlar ishtirokida bog‘li matn tuzing. Undovlarni izohlang.
36	271-mashq	„Bolalar bog‘ida” sarlavhali hikoya tuzing. Hikoyangizda taqlid so‘zlardan foydalaning. Ularning tagiga chizib, ma’no turini ayting.
37	283-mashq	„Mustaqillik – millat ravnaqi” mavzusida mant tuzing. Modal so‘zlardan ham foydalaning.
38	294-mashq	Quyidagi bayt asosida matn tuzing. Unda ishlatilgan olmoshlaringizga izoh bering.
39	300-mashq	,Ajdodlarimiz ruhi hamisha bizga yor” mavzusida matn tuzing. Unda ishlatilgan egalik qo‘sishchalarini izohlang.

Jadvaldan ko‘rinadiki, 7-sinf o‘quvchilar yil davomida uygaz vazifa sifatida 39 ta matn yaratishi kerak. Tanlangan mavzular o‘quvchilar yoshiga mos keladi. Shu yoshdagi o‘quvchilar qiziqishlariga muvofiq tanlangan. Muhimi, ma’naviy-ma’rifiy qadr-qimmatga ega. Rasm asosida yaratiladigan ayrim matnlar uchun tayanch so‘zlar tavsiya qilingan. Biroq o‘quvchilarni matn yaratishga tayyorlash, matn tuzish qonun-qoidalari bilan tanishtirishga doir ko‘rsatmalar aks etmagan. Bu ta’lim natijasini kafolatlashga to‘siq bo‘ladi.

Yaratiladigan matnning talab darajasida bo‘lishi topshiriqni bajarishga o‘quvchini bosqichma-bosqich tayyorlab borishga bog‘liq. Shuning uchun ham uygaz vazifa uchun yozma matn yaratish topshiriqlarining muayyan miqdorini saqlab qolish, ularning bajarilishi uchun metodikada sinalgan **tayyor matnlar ustida ishlash (matnni kengaytirish, matnni ixchamlash) usulini qo’llash kutilgan natijani berishi mumkin.**

Uygaz vazifalarning sifatli bajarilishi yana bir masalaga bog‘lanadi. Aksariyat o‘quvchilar darslikdagi “Bilib oling”, “Esda tuting” kabi ruknlar ostida berilgan mavzuga aloqador ta’riflarning mag‘zini chaqishga qiynalishadi. Ko‘pgina hollarda ta’riflarga mos misollarning berilmasligi o‘quvchilarning mavzuni tez va

osonlik bilan, ko‘p vaqt sarflamay tushunishlariga monelik qilmoqda. O‘quvchi ana shu ta’riflar uchun dars paytida o‘qituvchi tomonidan keltirilgan misollarni unutib qolsa, uyga vazifa bajarishda kattalarga murojaat qiladi, o‘zidan kattalar – opa-akalari, ota-onalar ham esa zarur misollar bo‘lmaganligidan qiyin vaziyatga tushadi. O‘qituvchining misollar bilan bergan izoh va tushuntirishlari o‘quvchining xotirasida yetarli darajada muhrlanib qolavermasligini ta’kidlab o‘tirishning hojati yo‘q.

**Ona tili darsliklariga qo‘srimcha ravishda rus, ingliz tillarida bo‘lgani kabi “Mashq daftari” yaratish, ulardan o‘rin olgan mashqlar uchun, nazarimizda, xuddi matematikadan misol va masalalar uchun javoblar berilganidek, javoblarni ilova sifatida keltirish zamonaviy pedagogika talablariga muvofiq bo‘lar edi.**

Bunday fikrga kelishimizning bir necha sabablari bor. Bular quyidagilardir:

1. Uyga beriladigan vazifalarni bajarishda qiyinchiliklarning yuzaga kelishi.
2. Ayrim o‘qituvchilarining endi o‘z mehnat faoliyatlarini boshlayotganligi yoki tajribasizligi tufayli mashqlarning bajarilishi kutilgan natijani bermayotganligi kuzatilmoqda. Ayrim hollarda esa mashq va topshiriqlarning shartiga ko‘ra aniqlanishi lozim bo‘lgan lingvistik hodisa haqida yetarli bilimga ega bo‘lmaslik yoki o‘xhash hodisa, birliklarni chalkashtirish tufayli ayrim mashqlar bajarilmasdan qoladi. Shuning uchun ham mashq va topshiriqlar bajarilishi uchun namuna hamda javoblar berilishi lozim deb hisoblaymiz.
3. Ma’lumki, jamiyatdagi barcha sohalarda bo‘lgani kabi ta’lim sohasi ham kompyuterlashtirilmoqda. Ta’lim jarayoniga elektron darsliklar tatbiq qilinmoqda. Ona tili darslari amaliy yo‘nalishdadir. Amaliy mashg‘ulotlarda elektron darslik ta’lim oluvchiga mashg‘ulot mavzusi, maqsadi va o‘tkazilish tartibi haqida ma’lumot yetkazishi; javobning to‘g‘riliqi yoki noto‘g‘riliqi haqida axborot berishi; har bir ta’lim oluvchining bilimini nazorat qilishi; topshiriqlarning zaruriy nazariy materiali va bajarish uslubini ko‘rsatishi; «pedagog – darslik – ta’lim

oluvchi» tartibotida teskari aloqani amalga oshirishi kerak<sup>25</sup>. Aslida chop etilgan bosma darsliklarda ham mashq va topshiriqlar bajarilishi yakunida ta’lim oluvchining bilim, malaka va ko‘nikmalarini o‘z vaqtida adolatli baholash nazarda tutilsa, ayni muddao bo‘lar edi.

Demak, darsliklardan o‘rin olgan har qanday mashq va topshiriqlarni kam vaqt sarflab bajarish va to‘g‘ri javobini tekshirish imkoniyati bo‘lishi taqozo qilinmoqda.

2. Ona tili darsliklarida mavzularning aniq hisobli ekanligi, darslarga taqsimlanganligi, mashqlarning ketma-ketlikda berilganligi bizga qulaylik tug‘diradi. Javob tayyorlanishi zarur bo‘lgan mashq raqamini ko‘rsatib o‘tish kifoya qiladi. Javob mashq shartiga mos keltiriladi.

Ona tili ta’limi uchun xorijiy tillarni o‘rgatishda qo‘llanilayotgan har xil mashq va topshiriqlar turlaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Ingliz tilini o‘qitish amaliyotida foyadalanilayotgan “WORKBOOK”, rus tilini o‘qitishda qo‘llanilayotgan “Рабочая тетрадь” kitobiga o‘xshash uyda bajariladigan mashq va topshiriqlar uchun maxsus risola yaratilsa, o‘quvchi nuql darslikdan materialni qayta yozib chiqish o‘rniga 25-30 daqiqa davomida o‘rganilgan mavzu doirasidagi o‘yin texnologiyalari, jadvallar, sxemalar, rasmlar bilan bezatilgan har xil topshiriqlarni bajarishi mumkin.

Biz ona tili bo‘yicha *kompetensiyalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan majburiy ta’limning Davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturi loyihalari, ta’lim metod va usullari tajriba-sinovdan o‘tayotgan jarayonda* uygaz vazifa masalasiga ham e’tibor qaratishni lozim deb hisoblaymiz.

Nukus davlat pedagogika instituti o‘zbek tili kafedrasi qoshida tashkil etilgan “Yosh metodist” to‘garagi a’zolari: o‘zbek tili va adabiyoti magistratura mutaxassisligi magistrleri, bakalavr ta’lim yo‘nalishi talabalaridan bir guruhi uygazifalar uchun yangicha mashq va topshiriqlarni tayyorlab Qoraqalpog‘iston Respublikasi Xo‘jayli tumanidagi 62-son umumta’lim maktabida tajriba-sinovdan o‘tkazmoqdalar. Eksperimentator o‘qituvchilar va o‘quvchilar **Ispring** va

**MytestX, Hotpotatoes** dasturlarida tayyorlangan uygaga vazifa topshiriqlarini ijobiy baholamoqdalar. Tajriba-sinov davomida topshiriqlarning yutuq va kamchiliklari tahlil qilinib, ular takomillashtirilmoqda. Tahlillar olib borilayotgan tadqiqot farazlarining to‘g‘ri ekanligini dalillamoqda.

Namuna keltiramiz:

### 7-sinf. 66-dars. Sabab bog‘lovchilar.


**1-Topshiriq. Quyida berilgan bog‘lovchilardan sabab bog‘lovchilarini topib tagiga chizing va mosini qo‘ying.**

*Chunki, agar, mabodo, negaki, basharti,  
nega desang, zeroki*

1. Chaqimchilik yomon illatdir, \_\_\_\_\_ u tufayli odamlar o‘rtasi buziladi. (O‘TIT)
2. Maslahatga hammasi chaqqon, \_\_\_\_\_, maslahatgo‘ylik oson narsa: til qimirlaydi, xolos. (Oybek)
3. Ertaga bizning o‘rnimizga keladigan yoshlar ana shu tarix haqiqati bilan qurollanishi lozim. \_\_\_\_\_ hech bir sohada hech kimdan kam bo‘lmaydigan avlodgina buyuk davlat barpo etishi mumkin. (I. Karimov)
4. Oyna opa xatni oxirigacha o‘qiy olmadi, \_\_\_\_\_ hovlining eshigini kimir taqillata boshladi. (Sh. Xolmirzayev)

### 2-topshiriq. Shakllarni to‘ldiring.

- A) Ergashtiruvchi bog‘lovchilarni yozib chiqing.      B) Bo‘sh o‘rnlarga sabab bog‘lovchilarini yozib chiqing.



### **3-topshiriq. Testni yeching. To‘g‘ri javobni doiraga oling.**

1. Quyidagi jumlalardan qaysi biri sabab bog‘lovchilariga xos? 1) chunki, negaki bog‘lovchilari 2) yozuvda bu bog‘lovchilardan oldin vergul qo‘yiladi. 3) yozuvda bu bog‘lovchilardan keyin vergul qo‘yiladi 4) vergul ishlatilmaydi.  
A) 1 va 2 B) 1 va 3 D) 1, 2, 3 E) 1, 2, 3, 4
2. Berilgan gapda nuqtalar o‘rniga qaysi bog‘lovchi qo‘yiladi? Biroq Zavqiy Mo‘minboy bilan uzoq muddat ishlay olmadi, ... boy va uning ukalarini hajv qilganligi sababli vazifasidan ozod etiladi.  
A) agar B) chunki D) lekin E) bog‘lovchi qo‘yilmaydi
3. Berilgan gap tarkibidagi sabab bog‘lovchilarini aniqlang. Hamon shamol o‘kirar, osmonning goh u, goh bu burchida chaqmoq yaraqlab, yong‘oq shoxlari shubhali g‘iyqillar, ammo endi bular uni qo‘rqitolmas edi.  
A) goh....goh, ammo B) ammo D) goh....goh E) sabab bog‘lovchilari mavjud emas
4. Qiz elektr-payvandchilik kasbini qunt bilan o‘rgandi, negaki zavodda bu kasbga ehtiyoj katta edi. Ushbu gapda bog‘lovchining qaysi turi ishtirok etgan?  
A) aniqlov bog‘lovchisi B) sabab bog‘lovchisi D) zidlov bog‘lovchisi E) mavjud emas
5. Gaplarni o‘zaro tobelantirib bog‘lovchi, ular o‘rtasidagi sabab ma’nosini ifodalovchi bog‘lovchi berilgan qatorni aniqlang. A) chunki B) negaki D) A va B E) ammo, lekin, biroq

### **7-sinf. 67-68-darslar. Aniqlov va shart bog‘lovchilar**


### **1-topshiriq. Ajratilgan o‘rnlarga shart bog‘lovchilaridan mosini qo‘ying.**

<b>1</b>	<b>2</b>
<p>Sen _____ zohir etting itlikni,          Man sanga ko‘rguzay yigitlikni.          _____ Nu‘monga ko‘p yetishti          nahib,          Lek to‘fondin o‘lmadi osiyb.</p>	<p>Ikkisi _____ erdilar cholok.          Bir-biridin alarg‘a yo‘q edi bok.          _____ qosid bitikni yetkurdi,          Shoh Navdar qo‘lig‘a topshurdi.</p>

(“Sab’ai sayyor”dan)

## 2-topshiriq. Boshqotirmani yeching.

### Eniga (Across):



- O'zaro tobe munosabatda bo'lgan gap  
**1** bo'lagi va gaplarni bog'lash uchun  
 ishlataladigan bog'lovchilar  
**5** Ya'ni bog'lovchisi mansub bo'lgan bog'lovchi  
 turi  
 O'zaro bog'lanayotgan bo'lak yoki  
**6** gaplardan birini boshqasidan ayirib  
 ko'rsatuvchi bog'lovchi turi  
**8** yo... yo, dam... dam, goh... goh  
 bog'lovchilari doim shunday qo'llanadi  
**9** Agarda, basharti, garchi singari  
 bog'lovchilari shu turga mansub  
**10** chunki, negaki bog'lovchilari shu guruhga  
 mansub bo'ladi  
 O'zaro zidlash munosabatida bo'lgan  
**12** uyushiq bo'laklar yoki gaplarni bir-biriga  
 bog'lab keluvchi bog'lovchilar  
 Uyushiq bo'lak va gaplarni inkor ma'nosini  
**13** yuklagan holda bog'laydigan yordamchi  
 so'zlar

### Bo'yiga (Down):

- Faqat bog'lovchi vazifasini bajaruvchi  
**2** yordamchi so'zlar  
 Uyushiq bo'laklar va o'zaro teng  
**3** munosabatdagi gaplarni bog'lab keluvchi  
 bog'lovchilar  
 Bir o'rinda bog'lovchi, boshqa o'rinda  
**4** ko'makchi, yuklama yoki modal so'z  
 vazifasida keluvchi yordamchilar  
**7** va, lekin, ammo, chunki bog'lovchilari doim  
 shunday qo'llanadi  
**11** Uyushiq bo'laklarni va uyushiq gaplarni  
 o'zaro biriktirib keluvchi bog'lovchilar

### 3-TOPSHIRIQ. Testni yeching. To‘g‘ri javobni doiraga oling.

1. Aniqlov bog‘lovchisi berilgan qatorni toping  
A) ya’ni B) negaki C) chunki D) shuning uchun
2. Quyidagi berilgan gapda bog‘lovchining qaysi turi ishtirok etgan? U ilonni aldagani uchun, ya’ni dunyodagi eng tansiq taom insonniki emas, qurbaqanining go‘shti ekanini aytgani uchun ta’qibga uchragan emish.  
A) shart bog‘lovchisi B) aniqlov bog‘lovchisi C) zidlov bog‘lovchisi D) to‘g‘ri javob yo‘q
3. Berilgan so‘zlar ichidan faqat shart bog‘lovchilarini belgilang. 1) hamda 2) biroq 3) va 4) yo....yo 5) garchi 6) chunki 7) ammo 8) ham 9) dam...dam 10) lekin 11) agar 12) ya’ni 13) basharti 14) yoki 15) agarda  
A) 1, 2, 5, 7, 15 B) 5, 10, 11, 13, 15 C) 1, 2, 6, 8, 12, 15 D) 5, 11, 13, 15
4. Nuqtalar o‘rniga bog‘lovchilardan mosini qo‘ying. ...ularning oldida suket saqlab o‘tirsang, go‘yo bu gullar uyqudan uyg‘onib allanimalar haqida shivirlayotgandek tuyuladi.  
A) agarda B) chunki C) basharti D) go‘yo
5. Aniqlov bog‘lovchisi takror holda qo‘llanishi mumkinmi?  
A) yo‘q, faqat yakka qo‘llanadi B) ba’zida takror holda qo‘llanishi mumkin  
C) faqat takror holda qo‘llanadi D) to‘g‘ri javob yo‘q.

### 7-sinf. 70-dars. Yuklamalar

**2-topshiriq. Quyidagi chaynvorrdan yuklama turkumiga mansub 10 ta so‘z toping.**

A	X	I	R	A	B	X	U	S	S	Y
K	K	N	H	N	Ch	M	D	D	U	H
J	N	S	O	A	X	J	D	A	V	A
H	A	T	Q	H	U	I	I	S	L	M
L	P	T	O	O	S	F	V	E	A	L
H	E	Ch	Q	T	I	A	Q	A	T	P
Z	R	Y	U	K	R	B	N	K	T	L
N	A	Q	B	I	A	G	O‘	Y	O	N

Ham,

---



---



---



---



---

**1-topshiriq. Berilgan rasm asosida quyidagi chizmaga mos ravishda ijodiy matn yarating.**



**“Shum bola”**

**-a?**

**mi? -chi**

**faqat xuddi**

**hatto**

**go‘yo -yu**

**-da**

**sira**

**dir**

### **3-TOPSHIRIQ. Testni yeching. To‘g‘ri javobni doiraga oling.**

1. Yuklamalar gap va so‘zlarga qanday ma’no yuklaydi?  
A) so‘roq, ayirish-chegegaralash B) gumon, o‘xshatish D) inkor, ta’kid E)barcha javob to‘g‘ri
2. Yuklamalar berilgan qatorni belgilang.  
A) axir, hatto, faqat, ba’zan, -u B) -mi, -chi, -a, -ya, -dir, g‘irt  
D) go‘yo, go‘yoki, hech, sira, ust E) barcha javob to‘g‘ri
3. Qarshiligi ko‘rinib turibdi-ku, bu qarshilik emasmi? Ushbu gapda nechta o‘rinda yuklama ishlatilgan?  
A) faqat bitta B)ikki o‘rinda D)yuklama ishlatilmagan E)uchta o‘rinda
4. Yuklamalarga xos xususiyatlarni belgilang. 1) O‘zi qo‘shilayotgan so‘zning ma’nosini ayirib-chegegaralab keladi. 2) Gap mazmuniga taajjub ma’nosini yuklaydi  
3) Gapning faqat ma’lum bir bo‘lagini kuchaytiradi. 4) So‘z va gapga o‘xshatish-qiyoslash ma’nosini yuklaydi.  
A)1, 2, 4 B)1, 2, 3 D) 1, 2, 3, 4 E) 1 va 4
5. Quyida berilgan she’r tarkibidagi yuklamalar miqdorini aniqlang.  
Hatto it urishsa zirqirar qalbim,  
Odam odam payin qirqmoq bo‘lsa-chi?

So‘zsiz qichqiraman nega tug‘ildim,  
Quloqlarim batang bo‘lib qolsa-chi?  
A) bitta B) ikkita D) uchta E) yuklama mavjud emas

Shu tariqa aniq mashq sharti va bajarish namunasi, shuningdek, mavzu yuzasidan nazorat testlari taqdim qilingan “Ish daftari” o‘quvchi va o‘qituvchilarning yaqin yordamchishiga aylanishi mumkin. Tajriba-sinovlarda ishtirok etgan o‘qituvchi va o‘quvchilar anketa savollariga bergan ijobiy javoblari fikrimizni dalillaydi.

#### **Anketa savollari:**

1. Topshiriqlar sizga yoqdimi? Nima uchun? \_\_\_\_\_
2. Qaysi topshiriq yoqmadi? Nima uchun? \_\_\_\_\_
3. Topshiriqlarni bajarishga necha daqiqa sarfladingiz? \_\_\_\_\_
4. Shunday topshiriqlarni uyga vazifa sifatida bajarishda davom etishingizni xohlaysizmi yoki darsligingizda ko‘rsatilganidek “Matn yaratish”ga oid topshiriqlarni ma’qul ko‘rasizmi? \_\_\_\_\_

Ona tili ta’limiga xorijiy tajribalarni, til o‘qitishning innovatsion texnologiyalarini o‘rinli tatbiq qilish ta’lim sifatini ko‘tarishga, ona tili ta’limidan ko‘zlangan maqsad-vazifalarga erishish imkoniyatlarini oshirishga va, nihoyat, uning mavqeyini ko‘tarishga yordam berishi shubhasiz.

### **2.3. Ona tili darslarida loyiha texnologiyalari: topshiriqlar turlari**

Loyihalash texnologiyasi jahon pedagogikasida yangilik hisoblanmaydi, chunki, u 1920- yillarda amerikalik faylasuf va pedagog J.Dyu va uning shogirdi V.X. Kilpatrick tomonidan ishlab chiqilgan loyihalash metodi asosida vujudga kelgan. Loyerha metodining maqsadi shunday belgilanganki, turli fanlar integratsiyasi vositasida amaliy topshiriq yoki muammoni yechish jarayonida o‘quvchilarning mustaqil bilim olishlari taqozo qilingan.

J. Dyu o‘qitishni o‘quvchilarning qiziqishi va ehtiyojini hisobga olgan holda o‘quvchilarning muayyan maqsadga yo‘naltirilgan faoliyatini faollashtirish orqali tashkil etishni taklif etgan. Buning uchun o‘quvchilarga o‘zlashtirgan bilim,

ko‘nikma va malakalarini amaliyotga qo‘llash, ulardan kelgusi hayotda foydalanish yo‘llarini ko‘rsatish, ya’ni nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog‘liq holda o‘qitish lozimligini uqtirgan. Bu jarayonda o‘quvchilar tanish vaziyatdagi ahamiyatga molik muammolarni avval o‘zlashtirgan bilim, ko‘nikmalarini amaliyotga qo‘llab hal etish orqali yangi bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtiradilar. O‘qituvchi esa koordinator, ekspert, qo‘sishimcha axborot manbasi vazifasini bajargan.

Rus pedagoglari K.N.Polivanova, E.S.Polat, M.Y.Buxarkina, M.V.Moiseeva, A.E.Petrov, N.M.Koptyug, M.E.Lukyanchikova, G.E.Mamukina, E.D.Paxmutova, O.A.Pobakova, A.A.Nemchenko, D.Ruskova. Y.Paxomova, N.Kocheturovalar tomonidan loyihali ta’limni amalga oshirish metodikasiga bag‘ishlangan tadqiqotlar o‘tkazilgan va ular tomonidan loyihali ta’limning tuzilishi, bosqichlari, turlari, samaraliligi yoritib berilgan<sup>26</sup>.

O‘zbekistonda loyihali ta’lim metodi bo‘yicha 2005-yillardan buyon tadqiqotlar olib borilmoqda. R.Jo‘rayev, A.Zunnunov, B.Farberman, N.Sayidaxmedov, R.Ishmuxammedov, A.Abduqodirov, A.Pardayev, U.Tolipov, L.V.Golish, D.Fayzullayeva, M.Usmonboyeva, Sh.E.Toshturovlarning zamonaviy va innovatsion ta’lim texnologiyalari asoslariga bag‘ishlangan ishlarida loyihali ta’limning o‘ziga xosligi yoritib berilgan<sup>27</sup>.

<sup>26</sup> Новые педагогические и информационные технологии в системе образования: Учебное пособие / Е.С. Полат, М.Ю. Бухаркина, М.В. Моисеева, А.Е. Петров; под ред. Е.С. Полат. - М.: Издательский центр "Академия", 1999.; Полат Е.С. Метод проектов на уроках иностранного языка // Иностранные языки в школе. 2000. № 2, 3.; Коптюг Н.М. Интернет-проект как дополнительный источник мотивации учащихся // Иностранные языки в школе. - 2003. - №3.; Лукьянчикова М.Е. Опыт литературного e-mail проекта // Иностранные языки в школе. - 2003 - № 1.; Мамукина Г.Е. Создание мультимедийного проекта на немецком языке в средней школе // Иностранные языки в школе. - №4. - 2001.; Пахмутова Е.Д. E-mail-проект как средство межкультурного обучения немецкому языку в сети Интернет // Материалы всероссийской конференции "Интернет. Общество. Личность". - СПб, 2000. <http://iol.spb.osi.ru>; Побокова О.А.. Немченко А.А. Новые технологии в обучении языку: проектная работа // Новые возможности общения: достижения лингвистики, технологий и методики преподавания языков. - Иркутск, 2003.; Рускова Д. Использование проектного метода при обучении русскому языку с целью соединения учебы с практикой и повышения мотивации учащихся // Русское слово в мировой культуре. Материалы X конгресса МАПРЯЛ. Направление IV. Методика преподавания русского языка: традиции и перспективы. - СПб., 2003.: Поливанова К. // Проектная деятельность школьников : пособие для учителя. М.: Просвещение, 2011.; Кочетурова Н. Метод проектов в обучении языку: теория и практика.мастер-класс. Новосибирский государственный технический университет. 2017.

<sup>27</sup> Р. Жўраев, А.Зуннунов. Таълим жараёнида ўқув фанларини интеграциялаш. – Т., Шарқ, 2005; Yo’ldoshev J.G., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslar. – Т.: “O‘qituvchi”, 2004.; Saidaxmedov N.S. Pedagogik amaliyotda yangi pedagogik texnologiyalarni qo‘llash namunalari. – Т.: RTM, 2000. – 46 b.; Фарберман Б.Л., Мусина Р.Г. и др. Инструменты развития критического мышления. – Т.: Минвуз, 2002.; Р.Ишмухamedов, А.Абдуқодиров, А.Пардаев. Таълимда инновацион технологиялар. – Т., 2008; Ў.Толипов, М.Усмонбоева. Педагогик технологияларнинг татбиқий асослари. – Т., 2006.; О’.Толипов, S.Boltaboev. Pedagogik texnologiya va uni loyihalash bosqichlari. // DTS ishlab chiqish va tadbiq etish hamda kasbiy ta’limda

Bu texnologiyani amalga oshirishda o‘quvchilar muammolarni muvaffaqiyatli hal etishlari uchun o‘qituvchi ularga tegishli ko‘rsatmalar berishi, foydalaniladigan manbalarni tavsiya etishi, o‘qitishdan ko‘zlangan natijaga erishish yo‘llarini ko‘rsatishi, buning uchun muammoni hal etishda o‘quvchilarning faoliyatini loyihalashi lozim. Loyihalash texnologiyasining asosiy g‘oyasi amaliy yoki nazariy ahamiyatga molik bo‘lgan muammoni hal etish jarayonida ko‘zlangan natijaga erishishdir. Loyihalash texnologiyasining asosiy mohiyati o‘rganilayotgan mavzuning mazmuniga bog‘liq holda ma’lum bir muammoli vaziyatni vujudga keltirish orqali o‘quvchilarning qiziqishlarini orttirish, loyihalash faoliyatini shakllantirish, ularning tegishli bilimlarni egallashlari, bilimlarni o‘zlashtirish jarayonida fanlararo bog‘lanishlarni amalga oshirish sanaladi. Loyihalash texnologiyasining asosiy tezisi: **“O‘rganilayotgan bilim, ko‘nikmalar menga nima uchun zarurligi va undan qayerda va qay tarzda foydalanishni bilaman»** sanaladi.

Bu tezis o‘quvchilarning fan asoslarini ongli o‘zlashtirishlari, hayotga moslashishlari va mo‘ljalni to‘g‘ri olishlariga yordam beradi. Til o‘qitishda o‘qituvchi loyihalash texnologiyasidan o‘quvchilarning qiziqishi va qobiliyatlarini hisobga olgan holda nafaqat darsda o‘quv muammolarini hal etishda, balki darsdan va sinfdan tashqari ishlarda ijodiy muammolarni hal etishda foydalanishi zarur. Har bir loyiha o‘ziga xos xususiyatga ega bo‘ladi, shu sababli ular ma’lum belgilariga ko‘ra quyidagicha tasniflanadi: Til o‘qitishda foydalaniladigan loyihalarda ko‘zda tutilgan faoliyatning ustunligiga ko‘ra loyihalar quyidagi yo‘nalishlarda olib borilishi mumkin:

- tadqiqot xarakteridagi loyihalar;
- ijodiy xarakteridagi loyihalar;
- rolli loyihalar;
- amaliy xarakteridagi loyihalar;
- **izlanish va mo‘jal olishga mo‘ljallangan loyihalar.**

---

uzviylikni ta’minlash muammolari Respublika ilmiy-amaliy anjuman: Tezis.; Golish L.V., Fayzullaeva D.M. Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish: O‘quv uslubiy qo’llanma. Innovatsion ta’lim texnologiyasi seriyasi. – T.: “Iqtisodiyot” 2012.; Sh.E.Toshturov. “Tarix o‘qitish jarayonini loyihalash” fanidan amaliy mashg’ulotlar. – Navoiy. 2015.

Loyiha metodi XX asrning 80-yillaridan til ta’limida faol qo‘llanila boshlangan. Ana shu vaqtdan boshlab AQSH va Yevropaning taniqli nashriyotlari chet tillarni o‘qitish jarayonida loyiha metodidan foydalanish bo‘yicha metodik qo‘llanmalarni nashr qilib kelmoqdalar.

O‘qituvchilar uchun eng mashhur resurs – D. L. Fried-Booth "Project Work" (OUP, 1986), qayta nashrga tayyorlanishi kutilmoqda<sup>28</sup>.

Loyiha metodidan ona tili fani o‘qituvchisi o‘quv mashg‘uloti jarayonida mavjud tajribani o‘zlashtirish va ta’limning barcha bosqichlarida qo‘llashdek muhim vazifa turadi. Loyihalash — oldindagi faoliyat modelini tuzish, mavjud sharoitlarda o‘rnatilgan vaqt mobaynida yo‘l va vositalarni tanlash uchun, maqsadga erishish bosqichlarini ajratish, ular uchun alohida vazifalarni shakllantirish, o‘quv axborotini etkazish vositasi va yo‘llarini aniqlash usulidir. Til ta’limini loyihalar usuli bilim va malakalarni amaliy qo‘llash, tahlil va baholashni nazarda tutuvchi majmuali o‘qitish usulini amalga oshiradi. Ta’lim oluvchilar yuqori darajada, boshqa o‘qitish usullaridan foydalanishga qaraganda, rejulashtirishda, tashkillashtirishda, nazoratda, tahlil qilish va vazifani bajarish natijalarini baholashda ishtirok etadilar. O‘quv loyihalar usuli ta’lim beruvchining ta’lim oluvchilarga muammoni, faraz, vazifalarni ifodalashda yordam beradi va tezkor boshqaradi. Loyihalarda o‘qitish nafaqat natijalar, balki jarayonning o‘zi ham qimmatlidir. Loyiha fanlararo yoki bir fan doirasida bo‘lishi mumkin. Loyihalash ikki usulda – yakka ish va guruh ishi tarzida amalga oshiriladi. Har ikki usulning ijobiy va afzal jihatlari mavjud. Ona tili fanini loyihalash ta’limning sifati va samaradorligini oshiradi, o‘quvchilar loyiha ustida ishlashda loyiha rejasidagi asosida aniq maqsad uchun faoliyatlarini amalga oshiriladi.

Loyihaning barcha bosqichlarini bajarish jarayonida fikrning tug‘ilishidan to‘g‘ishiga qadar o‘quvchilar tajriba orttiradilar; o‘quvchilarda eng muhim o‘quv ko‘nikma va malakalari (tadqiqotchilik, baholash, mustaqil fikrlash, mustaqil qarorlar chiqarish, taqdimot qilish) shakllantirish to‘la boshqariladigan

---

<sup>28</sup> Кочетурова Н. Метод проектов в обучении языку: теория и практика. мастер-класс. Новосибирский государственный технический университет. 2017.

jarayonga aylanadi. Til o‘qitishda foydalaniladigan o‘quv loyihasi quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

**1. Tayyorgarlik bosqichi.** Bu bosqichda o‘qituvchi o‘quvchilarda mavzu muammolarini o‘rganishga nisbatan kuchli motivastiyani vujudga keltirish yo‘llarini belgilashi, qiziqarli analogiyalardan foydalanish, mavzu yuzasidan vujudga keltirish mumkin bo‘lgan o‘quv xarakteridagi muammoli vaziyatlarni aniqlash, loyihaning maqsadini belgilash va aniq topshiriqlar belgilash ishlarini amalga oshiradi.

**2. O‘quv loyihasini bajarishda o‘quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etish bosqichi.** O‘quvchilarning kichik guruhlarini shakllantirish, har bir kichik guruh tomonidan loyihalashga doir umumiy rejani ishlab chiqish, faoliyatni amalga oshirishning aniq rejasini tuzish, tanlab olingan nuqtayi nazar bilan bog‘liqlikda topshiriqlarni bajarishga yo‘llashni o‘z ichiga oladi.

**3. O‘quvchilar tomonidan muammoning mohiyatini anglash bosqichi.** Tadqiq etish, ma’lumotlarni to‘plash va qayta ishlash, o‘quv farazlarini ilgari surish, olingan natijalarini sinovdan o‘tkazish, natijalarini grafik yoki Klaster ko‘rinishida taqdim etish, hujjatlarni rasmiylashtirish kabilarni mujassamlashtiradi.

**4. Tahlil bosqichi** rejalahtirilgan ishlarni amalga oshirish sifatini aniqlash, olingan natijalarini taqqoslash, umumlashtirish va xulosa yasashdan iborat.

**5. Loyiha natijalarini nazorat qilish va baholash bosqichida** o‘qituvchi har bir guruh ishini tahlil qiladi, ularda uchragan tipik xatoliklarga barham berish, yo‘l qo‘yilgan xatolarni tahlil etish, xatolarni to‘g‘rilash yo‘llarini izlash, muayyan hollarda loyihaga o‘zgartirishlar kiritish bo‘yicha tavsiyalar beradi.

**6. Yakuniy bosqichda** o‘quvchilarning kichik guruhlari o‘quv loyihasini amalga oshirish yuzasidan amalga oshirilgan ish mazmuni bilan tanishtirish, xulosalarni asoslash, loyiha himoyasi bo‘yicha taqdimoti amalga oshiriladi.

Bu toifadagi loyihalardan darsda va darsdan tashqari mashg‘ulotlarda foydalanish mumkin. Bular jumlasiga “**Ism-familiyalarning to‘g‘ri yozilishi kimga yoki nimaga bog‘liq?**”, “**Ariza qanday yoziladi?**”, “**Tarjimayi hol yozishni bilamizmi?**”, “**Nima uchun inshodan baholarim past?**”, “**Nima uchun**

**ingliz tilini yaxshi o‘rganyapman-u, “Ona tili”ni o‘rganish mashaqqat?”** kabi mavzulardagi loyihalarni bajarish mumkin.

7-sinfda kichik loyihalarni quyidagi mavzularda bajarish mumkin:

“Shuncha, shunday, buncha, bunday: olmoshmi yoki ravish?”

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da ko‘makchilarning ifodalanishi”

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da bog‘lovchilarning ifodalanishi”

“Xo‘sh” so‘zining ma’nolari”

“E va a: nega ba’zan chiziqchali, ba’zan chiziqchasiz yozamiz?”

“-gina, -kina, -qina: ular nechta?”

Ona tili fanini loyihalash ta’limning sifati va samaradorligini oshiradi, o‘quvchilar loyiha ustida ishlashda loyiha rejasi asosida aniq maqsad uchun faoliyatlarini amalga oshiradilar. O‘quvchilarda loyihaning bajarilishi o‘zining faoliyatiga bog‘liq ekanligini anglash yuqori mas’uliyat hissini yuzaga keltiradi. Loyiha asosida o‘qitish har bir o‘quvchida o‘ziga bo‘lgan ishonchning o‘sishiga yordam berishi, o‘quvchi **o‘zini** kerakligini, omadli ekanligini va turli muammoli vaziyatlarni bartaraf qila olish qobilyatiga ega ekanligini his qilishiga yordam berishi mumkinligi umumta’lim maktablarida o‘qitiladigan aniq, tabiiy fanlar misolida isbotlanmoqda. Biroq ona tili darslarida loyihali ta’limni amalga oshirish borasida vaqtli matbuotda, ilmiy-nazariy nashrlarda metodik ko‘rsatmalar yetarli bo‘lmayapti. Bu holat esa ana shu texnologiyani samarali tashkil qilish bo‘yicha izlanishlarni kechiktirmasdan olib borish zarurligini ko‘rsatib turibdi.

### **Bob bo‘yicha xulosalar**

Kuzatishlar, tahlillar shuni dalilladiki, 7-sinf o‘quvchilari yil davomida uyga vazifa sifatida 39 ta matn yaratishi kerak. Tanlangan mavzular o‘quvchilar yoshiga mos keladi. Shu yoshdagi o‘quvchilar qiziqishlariga muvofiq tanlangan. Muhimi ma’naviy-ma’rifiy qadr-qimmatga ega. Rasm asosida yaratiladigan ayrim matnlar uchun tayanch so‘zlar tavsiya qilingan. Biroq o‘quvchilarni matn yaratishga tayyorlash, matn tuzish qonun-qoidalari bilan tanishtirishga doir ko‘rsatmalar aks

etmagan. Quyi sinflar uchun chop qilingan “Ona tili” darsliklarida ham bunday ko‘rsatmalarni yeterli deb bo‘lmaydi. Bu ta’lim natijasini kafolatlashga to‘siq bo‘ladi. Yaratiladigan matnning talab darajasida bo‘lishi topshiriqni bajarishga o‘quvchini bosqichma-bosqich tayyorlab borishga bog‘liq. Shuning uchun ham uyga vazifa uchun yozma matn yaratish topshiriqlarining muayyan miqdorini saqlab qolish, ularning bajarilishi uchun metodikada sinalgan **tayyor matnlar ustida ishslash (matnni kengaytirish, matnni ixchamlash) usulini qo‘llash kutilgan natijani berishi mumkin.**

Uyga vazifalarning sifatli bajarilishi yana bir masalaga bog‘lanadiki, bu darslikda “Bilib oling”, “Esda tuting” kabi ruknlar ostida berilgan mavzuga aloqador ta’riflarda mos misollarning berilmasligidir. O‘qituvchining misollar bilan bergen izoh va tushuntirishlari o‘quvchining xotirasida yetarli darajada muhrlanib qolavermasligini inkor qilib bo‘lmaydi. **Demak, mashqlardan kutiladigan natija nazariy ma’lumotlar uzviy bog‘lanmoqda.**

Mashq va topshiriqlarda zaruriy nazariy material va bajarish uslubini ko‘rsatish; mashq va topshiriqlarni kam vaqt sarflab bajarish va to‘g‘ri javobini tekshirish imkoniyatini yaratish, chet tillarni o‘qitishda qo‘llanilayotgan mashq turlari hisobiga mashqlarni rang-barang qilish zamonaviy talablardan biridir.

Ona tilidan topshiriqlar yaratishda loyihali texnologiyalarga murojaat qilish, loyihalar uchun topshiriqlarni yaratishda o‘quvchining o‘rganilayotgan bilim, ko‘nikmalar nima uchun zarurligi va undan qayerda va qay tarzda foydalanishini anglay olishiga ahamiyat qaratish taqozo qilinadi.

## **UCHINCHI BOB. 7-SINF “ONA TILI” DARSЛИGI UCHUN “ISH KITOBI” YARATISH TEXNOLOGIYALARI**

### **3.1. Ona tili va xorijiy tajribalar**

Mamlakatimizda “Davlat tili haqida”gi Qonunimizda ko‘rsatilganidek, nafaqat o‘zbek tili, balki barcha tillarning rivojlanishi uchun imkoniyatlar yaratilganligini alohida e’tirof etish o‘rinli. O‘zbek tili taraqqiyoti haqida so‘z yuritganda esa, uning har bir davridagi rivojlanish xususiyatlari, ayniqsa, uning mustaqillik yillaridagi mavqeyi alohida qimmat kasb etadi. Binobarin, Vatanimiz mustaqilligi, ona tilimizga davlat tili maqomining berilishi o‘zbek tili taraqqiyotida yangi sahifa ochdi. Uning jamiyat hayotidagi xizmat va vazifalari nihoyat darajada o‘sdi. Til ichki qurilishida – leksik, morfologik, sintaktik sathlarda misli ko‘rilmagan yangiliklar paydo bo‘ldi. Grammatik hodisalarga ilmiy va odilona, o‘zbek tilining o‘z ichki qurilishi mohiyatidan kelib chiqib baho berilmoqda. Davlat tili haqidagi qonunning chiqishi prof. A.Nurmonov ta’kidlaganidek, **tilimizning rus tili doirasida siqilib, faqat ko‘cha-ko‘yda va oilada foydalaniladigan ikkinchi darajali bir tilga aylanib qolish xavfiga chek qo‘ydi.**

Mustaqillikni qo‘lga kiritgan mamlakatimizda ona tili ta’limini ham mazmun, ham mundarija jihatidan yangilash borasida jiddiy qadamlar tashlandi. Jumladan, «Ona tilidan Davlat ta’limi standartlari» tasdiqlandi, yangi yo‘nalishdagi «Ona tili» dasturi yaratildi. Bu hujjatlar 2010-yilda uzviylashtirildi.

Maktabni isloh qilish yo‘nalishlari va “Davlat til haqida”gi Qonun talablarini bajarish, xususan, ona tili ta’limiga yangicha munosabat muammosini hal qilish maqsadida “O‘zbek tili” doimiy anjumani ta’sis etildi. Uning birinchi yig“ini 1991-yil 12-13-aprelda Samarqandda o‘tkazilgan va har ikki yilda bir marta muntazam o‘tkazilib kelinmoqda. 2017- yilda Qoraqalpog‘iston Respublikasida o‘tkazilishi rejalashtirilgan.

Amerika olimlarning bilimlarni o‘zlashtirish borasidagi keyingi tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, bugungi kunda dunyoni bildirishi jihatidan **o‘qituvchi oila, axborot vositalari va muhitdan keyingi to‘rtinchi o‘ringa** tushib qolgan. Bundan bizning ta’lim tizimimiz ham mustasno emas.

Shuni alohida ta’kidlash o‘rinliki, xorijda tilshunoslik qanday sur’at bilan rivojlanayotgan bo‘lsa, tillarni o‘qitish borasidagi tadqiqotlarning doirasi va samarasi ham shunchalik yuqoridir. Aksincha, o‘zbek tili ilmiy-nazariy jihatdan keng tadqiq qilinayotgan bo‘lsa ham, uning amaliy yo‘naltirilishida yutuqlarimiz barmoq bilan sanarli. **Til o‘qitish metodikasini rivojlantirish, bunda xorij tajribalaridan o‘rinli foydalanish masalasi kun tartibida turibdi.**

Bugungi kunda ona tili darsliklari “Til – me’yor – nutq” me’zoni asosida yaratilmoqda. Unda maktabdagagi til ta’limini harakatga keltiruvchi uch omil – o‘qish madaniyati, uqish va matn yaratish madaniyati asos qilib olinadi. Darsliklarda ijodiy o‘quv topshiriqlariga, musobaqa shaklidagi o‘yinlarga, topishmoqlarga keng o‘rin berilgan. Lekin nazardan chetda qolayotgan bir masala borki, bu uy vazifasi masalasıdir. Yuqorida ta’kidlaganimizdek, ona tili samarasi o‘quvchining mustaqil matn yarata olishi bilan baholanishi tufayli darsliklarimizdan o‘rin olgan uygaga vazifa topshiriqlari asosan matn yaratishdan iborat bo‘lib qoldi. Aslida metodikada topshiriqlarning turlarini doimo almashtirib turishga alohida e’tibor berish kerak. Yana bir jihat borki, o‘quvchilar yaratgan matnlarni bir dars davomida (10-12 daqiqa) tahlil qilish imkoniyati cheklangan. Bu esa metodikada e’tirof etilgan **“topshiriqlar natijalarini hamisha tekshirish, o‘quvchining qo‘lga kiritgan har bir yutug‘ini rag‘batlantirish lozim. Bu o‘z navbatida o‘quvchi qiziqishlarining tobora ortib borishiga yo‘naltiradi”** degan ko‘rsatmaning amalga oshmayotganligini dalillaydi. Ana shu holat til ta’limi jarayoniga xorijiy texnologiyalarni tatbiq qilish zaruriyati nechog‘li muhim ekanligini ko‘rsatib turibdi. Yevropa va Osiyo mamlakatlarida til o‘qitish borasida to‘plangan tajribalarni tahlil qilish, saralash, samarador metodikani tatbiq qilish jarayoni jadallashtirishni taqozo qilmoqda.

<http://www.langmaster.com> saytidagi koreys tili o‘qitish vositalari bilan tanishishdan ma’lum bo‘ldiki, bu materiallar koreys tilini xorijiy til sifatida o‘rganish uchun mo‘ljallangan. Saytda koreys tilini o‘rganish uchun audiokurs va videokurslar taklif qilingan. Reklama sifatida taqdim qilingan ma’lumotga ko‘ra, o‘rganuvchi har bir jumla uchun elektron o‘qituvchi ovozini tinglaydi. Mikrofonda takrorlaydi va tez gapirishni o‘rgana boshlaydi. Yangi so‘zlarni o‘rganish uchun rasmlardan foydalanadi, ta’limiy o‘yinlarda, viktorinalarda ishtirok etadi. Izlash imkoniyatiga ega bo‘lgan koreyscha lug‘at o‘rganishni osonlashtiradi. Audiodasturlar juda katta qulaylikka ega. Chunki materiallarni bosmaga chiqarishning hojati bo‘lmaydi. Kompyuter talab qilinmaydi. Juda oddiy tarzda mp3 pleer ga, telefonlarga yuklab olib tinglovchi o‘ziga qulay joyda tinglashi, til o‘rganishi mumkin. Bu esa ona tili ta’limi jarayoni uchun audiodasturlar yaratish ham muhim ahamiyat kasb etishi mumkinligini ko‘rsatmoqda. Ona tili ta’limida xorijiy tillarni o‘qitish amaliyotida mavjud bo‘lgan ingliz tili ta’limidagi “Homebook”, “Workbook” (“Uyda ish kitoblari”), rus tilini o‘qitishda amalda bo‘lgan “Рабочая тетрадь” (“Ish daftari”), “Электронная тетрадь”lar qator afzalliklarga ega. Qayta ko‘chirib yozish talab qilinmaydigan reproduktiv va qisman izlanuvchanlikka asoslangan mashqlar kafolatli natijalarga erishish jarayonini jadallashtirishi mumkin. Ingliz tili ta’limida “True-false” (“To‘g‘ri-noto‘g‘ri”), Mini-TEST, “Moslikni aniqlash”, “Qiyoslash” mashqlari, algoritmga asoslangan mashqlar, shuningdek, grammatik tahlil turlari takomillashtirilgan mashqlarni amaliy dasturlarda elektron mashqlarga aylantirish imkoniyatlari mavjud. Bu ona tili ta’limi uchun ham muvofiq keladi.

**Mustaqil yurtimiz rivoji bilimli shaxsgagina emas, balki bilim olish yo‘llarini puxta o‘zlashtirgan, mustaqil idrok qilish ko‘nikmasiga ega bo‘lgan ongli fuqaroga ehtiyoj sezayotganligi bugungi globallashuv davrida yanada yaqqol sezilmoqda.**

Xorij tajribalari natijasida til ta’limiga tatbiq qilinayotgan ta’lim texnologiyalari o‘quvchi-darslik-o‘qituvchi faoliyatini yuzaga chiqarishga xizmat qilmoqda. Jamiyatning axborotlashuvi davrida ustuvorlik o‘qishga o‘rgatishga

yo‘naltirilganligi bois o‘qitishning metodlari, texnologiyalarini shunday tanlash zarurki, o‘qituvchi o‘quvchilarga nafaqat tayyor bilimlarni o‘zlashtirishlarida, balki bilimlarni turli manbalardan izlash, mustaqil egallashlarida o‘rgatuvchiga aylanadi.

Birinchi prezidentimiz I.A.Karimov Konstitutsiyaning 23 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagи ma’ruzasida istiqlol davrida yetuk, barkamol avlod kamolga yetganligini ta’kidladilar. Vaholanki, yetuk, barkamol avlodga saboq berayotgan o‘qituvchi, murabbiy, ustoz shogirdlaridan ikki-uch qadam oldinda yurishi, zamonidan ilgarilashi taqozo qilinadi. Fan va texnikaning mavjud yangiliklari ularni darslar mazmuniga jadal kiritishni talab etadi va bu orqali ta’lim oluvchilarning zamonaviy bilimlarini shakllantirishga zamin yaratiladi.

### **3.2. 7-sinf uchun “Ona tili”dan “Mashq kitobi” yaratish texnologiyasi**

Ona tili ta’limi mazmunini takomillashtirish haqida so‘z yuritganda til qurilishi va vositalarini, uning atamalarini ilmiy talqin qilish sifatida o‘rganishni emas, balki til boyliklaridan amaliy foydalana olish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladigan bilimlarnigina o‘quvchilarga berish lozimligini tushunamiz. Demak, til hodisalari alohida hodisalar sifatida emas, balki nutq imkoniyatlarini kengaytiruvchi vositalar sifatida o‘rganilishi lozim. Kafolatlangan natijali ta’lim ona tilidan o‘quvchining nimani bilishi (“Bilmoq”) va nimani bajara olishi (“Bajara olmoq”) lozimligini, ya’ni tajriba-sinovdan o‘tayotgan DTS va o‘quv dasturida belgilanganidek, kompetensiyalarga ega bo‘lishni taqozo qiladi. Ta’lim usulining induktiv deb belgilanishi ana shu natijaviylik omillaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi.

Til materiallarining induktiv usulda berilishi (til hodisalarini kuzatish, taqqoslash, guruhlarga ajratish, umumlashtirish) o‘quvchilarning fikrashi, ijodiy faoliyati uchun yetarli darajada imkon yaratadi hamda ona tili mashg‘ulotlarining foydalilik darajasini oshiradi. Amaliyotda nazariy materiallar induktiv asosda turli

yo‘llar bilan taqdim qilinmoqda. Uning eng qulay yo‘llaridan biri **nazariyaga oid ma’lumotlarni o‘quv topshirig‘i tarkibida** berishdir.

Jumladan, 7-sinfda 12-25-darslar davomida olmosh so‘z turkumi o‘tganilishi ko‘zda tutilgan. Xususan, kishilik olmoshlarini o‘rganishga kirishishdan oldin o‘qituvchi o‘quvchilarining boshlang‘ich sinflarda qanday BKMLarga ega bo‘lganligini hisobga olishi zarur. 4-sinfda kishilik olmoshlarini jami 11 soat davomida o‘rgangan o‘quvchilar kishilik olmoshlarining uch shaxsni ifodalashi; III shaxs (birlik va ko‘plik) kishilik olmoshlarining ot o‘rnida qo‘llanishi; kishilik olmoshlarining Kim? so‘rog‘iga javob bo‘lishi; kishilik olmoshlarining kelishik qo‘shimchalari bilan qo‘llanishi, imlosi; olmoshlarning bosh va ikkinchi darajali bo‘lak vazifasida kelishi haqida bilib oladilar. Boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilarining kishilik olmoshlaridan nutqda o‘rinli foydalana olish ko‘nikma va malakalariga ega bo‘lishlari ko‘zda tutiladi [1]. Yuqori sinflarda bu ko‘nikma va malakalar rivojlantirilishi zarur. Xo‘s, bu qanday amalga oshirilishi mumkin?

Dastlab amaldagi darslikda (bo‘lim yuzasidan tahlillar maqolamiz hajmiga muvofiq emas) kishilik olmoshlari yuzasidan taqdim qilinayotgan materiallarni qarab chiqamiz.

7-sinfda kishilik olmoshlari mavzusini tushuntirishdan oldin

**1-topshiriq.** *Men, sen, u, biz, siz, ular* olmoshlarining har biri ishtirokida gaplar tuzing.

**2-topshiriq.** Gap ichida keltirilgan olmoshlarning qaysi biri ma’nosni bilan bir xil, qaysisi ma’nolari bilan farqlanishini izohlang.


**3-topshiriq.** Keltirgan misollariningda olmoshlarning qanday gap bo‘lagi vazifasida kelayotganini aniqlang.

kabi induktiv topshiriqlar berilgan [2:23]. 1-, 3- topshiriqlarning shartlari o‘quvchilar uchun tushunarli. 2-topshiriqning shartida biroz mujmallik bor. Unda aynan nima so‘ralayotganligi aniq emas. Bizningcha, bu shart “Gap ichida kelayotgan olmoshlarning SHAXS VA SONDA o‘xshashlik va farqini izohlang” tarzida berilishi mumkin. Shunday qilinganda **men, sen, u** – birlik son uchun; **biz, siz, ular** – ko‘plik son uchun qo‘llanilishi va **men, biz** I shaxs; **sen, siz** II shaxs; **u,**

**ular** III shaxsni ifodalashiga oid nazariy tushunchani (Bu “Bilib oling” qismida aks etgan) induktiv usulda anglash imkoniyati oshadi.

Tajriba-sinov uchun berilgan 53- mashqda **men**, **sen** olmoshlariga -ni, -ning, -ga, -da, -dan, -niki qo’shimchalarini qo’shish, -ni, -ning, -niki qo’shimchalari qo’shilganda asosning tovush tarkibida qanday o’zgarish sodir bo’layotganligini aniqlash so’ralgan. Bu olmoshlar qatoriga **u** olmoshini ham kiritish, mazkur olmoshning -ga, -da, -dan qo’shimchalari bilan qo’llanishidagi tovush o’zgarishlarini ham nazarda tutish zarur deb hisoblaymiz. Bu holat 54-mashqni bajarishda 2-, 4-gaplarda **unga** olmoshidagi tovush orttirilishini aniqlashda o‘quvchiga yordam bo‘ladi.

Darslikda **siz**, **ular** olmoshlarining yakka shaxsga ishora qilib, hurmat ma’nosini bildirishi, **siz** hurmat ma’nosini ifodalash uchun unga -lar qo’shimchasi qo’shilishi qoidalashtirilgan. Biroq bu qoidaga mos mashq va topshiriqlar keltirilmagan. Shuning uchun HotPotatoes amaliy dasturining «**JCloze**» («**Mashqlar**») blogidan foydalanib quyidagi bo’sh orinlarni to’ldirish bo‘yicha mashq yaratamiz.



O‘quvchi yashiringan so‘zlarni aniqlashi uchun mashqni vefsahifa tarzida saqlaymiz. Bu mashqni kompyuterda bajarish imkonini beradi. Shuningdek, printer orqali bosmaga chiqarib foydalanish ham mumkin.

[redacted] da ham bir so'm bor. [redacted] da ham bir so'm bor... [redacted] ga  
o'zimning pulimni berdim. [redacted] ham [redacted] ga o'zingizning pulingizni berdingiz... Hech  
nima o'zgarmadi. [redacted] da ham bir so'm pul qoldi, [redacted] da ham... ... [redacted] da  
yangi fikr bor. [redacted] da ham yangi fikr bor... [redacted] ga yangi fikrimni aytdim.  
[redacted] ham [redacted] ga yangi fikringizni aytdingiz... [redacted] da ham ikkita fikr paydo  
bo'ldi [redacted] da ham... esli odam pul almashmaydi, fikr almashadi.(O'.Hoshimov)

O'qituvchi mashq bajarilgach, olmoshlar ortiqcha takrorlarning oldini  
olishga xizmat qilishini ta'kidlagan holda nima uchun matnda takror  
qo'llanayotganligini suhbat usulida oydinlashtirishi zarur.

Darslikda **men** olmoshining uslubiy qo'llanishi yuzasidan qoida  
keltirilmagan. Bizningcha, o'quvchilarda pragmatik kompetensiyalarni  
shakllantirishda **men** olmoshining turli uslublarda qo'llanishini ayni shu sinfda  
o'rgatish lozim. Toki o'quvchi ilmiy matn yaratishda, og'zaki nutqda kishilik  
olmoshlarini o'rinni qo'llay olsin, noqulay vaziyatga tushib qolmasin. Shuni  
nazarda tutib quyidagi mashqlarni taklif qilamiz:

**1-mashq.** Matnlarni bir-biriga qiyoslang, **men** olmoshi qahramonga xos  
qanday xususiyatni ifodalayotganini aniqlang.

1. Me'morlar ham yashar asrma-asr,

Ularning faxri ham shundan iborat:

– **Men** bunyod etganman eng yuksak qasr,

– **Mening** ijodimdir eng zo'r imorat.

Taraqqiyot ekan zamonlar kelib,

Orzu bosib ketdi butun olamni.

Hozir maqtanishar: – Qo'yingiz bilib,

**Men** badnom qilganman eng zo'r Odamni. (A.Oripov)

2. Janoblar, siz bu yerga turli mamlakatlardan kelgansiz. Siz turli millat, turli xalqlarning vakillarisiz. Bu yerda hech mamlakat, hech bir xalqning vakili bo‘lmagan yolg‘iz **men**. **Men** hamma xalqlarning, hamma mamlakatlarning vakiliman. **Men** she’riyatman. **Men** butun olamga teng nur sochuvchi oftobman. **Men** hamma o‘lkalarga teng yog‘uvchi yomg‘irman. **Men** dunyoning hamma yerida teng gullaguvchi daraxtman. (R.Hamzatov)

**2-mashq.** *Ilmiy matn nechanchi shaxs tilidan hikoya qilinishiga diqqat qiling. Gaplarda qo‘llanayotgan **biz** olmoshini izohlang.*

1. **Biz** yuqorida topishmoqlarning mavzusi juda rang-barang ekanligini aytgan edik. (M.Jumaboyev.) 2. **Bizningcha**, morfemikani grammatikaning bir bo‘limi deb qarash, uni grammatikaga, jumladan morfologiyaga kiritish uchun yetarli asos yo‘q. (A.Hojiyev) 3. **Biz-biz** edik, **biz** edik, O‘ttiz ikki qiz edik (M.Jumaboyev.) 4. Yoshi oltmishlardan oshgan bir mo‘ysafid kulolning uyiga o‘g‘lini boshlab kelib:

– Taqsir, peshanamda shu bitta-yu bitta o‘g‘ilcham bor. Ko‘zim tirikligida biror hunarning boshini tutsin deb, sizni qora tortib keldim, – debdi.

Kulol:

– Mayli, eski oshnamiz iltimos qiladilar-u, **biz** yo‘q deymizmi? – deb iltifot ko‘rsatibdi. (M.Jumaboyev)

Olmoshlarning imlosini o‘rgatishda hurmat ma’nosida qo‘llanadigan **Siz**, **O‘zingiz** kabi hollarda ularning bosh harf bilan yozilishni alohida uqtirish zarur. Bu bilim o‘quvchilarning rasmiy matnlar, tabrik xatlar yozganida juda katta ahamiyat kasb etadi. Buning uchun darsliklarning 2-sahifasida o‘quvchilarga atalgan murojaatlardan foydalanib, quyidagi topshiriq tayyorlanishi mumkin.

**Topshiriq.** *Darsligingizning 2-sahifasidagi mualliflarning murojaatini qayta o‘qing. Siz olmoshi gap ichida kelganda ham nima uchun bosh harf bilan yozilganiga e’tibor bering.*

### *Aziz o‘quvchilar!*

Donishmandlar «Til – dilning kaliti» – deb, bejiz aytmaganlar. Hayotda har bir yaxshi insonning qalbiga yo‘l topish vositasi til ekanini Siz ham yaxshi bilasiz, albatta. Modomiki, shunday ekan, ona tilini mukammal o‘rganmoqning foydasi nechog‘liq katta ekani ayondir.

Siz 7-sinfda 6-sinf «Ona tili» darsligidan olgan bilimlaringizni boyitasiz, yana yangi-yangi ma’lumotlar olasiz, o‘rgangan nazariy bilimlaringizni bir-biridan qiziq mashqlarga tatbiq etib, amaliy mashg‘ulotlar bilan shug‘ullanasisiz.

Bizningcha, tafakkurni rivojlantirish uchun mashqlarni oddiy ko‘chirtirib qo‘ymasdan, mantiqiy xulosa chiqarishga asoslab bajartirish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Yuqoridagi mashq va topshiriqlar o‘quvchilarda fanga oid xususiy kompetensiyalarni shakllantirish orqali ularni mustaqil fikrlash, egallagan bilimlarini vaziyatga mos holda to‘g‘ri qo‘llay olish, umumlashtirish va xulosalar chiqarish qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

### **3.3. 7-sinf uchun “Ona tili”dan “Elektron daftar” yaratish texnologiyasi**

Barcha rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar o‘z taraqqiyotlarini intellektual boylikni kuchaytirish masalasi bilan uzviy bog‘laydilar. Bu bejiz emas. Ayniqsa globallashuv davrida ta’lim-tarbiya, fan butun jahon ahlining diqqat-e’tiboridadir. O‘zbekiston Respublikasida ham ta’lim sifati davlatning ijtimoiy talabi deb qaralmoqda. Fan va texnologiyalarning taraqqiyoti ta’lim va tarbiya tizimiga to‘g‘ridan to‘g‘ri ta’sir o‘tkazayotganligi hammamizga ayon. Bu holat sohada olib borilayotgan islohotlarni chuqurlashtirishga olib kelmoqda.

O‘qitish mazmuni, metodlari, vositalarining yangilanishi til ta’limida ham yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Bu butun jahonda kuzatilmoqda.

Ayniqsa o‘quvchilarning axborot texnologiyalariga bo‘lgan qiziqishining ortib ketishi o‘qitish jarayonida tub burilish yasash lozimligini ko‘rsatib turibdi. Ilg‘or o‘qituvchilar tajribasida axborot olamida yashayotgan o‘quvchilarining ana shu xususiyatlarini ularning til ta’limiga bo‘lgan motivatsiyasini kuchaytirish omili, vositasi sifatida foydalanilmoqda.

“Использование современных информационных технологий на уроках русского языка” (<http://www.prodlenka.org>) maqolasida axborot olamidagi o‘quvchilarni til olamiga olib kirishda rus tili va adabiyot fani o‘qituvchilarining tajribalari keltirilgan.

Unda til ta’limida darslarini tashkil qilishda darsning har bir bosqichi uchun taqozo qilinadigan kompyuter dasturlari taklif qilingan:

1) yangi mavzuni bayon qilishda bilimlarni vizualllashtirish orqali taqdim qilish, (namoyish qiluvchi – ensiklopedik dasturlar va Power Point taqdimot dasturi;

2) o‘rganilgan materialni mustahkamlashda o‘rgatuvchi dasturlar;

3) o‘quvchilar bilimini nazorat qilish va baholashda nazorat qiluvchi dasturlar;

4) o‘quvchilarning mustaqil ishini tashkil qilishda "Репетитор" o‘rgatuvchi dasturlaridan foydalanishning afzalliklari ko‘rsatib berilgan.

Rossiyalik rus tili va adabiyoti o‘qituvchilari kompyuterlar bilan jihozlangan rus tili kabinetlarida darslarni tashkil qilish o‘quvchilarning ichki motivatsiyasini yuzaga keltirishini, ularda bilim olishga ehtiyoj paydo qilishini, ichki motivatsiyadan fanni o‘rganishga qiziqish o‘sib chiqishini alohida ta’kidlaydilar. Biroq axborot texnologiyalaridan foydalanishni tizimli olib borish zarur, vaqtivaqt bilan, rejalashtirilmasadan yo‘lga qo‘yish samara bermaydi. Shu bilan birga an’anaviy metod va usullarni to‘liq axborot texnologiyalari almashtirish ham mumkin emas, – deb hisoblaydilar.

Odatda o‘rgatuvchi multimediali dasturiy vositalar yaratish bilan kompyuter dasturchilari shug‘ullanadilar. Ammo bu dasturchilar o‘zlari yaratayotgan mahsulot sifati bo‘yicha yetarli bilimga ega bo‘lsalar-da, ko‘p hollarda o‘qitish metodikasini yetarlicha o‘zlashtirmagan bo‘lishlari mumkin. Bu esa o‘rgatuvchi dasturiy vositaning metodik talablarga to‘liq javob berishini ta’minlay olmaydi. Shu sababdan, dasturiy multimedia mahsulotlarini yarata olish malakasini shakllantirishda ko‘p bosqichli tayyorgarlikni amalga oshirish zarur.

**O‘rgatuvchi dasturlar** – o‘quv materialini o‘zlashtirish jarayonida o‘quvchilarning faoliyatini boshqaruvchi amaliy dasturlardir. Muayayn bir fan materiallarini o‘zlashtirish jarayonida kompyuter texnologiyalari yordamida foydalanish uchun yaratiladi. O‘quv materialari bosqichma-bosqich, mashq va topshiriqlar ketma-ketlikda taqdim qilinadi, javoblarning to‘g‘ri-noto‘g‘riliqi tasdiqlanadi, yo‘l qo‘yilgan xatolar displayda aks etadi, o‘quvchilarning o‘zlashtirishi nazorat qilinadi va baholanadi.

([http://polytechnic\\_dictionary.academic.ru](http://polytechnic_dictionary.academic.ru) ).

Internetda rus tilidan “**Фраза**” deb nomlangan o‘rgatuvchi dastur-trenajer mavjud. “**Фраза**” o‘ziga xos elektron repititor hisoblanadi. U 2006-yilda tajribali rus tili o‘qituvchilari, metodistlar va psixologlar tomonidan yaratilgan. Interfeys faqat rus tilida. ([http://www.detkiuch.ru/load/fajly/uroki\\_russkogo\\_jazyka/fraza](http://www.detkiuch.ru/load/fajly/uroki_russkogo_jazyka/fraza)) “**Фраза**”da Rossiya umumiyligi o‘rtalim maktablarining rus tili ta’limi uchun 4000 ga yaqin topshiriqlar o‘rin olgan.

Shuningdek, 1000 ga yaqin topshiriq muktab bitiruv imtihonlari va oliy ta’limga qabul imtihonlari uchun tayyorlangan. Saytdan olingan ma’lumotlarga ko‘ra, bu dastur yordamida qisqa muddatda o‘quvchilarda yozma savodxonlik oshadi, “ikki”lar “uch”ga aylanadi. O‘quvchilar imlo va punktuatsiya qoidalarini o‘rganish va takrorlash, bo‘shliqlarni to‘ldirish, bilimlarini tekshirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bu repititor o‘quvchining har bir qadamini tekshirib boradi, xatolarni bir lahzada ko‘rsatib beradi va agar o‘quvchi qiyin vaziyatlarga duch kelsa, ekranda qoida va unga mos misollar, istisno holatlar paydo bo‘ladi, bu bilan o‘quvchiga o‘z xatosini to‘g‘rilash imkonini beradi, ko‘rish orqali imloni eslab qolishga yordam beradi, ish oxirida esa natijani ko‘rsatadi, baholaydi, o‘zlashtirish statistikasini taqdim qiladi.


Bu dasturning Windowsga mo‘ljallangan yangi versiyasi o‘z ichiga 500 ta qo‘srimcha mashq va topshiriqlarni jamlagan. Shuningdek, dasturdan foydalanish yuzasidan ko‘rsatma, rus tili qoidalarining katologi va qisqacha imlo lug‘atini o‘z ichiga oladi. Windows 95/98/2000; Pentium 120 MGs va undan yuqori, 16 Mb operativ xotira, ekran 800x600 bo‘lishini taqozo qiladi.

Yuqori sinf o‘quvchilari va abiturientlar uchun rus tilidan “Repititor-diktant” kompyuter trenajeri([http://www.detkiuch.ru/load/fajly/uropi\\_russkogo\\_jazyka](http://www.detkiuch.ru/load/fajly/uropi_russkogo_jazyka)) ham qator afzalliklarga ega. U matnlarni xuddi haqiqiy o‘qituvchi kabi diktovka qiladi va tekshiradi. Shuningdek, har bir diktantdan keyin xatolar ustida ishlash mumkin. Bu jarayonda dastur qaysi so‘zda xatoga yo‘l qo‘yilgan bo‘lsa, shu so‘z ishtirokida jumlalar taqdim qiladi yoki yozilishi qiyin bo‘lgan so‘z va qisqa jumlalar qatnashgan grammatik diktantlarni diktovka qiladi. Fayl formati: **iso** <http://www.twirpx.com> saytida maktab sintaksisi va punktuatsiyasi bo‘yicha qoidalar jamlangan o‘rgatuvchi dastur joylashtirilgan. Bu dastur maktab o‘quvchilari, abiturientlar va og‘zaki hamda yozma savodxonligini oshirmoqchi bo‘lgan barcha yoshdagi qiziquvchilar uchun mo‘ljallangan.

Bu dastur televizion repititor hisoblanadi, uning yordamida qiyin mavzularni chuqurroq o‘rganish, imtihonlarga tayyorlanish mumkin. Dastur ikki qismdan iborat.

<http://festival.1september.ru> va [www.dealeducation.ru](http://www.dealeducation.ru) saytlarida ham o‘rgatuvchi dasturlar bilan tanishish mumkin. Shuni alohida ta’kidlash zarurki, bu dasturlarning aksariyati to‘lovni amalga oshirish orqali yuklab olinadi.

**Mashq dasturlari.** Ta’lim jarayoni samaradorligi interfaol didaktik o‘yinlar va mashq qildirgichlardan foydalanishni taqozo etadi. Ular o‘quvchilarning jamoa bo‘lib yoki individual faoliyatida malaka va ko‘nikmalarini shakllantirish,



rivojlanirishga yordam beradi. Aynan didaktik o‘yinlar va mashq qildirgichlarni yaratish elektron o‘quv-metodik majmualar yaratishda katta qiyinchiliklar tug‘diradi. Bu dasturiy-texnik va metodik qiyinchiliklardir.

Kompyuterda mashq bajartirish — o‘quv jarayonida va mustaqil ravishda ishlashda katta o‘rin egallaydigan, bolalarning o‘quv-biluv faoliyatlarini tashkil qilish va boshqarish usuli o‘rnini bosuvchi, faoliyat tashuvchi, tegishli predmetning mazmuniga loyiq, bilim, ko‘nikma va malakalarni maqsadga yo‘naltirgan holda

shakllantirish vositasi bo‘lgan ta’lim metodlarining bir formasi hisoblangan, nazariya bilan amaliyotning aloqa vositasi bo‘lgan ko‘pqrashli ta’lim hodisasidir.

Kompyuterdan foydalanish jarayonida til ta’limida mavjud bo‘lgan an’naviy mashq turlarining deyarli barchasini qo‘llay olamiz, jumladan:

- harf yoki so‘zlarni qo‘yish;
- tinish belgilarini qo‘yish;
- tilning turli sathlari uchun qabul qilingan shartli belgilarni qo‘llash
- matnni tahrir qilish va h.k.

Kompyuter dasturlaridagi krossvord, rasmlar, qiziqarli topshiriqlar, testlar o‘quvchining darsga qiziqishini oshiradi. Bunda kompyuter o‘qituvchi vazifasini to‘liq bajara olmaydi, albatta. Balki o‘qituvchi vazifalarini to‘ldiradi. O‘qituvchi o‘z darsiga mos dasturlarni, didaktik materiallarni, o‘quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olib topshiriqlarni tanlaydi, ta’lim jarayonida ularning ana shu topshiriqlarni bajarishlariga ko‘maklashadi, o‘quvchilarning bilimini va rivojlanishini baholaydi.

Ma’lumki, umuman san’at asari, xususan tasviriy san’at asari kishida estetik zavq, tasavvur, kechinmalar uyg‘otadi. Ana shu jihatga ega bo‘lgan ko‘rsatmalilik ona tili darslarida o‘quvchilarni mazmundor gaplar tuzishga o‘rgatishning qudratli omili bo‘lib maydonga chiqadi.

Ona tili darslarida tasviriy san’at asaridan foydalanish:

- 1) gap tuzish jarayonini estetik boyitadi;
- 2) tuziladigan gaplarning mazmundor va ta’sirchan bo‘lishi kerakligiga ishora qiladi.

O‘quvchilarning bir tasviriy san’at asari asosida xilma-xil mamundagi gaplarni tuzishga intilishi kichik hajmli matn yaratishda insho yozishga tayyorgarlik vazifasini bajaradi, pirovardida ularni shunday insholarni mazmundorlik va ta’sirchanlik talabi bilan vujudga keltirish malakasi bilan qurollantiradi, yozma ishning bu jihatlariga e’tibor berishni odat tusiga aylantiradi, eng muhimmi, uzviylikni ta’minlaydi. Rasmlar loqayd fikr o‘rnida faol munosabatni yuzaga keltiradi, o‘quvchilarni befarqlikdan chiqaradi, mudrab yotgan tuyg‘ularni

uyg‘otadi. Tasviriy san’at asarlari orasida naturmort narsa-buyumlarni tasvirlab gaplar tuzish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Ot va sifat so‘z turkumlarini o‘rganish jarayonida bunday rasmlar juda qo‘l keladi.

Harakat tasvirlangan rasmlarga qarab gaplar tuzganda sifatlar kamroq, fe’llar, bog‘lovchilar ko‘proq ishlatiladi. Demak, bunday tasviriy san’at asarlari fe’l, fe’l shakllari, ravish, bog‘lovchi bilan bog‘liq mavzularni o‘tish jarayonida ko‘proq tanlanishi kerak. (A.Ergasheva. Ona tili darslarida rasmlar vositasida mazmundor gaplar tuzish. 2006- yil 2-son. Uzluksiz ta’lim. 59-62 b.)

Metodikada darslikda mavzuga doir rasmlli mashqlar ko‘proq bo‘lsa, o‘quvchilarning nutqini o‘sirish va fikrlash qobiliyatini rivojlantirish borasida o‘qituvchiga keng imkoniyat yaratilishi haqida alohida qayd qilinadi. Biroq darsliklarni “semirtirmaslik” masalasi bor. Shuning uchun ham rasmlardan foydalanish bo‘yicha elektron adabiyotlarda imkoniyatlar katta bo‘ladi.

**Amaliy qism.** Mashq va topshiriqlar beriladi. Mashq turi qayd qilinishi, to‘g‘ri javoblar keltirilishi shart. Unutmang, mashq shartida bajarilishi lozim bo‘lgan ish qisqa bayon qilinishi kerak va bunda buyruq fe’llaridan foydalaning: (*bo‘sh oringa yozing, belgilang, moslashtiring, (ro‘yxatdan) (javoblar qutisidan) tanlang, (ketma-ketlikni) aniqlang, raqam kriting* va h.k. fe’llar mos keladi. Mashq matnida tanlangan misollaringizning manbasini berishni unutmang.

**Test qismi.** Mavzu doirasida 5 – 10 ta test savoli beriladi. Javoblar belgilab qo‘yilishi shart. Testning turini qayd qilish maqsadga muvofiq.

**Eslatma:** Ssenariy muallifi taqdimot yoki mashq va topshiriqlar uchun zarur bo‘ladigan tasvir, animatsiya, videomaterial, audiomatn bilan bog‘liq g‘oyasini ham aks ettirishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bu xuddi dramatik asarlarda bo‘lgani kabi **remarka** vazifasini bajaradi.

## **Bob bo‘yicha xulosalar**

Jahonda til o‘qitish tajribalari bilan tanishish shuni ko‘rsatadiki, kompyuterni til ta’limida qo‘llash bu shunchaki, **urf** deb qaralmasligi kerak,

aksincha, qaysi o‘rinda o‘qitish metodikasi samarali natija bermayotgan bo‘lsa, shu jarayonga kompyuter texnologiyalarini tatbiq qilish zaruriyatini hisobga olish zarur.

Til ta’limida jahonda foydalanilayotgan kompyuter texnologiyalari bilan tanishgach, ularning ijobiy jihatlarini, sinalgan usullarni o‘zbek tilini o‘qitish jarayoniga tatbiq qilish nihoyatda kechiktirib bo‘lmaydigan vazifalardan biri deb hisobladik.

O‘zbek tilini ona tili sifatida, davlat tili sifatida o‘qitishda fan o‘qituvchilari, metodistlar, talaba va magistrantlar jahon tajribalariga tayanib quyidagi ta’lim vositalarini yaratishni jadallashtirishlari taqozo qilinadi:

1. O‘quv materiallari bosqichma-bosqich, mashq va topshiriqlar ketma-ketlikda taqdim qilinadigan **o‘rgatuvchi dasturlar**.
2. Imlo va punktuatsiya qoidalarini mustahkamlashga yordam beruvchi **elektron repititorlar**.
3. Maktab sintaksi va punktuatsiyasi bo‘yicha qoidalar jamlangan o‘rgatuvchi dasturlar.
4. O‘zbek tili imlo qoidalarining katologi va qisqacha elektron imlo lug‘ati.
5. Har bir sinf uchun mo‘ljallangan o‘zbek tilidan “Repititor-diktant”.
6. Test dasturlari.
7. Boshlang‘ich sinflar uchun o‘zbek tilidan elektron jadvallar.
8. 5-9-sinflar uchun o‘zbek tilidan elektron-o‘quv jadvallar.
9. O‘zbek tilining elektron izohli lug‘ati
10. O‘rgatuvchi audiodasturlar.

### **Bob bo‘yicha xulosalar**

Jahonda til o‘qitish tajribasidan ma’lum bo‘lmoqdaki, ingliz tili ta’limidagi “Homebook”, “Workbook” (“Uyda ish kitoblari”i), rus tilini o‘qitishda amalda bo‘lgan “Рабочая тетрадь” (“Ish daftari”), “Электронная тетрадь”lar qator afzalliklarga ega. Qayta ko‘chirib yozish talab qilinmaydigan reproduktiv va

qisman izlanuvchanlikka asoslangan mashqlar kafolatli natijalarga erishish jarayonini jadallashtirishi mumkin.

Ingliz tili ta’limida “True-false” (“To‘g‘ri-noto‘g‘ri”), Mini-TEST, “Moslikni aniqlash”, “Qiyoslash” mashqlari, algoritmga asoslangan mashqlar, shuningdek, grammatik tahlil turlari takomillashtirilgan mashqlarni amaliy dasturlarda elektron mashqlarga aylantirish imkoniyatlari mavjud. Bu ona tili ta’limi uchun ham muvofiq keladi. Tajriba-sinovlarda 10 turdagи mashqlarni yaratish va ularni “Mashq daftari” hamda “Elektron daftar”ga joylashtirish imkoniyatini aniqladik.

## UMUMIY XULOSALAR

Davr nuqtayi nazaridan yuzaga kelayotgan talab va ehtiyojlar umumiy ta’lim maktablarining ona til mashg‘ulotlari oldiga tamoman yangi vazifalarni qo‘ymoqda.

Ona tili mashg‘ulotlari tilning grammatik qonuniyatlarini o‘rgatishni mo‘ljallab emas, balki grammatik imkoniyatlardan to‘g‘ri foydalanish, ta’lim oluvchilarining so‘z boyligini oshirish, ona tilining boy ifoda vositalaridan maqsadga muvofiq to‘g‘ri foydalana olish ko‘nikmalarini ko‘zlab qurilmog‘i kerak. Bu nazariy ma’lumotlarni taqdim qilishda ham, mashq va topshiriqlarni yaratishda ham e’tiborga olinishi zarur.

Olib borilgan tadqiqotimizdan quyidagi xulosalarga keldik:

Tadqiqot predmeti hisoblangan 7-sinf uchun “Ona tili” darsligidan o‘rin olgan mashq va topshiriqlar tahlili shuni ko‘rsatdiki, amaldagi darslik mualliflari o‘quv dasturida ko‘zda tutilgan mavzularni to‘liq qamrab olishga erishganlar. Biroq ayrim mavzularda, xususan ko‘makchilar, bog‘lovchilarini o‘rgatish jarayonida nazariy ma’lumot taqdim qilinmagan, keying mavzularda o‘rganish mo‘ljallangan materiallar bo‘yicha mashqlar keltirilganligi kuzatildi.

Odatda tinish belgilarning qo‘llanilishi ko‘proq sintaksis sathini o‘rganishda e’tiborga olinadi. Punktuatsiya qoidalarining morfologiya sathiga aloqador jihatlari ham nazaridan chetda qolmasligi zarur. 7-sinf darsligida bu inobatga olingan, albatta. Biroq o‘quvchilarining yozma ishlarida bog‘lovchilarini qo‘llashda vergulni ortiqcha qo‘llash holatlari juda ko‘p kuzatiladi. Diktantni diktovka qilishda chunki bog‘lovchisidan so‘ng sintagma ohangi mavjudligi, biroq vergul qo‘yilmasligi, qoidaga ko‘ra bu bog‘lovchidan oldin vergul qo‘yilishini amaliy mashqlar orqali o‘rgatishga katta ahamiyat qaratilishi zarur.

Biriktiruv bog‘lovchilarini vazifasida qo‘llaniladigan -u, -yu, -da yuklamalari uyushiq bo‘laklarni bog‘lashda vergulning qo‘llanmasligi darslikda qayd qilingan. Bizningcha, -u, -yu yuklamalarining juft so‘zlar qismlarini bog‘lab kelishlari, bu

yuklamalarning uyushiq bo‘laklarni bog‘lashi va juft so‘zlarda qo‘llanilishi farqlanishi uchun amaliy mashqlar zarur.

Undovlarning undalmalar bilan qo‘llanilishida vergulning qo‘llanilishi haqidagi qoidani ham aniqlashtirish taqozo qilinadi.

– Assalomu alaykum, otaxon! (undalmadan oldin kelgan nutqiy odat undovi mavjud, vergul qo‘yilgan)

– Chu, jonivor! (undalmadan oldin kelgan buyruq-xitob undovi mavjud, vergul qo‘yilgan)

– Ey Luqmoni Hakim, sening Dong‘ing tutdi olamni. (*Mirmuhsin*) (undalmadan oldin kelgan his-hayajon undovi mavjud, vergul qo‘yilmagan)

Darslikdan o‘rin olgan mashqlarda esa ayrim gaplarda undalma bilan kelgan undovlardan so‘ng vergul qo‘yilgan, ayrimlarida vergul qo‘llanmagan. Kuzatilgan darslarda o‘qituvchilarda ham, o‘quvchilarda ham qoidani tatbiq qilishda ikkilanish holatlari kuzatildi. Demak, bu ma’lumotni qayta tahrir qilish taqozo qilinadi.

Kuzatishlar, tahlillar shuni dalilladiki, 7-sinf o‘quvchilar yil davomida uyga vazifa sifatida 39 ta matn yaratishi kerak. Tanlangan mavzular o‘quvchilar yoshiga mos keladi. Shu yoshdagi o‘quvchilar qiziqishlariga muvofiq tanlangan. Muhimi ma’naviy-ma’rifiy qadr-qimmatga ega. Rasm asosida yaratiladigan ayrim matnlar uchun tayanch so‘zlar tavsiya qilingan. Biroq o‘quvchilarni matn yaratishga tayyorlash, matn tuzish qonun-qoidalari bilan tanishtirishga doir ko‘rsatmalar aks etmagan. Quyi sinflar uchun chop qilingan “Ona tili” darsliklarida ham bunday ko‘rsatmalarni yetarli deb bo‘lmaydi. Bu ta’lim natijasini kafolatlashga to‘siq bo‘ladi. Yaratiladigan matnning talab darajasida bo‘lishi topshiriqni bajarishga o‘quvchini bosqichma-bosqich tayyorlab borishga bog‘liq. Shuning uchun ham uyga vazifa uchun yozma matn yaratish topshiriqlarining muayyan miqdorini saqlab qolish, ularning bajarilishi uchun metodikada sinalgan **tayyor matnlar ustida ishslash (matnni kengaytirish, matnni ixchamlash) usulini qo‘llash kutilgan natijani berishi mumkin.**

Uyga vazifalarning sifatli bajarilishi yana bir masalaga bog‘lanadiki, bu darslikda “Bilib oling”, “Esda tuting” kabi ruknlar ostida berilgan mavzuga aloqador ta’riflarda mos misollarning berilmasligidir. O‘qituvchining misollar bilan bergen izoh va tushuntirishlari o‘quvchining xotirasida yetarli darajada muhrlanib qolavermasligini inkor qilib bo‘lmaydi. Demak, mashqlardan kutiladigan natija nazariy ma’lumotlar uzviy bog‘lanmoqda.

Mashq va topshiriqlarda zaruriy nazariy material va bajarish uslubini ko‘rsatish; mashq va topshiriqlarni kam vaqt sarflab bajarish va to‘g‘ri javobini tekshirish imkoniyatini yaratish, chet tillarni o‘qitishda qo‘llanilayotgan mashq turlari hisobiga mashqlarni rang-barang qilish zamonaviy talablardan biridir.

Ona tilidan topshiriqlar yaratishda loyihali texnologiyalarga murojaat qilish, loyihalar uchun topshiriqlarni yaratishda o‘quvchining o‘rganilayotgan bilim, ko‘nikmalar nima uchun zarurligi va undan qayerda va qay tarzda foydalanishini anglay olishiga ahamiyat qaratish taqozo qilinadi.

Jahonda til o‘qitish tajribasidan ma’lum bo‘lmoqdaki, ingliz tili ta’limidagi “Homebook”, “Workbook” (“Uyda ish kitoblari”), rus tilini o‘qitishda amalda bo‘lgan “Рабочая тетрадь” (“Ish daftari”), “Электронная тетрадь”lar qator afzalliklarga ega. Qayta ko‘chirib yozish talab qilinmaydigan reproduktiv va qisman izlanuvchanlikka asoslangan mashqlar kafolatli natijalarga erishish jarayonini jadallashtirishi mumkin.

Ingliz tili ta’limida “True-false” (“To‘g‘ri-noto‘g‘ri”), Mini-TEST, “Moslikni aniqlash”, “Qiyoslash” mashqlari, algoritmgan asoslangan mashqlar, shuningdek, grammatik tahlil turlari takomillashtirilgan mashqlarni amaliy dasturlarda elektron mashqlarga aylantirish imkoniyatlari mavjud. Bu ona tili ta’limi uchun ham muvofiq keladi. Tajriba-sinovlarda 10 turdagи mashqlarni yaratish va ularni “Mashq daftari” hamda “Elektron daftar”ga joylashtirish imkoniyatini aniqladik.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

### **I. Normativ-huquqiy hujjatlar:**

1. Karimov I.A. Inson, uning huquq va erkinliklari – oliy qadriyat. – Toshkent, O‘zbekiston, 2006. – 280 b.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 10-dekabrdagi “Chet tillarni o‘rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori
3. Президент И.А.Каримовнинг Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси IX сессиясида сўзлаган нутқидан, 1997 йил 29 август. Баркамол авлод – Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. – Тошкент: Шарқ, 1997. – Б.7.

### **II. Darslik va o‘quv qo‘llanmalar:**

4. Abdurahmonov G`., Rustamov H. Ona tili. – Toshkent: O`qituvchi, 1995. – B.3.
5. Deyvid Kristal. Ingliz tili dunyo tili sifatida. Cambridge University Press. 2003-yil
6. G`ulomov A. Ona tili o`qitish metodikasi. – Toshkent, 2012. 69-b.
7. G`ulomov A., Ne’matov H. Ona tili ta’limi mazmuni. – Toshkent: O`qituvchi, 1995. – B. 38.
8. Irisqulov M.T. Tilshunoslik asoslari. –Toshkent: Yangi asr avlodi, 2009. – 218 -b.
9. O`zbek tilining izohli lug`ati. – M.: Russkiy yazik, 1981. 2-tom, 133-b.
10. Prasad H.Y.Sh. “What if our languages don’t survive?” The Asian Age. 19 January 2005. New Dehli. p. 16.)
11. Ziyodova T. Matn yaratish texnologiyasi. – Toshkent: Fan, 2007. – 113-114- b.

12. Адилова С. Ўзбек тили машғулотларини компьютер технологиялари воситасида ташкил этиш (Олий таълим муассасаларининг русийзабон гурухларида): пед фан номз. ...дис. – Toshkent, 2004. – 160 б.
13. Марчук Ю.Н.Применение ЭВМ в учебной лексикографии // Проблемы учебной лексикографии и обучения лексики. – М., 1978. – 161-168 с.
14. Юлдашева Ш. Давлат тили таълимида ўқувчилик саводхонлигини ўстиришнинг илмий-методик асослари (таълим қорақалпоқ тилида олиб бориладиган академик лицейлар мисолида). Пед. фан. номз. дисс... автореферати. – Toshkent, 2008. – 23 б.
15. Юсупова Ш.Ж. Она тили таълими самарадорлигини оширишда илфор педагогик технологияларни жорий этиш / ноанъанавий усуллар ва компьютердан фойдаланиш/: пед фан. номз. ...дис. автореф. – Т. 1998, – 25 б.
16. Юсупова Ш.Ж. Ҳозирги ўзбек адабий тили дарсларида ўқувчилик тафаккурини ўстиришнинг илмий-методик асослари (академик лицейлар мисолида): пед. фан докт. ...дис. – Toshkent, 2005. – 277 б.
17. Abduqodirov A., Xayitov A. Axborot texnologiyasiga oid atamalarning izohli lug‘ati. – Toshkent: TDPU, 2002. – 27 б.
18. Begimqulov U.SH. Pedagogik ta’limda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishning ilmiy-nazariy asoslari. – Toshkent: Fan, 2007. – 144-b.
19. Zokirova F. va b. Elektron o‘quv majmular va ta’lim resurslarini yaratish metodikasi. Metodik qo’llanma. – Toshkent: OO‘MTV, 2010. – 55 б.
20. Нуруллин Р.А. Виртуальность как условие существования реальности. Вестник СамГУ. 2005 №4 (38)
21. Taylakov N.I. Informatika kursidan interaktiv o‘quv majmular. – Toshkent, 2010.
22. «Ta’limda mul’timedia tizimlari va masofaviy o‘qitish metodlari» moduli bo‘yicha o‘quv-uslubiy majmua (Tuzuvchilar: V.S.Xamidov, M.Adashboev, D.A.Sobirova) – Toshkent, 2015.

23. "Elektron pedagogika va pedagogning shaxsiy, kasbiy axborot maydonini loyihalash" moduli bo'yicha o'quv-uslubiy majmua (tuzuvchilar: T.T.Shoymardonov, V.S.Xamidov, M.Fayzieva) – Toshkent, 2015. – 11-67 b.
24. Новые педагогические и информационные технологии в системе образования: Учебное пособие / Е.С. Полат, М.Ю. Бухаркина, М.В. Моисеева, А.Е. Петров; под ред. Е.С. Полат. – М.: Издательский центр "Академия", 1999.
25. Рускова Д. Использование проектного метода при обучении русскому языку с целью соединения учебы с практикой и повышения мотивации учащихся / Русское слово в мировой культуре. Материалы X конгресса МАПРЯЛ. Направление IV. Методика преподавания русского языка: традиции и перспективы. – СПб., 2003.
26. Поливанова К. /. Проектная деятельность школьников: пособие для учителя. М.: Просвещение, 2011.
27. Кочетурова Н. Метод проектов в обучении языку: теория и практика. мастер-класс. Новосибирский государственный технический университет. 2017.
28. Жўраев Р., Зуннунов А. Таълим жараёнида ўқув фанларини интеграциялаш. – Toshkent: Шарқ, 2005
29. Yo'ldoshev J.G., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. – Toshkent: "O'qituvchi", 2004.
30. Saidaxmedov N.S. Pedagogik amaliyotda yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash namunalari. – Toshkent: RTM, 2000. – 46 b.
31. Фарберман Б.Л., Мусина Р.Г. и др. Инструменты развития критического мышления. – Toshkent: Минвуз, 2002.
32. Ишмухамедов Р., Абдуқодиров А., Пардаев А. Таълимда инновацион технологиилар. – Toshkent, 2008
33. Толипов Ў., Усмонбоева М. Педагогик технологияларнинг татбиқий асослари. – Toshkent, 2006.

34. O‘.Tolipov, S.Boltaboev. Pedagogik texnologiya va uni loyihalash bosqichlari. / DTS ishlab chiqish va tadbiq etish hamda kasbiy ta’limda uzviylikni ta’minlash muammolari Respublika ilmiy-amaliy anjuman: Tezis.

35. Golish L.V., Fayzullaeva D.M. Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish: O‘quv uslubiy qo‘llanma. Innovatsion ta’lim texnologiyasi seriyasi. – Toshkent: “Iqtisodiyot”, 2012.

36. Toshturov Sh.E. “Tarix o‘qitish jarayonini loyihalash” fanidan amaliy mashg‘ulotlar. – Navoiy. 2015.

## **II. Ilmiy jurnallardagi maqolalar:**

37. Hamroev G‘. Ona tili darslarida fonetika ustida ishlash.// Til va adabiyot ta’limi – Toshkent, 2010. – № 9. – B.10-13.

38. Muhitdinova X. Til ta’limida videomatnlar qanday uyg‘unlashadi. //Til va adabiyot ta’limi. – 2015. – №8. –B. 15.

39. Niyozmetova T. Adabiy ta’lim jarayonida o‘quvchilarga differentsial yondashuv. // Uzluksiz ta’lim. – Toshkent, 2002. – № 6. – B. 34-37.

40. Qiyasova Q. Til darslarida o`quv topshiriqlari tizimidan foydalanish. // Til va adabiyot ta`limi. – Toshkent, 2003. – № 5. – B. 22-25.

41. Shodmonqulova D. Ona tili ta’limida keys texnologiyasidan foydalanish //Til va adabiyot ta’limi. – 2015. –№5. – B. 17.

42. Козаева Г.Р., Парастаева Д.Г. Особенности внедрения мультимедийных технологий в образовательный процесс Цхинвальского многопрофильного колледжа. //Молодой учёный. № 6 (86). Март, 2015 г. (625)

43. Умарова Н. Тил таълими ва таълимий-электрон ишланмалар // Тил ва адабиёт таълими. – 2005 йил – № 6. – Б. 75-79.

44. Усмонова К. Уй вазифаси долзарб муаммо. // Тил ва адабиёт таълими. – 2007. 2-сон. – Б. 77-79. 7.

45. Полат Е.С. Метод проектов на уроках иностранного языка // Иностранные языки в школе. 2000. – № 2, 3.

46. Коптюг Н.М. Интернет-проект как дополнительный источник мотивации учащихся // Иностранные языки в школе. –2003. – №3.

47. Лукьянчикова М.Е. Опыт литературного e-mail проекта // Иностранные языки в школе. – 2003 – № 1.

48. Мамукина Г.Е. Создание мультимедийного проекта на немецком языке в средней школе // Иностранные языки в школе. – №4. –2001.

49. Побокова О.А.. Немченко А.А. Новые технологии в обучении языку: проектная работа // Новые возможности общения: достижения лингвистики, технологий и методики преподавания языков. –Иркутск, 2003.

#### **IV. Internet saytlari:**

50. <http://diclist.ru/slovar/filosofskiy/v/virtualnyj.html>

51. <http://diclist.ru/slovar/istoricheskiy/v/virtualnyj.html>

52. <http://diclist.ru/slovar/ushakova/v/virtualnyj.html>

53. <http://library.ziyonet.uz/ru/book/16018>

54. <http://www.mf.uz> (Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлиги).

55. <http://www.moluch.ru/>.

56. Rasulov O.Y. Kasb-hunar kollejlarida maxsus fanlarni elektron darsliklar vositasida o‘qitish. Ziyonet. uz

57. Гребнева Е.В. Использование современных информационных технологий для реализации требований ФГОС НОО на современном уроке и во внеурочной деятельности. [Электронный ресурс] — Режим доступа: <http://www.e-magazine.meli.ru/vipusk9.htm>;

58. Разработка электронных учебных курсов в PowerPoint с помощью iSpring Suite. <http://www.iSpring.ru/>

59. Стародубцева Е.А.Использование Интернет-ресурсов в обучении иностранному языку (на материале английского языка) // Труды МЭЛИ: электронный журнал. —2009 —№ 9 [Электронный ресурс] — Режим доступа: <http://www.e-magazine.meli.ru/vipusk9.htm>;

60. Трошина А.В. Учебное пособие по дисциплине "Информационные технологии в лингвистике". – СПб.: Изд-во СПбГЭУ, 2013. – 103 с.  
Размещено на <http://www.allbest.ru/>;

61. Пахмутова Е.Д. E-mail-проект как средство межкультурного обучения немецкому языку в сети Интернет // Материалы всероссийской конференции "Интернет. Общество. Личность". – СПб, 2000. <http://iol.spb.osi.ru>

62. Кочетурова Н. Метод проектов в обучении языку: теория и практика. мастер-класс. Новосибирский государственный технический университет. 2017.